Umida HAMRAYEVA

# MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH



74.200,58yz73
H25 K 18651 K
P
Hamrayeva U
Musiqa to'garaklarini tashkil etish
Sam-2023 400003

K.
P
К карт. № 11364
Серия 65
НПО ВКП 28.03.89

74.200,58yz73
H25 K 10ta
P

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Umida HAMRAYEVA

# MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH

O'quv qo'llanma

*(60111300-musiqa ta'limi mutaxassisligi, Oliy o'quv yurtlari musiqa yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)*

"Fan bulog'i"
Samarqand – 2023

UO'K 78:37.01(075.8)
KBK 85.998:74.200.58ya73
H 25

**Umida HAMRAYEVA. Musiqa to'garaklarini tashkil etish.** O'quv qo'llanma. – Samarqand, "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023 yil. 170 bet.

*Mazkur o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining "Musiqa ta'limi" bakalavriat yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada musiqa to'garaklarini tashkil etish va boshqarishda, yosh pedagoglar o'z kasbiy faoliyatda foydalanishlari mumkin.*

Taqrizchilar:

**B.X.MADRIMOV,**
p.f.n. Professor,

**I.QUDRATOV,**
Sharof Rashidov nomidagi SamDU O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "San'atshunoslik" fakulteti, musiqa talimi kafedrasi dotsenti.

**ISBN 978-9910-753-00-8**

SamDU
O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti
Axborot - resurs markazi
18651 – 60

© Umida HAMRAYEVA.
© "FAN BULOG'I" nashriyoti, 2023 yil.



## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizni isloh qilishda ta'lim-tarbiyada vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, yosh-avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, ayniqsa o'quvchilarni musiqa san'ati asosida tarbiyalash orqali ularning ongini zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Har qanday millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy dunyoqarashlari o'z - o'zidan shakllanib qolmaydi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi uchun aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy vositalar asos bo'ladi. Ajdodlarimizning ma'naviyati aynan shu zaminda, tarixda ham, bugungi kunda ham butun dunyo ahlining e'tiboraini va havasini tortib kelayotgan olijanob insoniy va ma'naviy fazilatlar asosida shakllangan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, sinfdan va maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlari orqali yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash uchun bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga loyiqdir. Shu ma'noda musiqa to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchi-yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va Oliy ta'lim musiqa yo'nalishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mo'siqa to'garakalarini tashkil etish borasidagi pedagogik kompetensiyalarini egallashlari uchun ushbu o'quv qo'llanma metodik manba sifatida xizmat qiladi.

Har qanday mamlakatning kelajagi milliy kadrlarning intelektual salohiyati, malakalari va kasbiy mahorati, ma'naviy yetukligi va tarixiy xotirasining mustahkamligiga bog'liq bo'ladi. Umumta'lim maktablari musiqa to'garaklarida o'rgatib kelinayotgan milliy musiqiy merosimiz o'quvchi-yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112 Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi oliy ta'lim

muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilari oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi. Shu ma'noda bugungi zamonaviy sharoitda musiqa ta'limi o'qituvchisining pedagogik faoliyati va vazifalarining murakkabligi oshib bormoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin. Bunda oliy ta'limda muassalari musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitilayotgan barcha fanlarning salmog'i katta. Shu jumladan "Musiqa to'garaklarini tashkil etish" fani o'z oldiga yuqorid keltirilgan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Maktabda musiqa to'garaklarini tashkil etish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchi-yoshlarni har jihatdan komil inson va aqqli qilib tarbiyalashda, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ham musiqa to'garaklarining ahamiyati katta. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan o'quvchi-yoshlar ijodkorligini shakllantirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, musiqa san'ati turlari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish etishlari borasida tavsiya etilgan 5 muhim tashabbusning «1-tashabbus Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta'minlash choralari» ni ko'rish kabi qator vazifalar belgilab berildi. Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garaklariga o'quvchilarini keng jalb etish va musiqa to'garaklarining soni va sifatini kengaytirish lozim. Umumtalim maktablarida "Cholgu ijrochiligi", «Xor bo'lib kuylash», «Xalq cholg'u asboblari to'garagi», «Vokal ijrochiligi», "Ashula va raqs", «An'anaviy xonandalik», «Estrada xonandaligi», «Folklor jamoasi», «Teatr» kabi musiqa to'garaklarini tashkil etish va ularni har jihatdan samarali



olib borish kompetensiyalarini musiqa talimi yonalishida tahsil olayotgan talabalarda shakllantirish ushbu "Musiqa to'garaklarini tashkil etish" fanining asosiy maqsad va vazivafalaridan sanaladi. Yosh-avlodni bilimli qilib tarbiyalash, ayniqsa, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va kasbga yo'naltirilgan holda maqsadli tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tavsiya etilgan «Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta'minlash»ga qaratilgan 5 ta tashabbusning birinchisi sifatida e'tirof etilishi, joylarda o'quvchi-yoshlarni musiqa san'ati turlariga bo'lgan qiziqishi bo'yicha ijodkorligini qo'llab-quvatlashga qaratilganligi o'ta muhimdir. Hozirgi kunda musiqa san'atini inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda.

## 1-BOB. MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

### 1-Mavzu. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsad va vazifalari.

**Reja**

1. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi.
2. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining vazifalari.

**Tayanch iboralar:** *to'garak, musiqa to'garaklari, musiqa to'garaklarini tashkil etish, maqsad, vazifa.*

### 1.1. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi.

Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi shundan iboratki, musiqa fani bo'yicha dars mashg'ulotlaridan tashqari musiqa to'garaklarini tashkil etish va o'tkazish jumladan: "raqs", "o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi", "xor ijrochiligi", "dutorchilar", "cholg'u ijrochiligi", "musiqa savodi" kabi to'garaklarni tashkil etish hamda olib borish bo'yicha talabalarning musiqiy kompetentliligini shakllantirish va uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarni taqdim etishdan iborat. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari kelgusidagi kasbiy faoliyati davomida musiqa darslarini samarali olib borishdan tashqari musiqa to'garakalarini tashkil etish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, tarbiyaviy jihatdan musiqiy-madaniy merosimizga to'g'ri yondoshishga, ular oqrali o'quvchi-yoshlarni estetik tafakkurini rivojlantirib borish muhim vazifalaridan sanaladi.

Yosh-avlodni bilimli, yetuk, ma'naviy baquvvat qilib tarbiyalash ta'lim ahlining muhim vazifasi sanaladi. Yoshlarni tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, axloqiy fazilatlar va insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan aqlan va jismonan barkamol insonni kamol toptirish nazarda tutiladi. Maktabda tashkil etiladigan musiqa to'garaklari yoshlarni komil inson qilib



tarbiyalashga, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktablar bilan birga darsdan tashqari to'garaklar faoliyati shak - shubhasiz katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'smirlarning to'garak orqali hayotga qiziqishi, his-tuyg'ularining o'sib borishi, atrof-muhitni kuzatish qobiliyatining o'sishida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Boshqa san'at turlariga nisbatan musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim tarbiyaviy qismidir. Estetik tarbiya go'zallikni his qilish va tushunish tarbiyasi demakdir. Estetik tarbiyada darsdan tashqari olib boriladigan musiqa san'ati mashg'ulotlari o'ziga xos, alohida o'tkir ta'sirchanlikka ega bo'lganligi sababli maorifchilarning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Qolaversa, o'quv maskanlarida musiqa orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya yosh avlodda go'zal odob-axloq, insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim vosita ekanligi tarixdan ma'lum. Zero, jamiyat taraqqiyoti moddiy madaniyat bilan ma'naviy madaniyatning bir-birini to'ldirishi va uyg'unlashtirilishi orqali amalga oshadi. Qo'shiq, musiqa insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undaydi. Har bir qo'shiq, musiqa orqali insonda yashirinib yotgan qobiliyat va iqtidorlarni topish imkoniyati yuzaga keltiriladi. Xonandalik san'ati odamlardagi yaxshi fazilatlarni ko'paytirib, yomon sifatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Milliy madaniy merosni o'rganish va o'zlashtirish orqali o'zbek millatiga mansubligi bilan faxrlanish hissini uyg'otadi. Musiqa ma'naviy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismidir. Shunday ekan, O'zbekistonning barcha fuqarolari milliy madaniyatimiz, xususan, musiqa san'atidan xabardor bo'lishi lozim. Maktablarda tashkil etiladigan musiqa to'garaklarining asosiy maqsadi yoshlarimizga musiqa tarbiyasi ko'nikmalarini singdirishdan iboratdir. Shu bilan birga ularning faoliyatida o'quvchilarni Vatanga, millatga mehr-muhabbatli, komil inson qilib tarbiyalash, to'garak a'zolarini ko'rik-tanlovlarga tayyorlash alohida

o'rin tutadi. Prezidentimizning "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112 qarori asosida tashkil etiladigan musiqa to'garaklari xalqimiz madaniy- ma'naviy hayotida o'ziga xos muhitni yaratdi. Unda musiqa san'atini, shu jumladan "cholg'u ijrochiligi"ni shakllantirish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

Musiqa san'atining turli sohalarini qamrab olgan holda musiqa to'garaklarini tashkil etish o'z oldiga muhim maqsadlarni qo'yadi. Milliy ta'lim va tarbiyaga asoslangan musiqa to'garaklari o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta'lim va tarbiya oldidagi eng muhim maqsadlardan biri ham o'quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya ishlarida milliy-ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi. Musiqa san'atining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lgan xalq musiqa ijodiyotidan ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim maktablarida dars va darsdan tashqari (turli madaniy-ommaviy tadbirlar, musiqa to'garaklari, ko'rik-tanlovlarga tayyorgarlik va hokazo) faoliyatlarda keng foydalanishni yanada kuchaytirish, birinchidan, ta'lim mazmunini boyitsa, ikkinchidan, ta'limning milliy negizini mustahkamlaydi. Umumta'lim maktablari musiqa to'garaklarida xalq musiqa ijodiyotini o'rganishga e'tibor berish, ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni pedagogik tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### 1.2. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining vazifalari.

Maktab ta'lim tizimida musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining vazifalari quyidagilardan iborat.

- musiqa to'garaklarini tashkil etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.



- musiqa to'garaklarini tashkil etish bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish:
- o'zbek mumtoz ashulachiligi maktabi haqida nazariy va amaliy bilimlarni egallash:
- o'zbek mumtoz ashulachilarini yakka hamda jamoada kuylash tartib - qoidalarini o'rganish:
- raqs to'garaklarini tashkil eta olish va olib borish, maktab tadbirlarida namoyish etish ko'nikmalarini egallash;
- xor jamoasini tashkil qilish va olib borish;
- cholg'u ijrochiligi to'garaklarini tashkil eta olish ulardan ansambl ijrochiligiga erishishga o'rganish va amalda qo'llash malakalarini egallashdan iborat.

Bugungi kunda maktabda musiqa to'garaklarini tashkil etish va ularning sifat va samarodorligini oshirishda maktabda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi-yoshlar uchun eng zamonaviy texnologiyalar asosida qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Musiqa to'garaklarini zamonaviy uslubda olib boorish uchun tarbiyaning barcha yo'nalishlariga e'tibor qaratilishi, pedagogik faoliyati davomida to'plagan tajribalardan unumli foydalanish kerakligini taqazo etadi. O'quvchilarning musiqiy qobiliyati va unga bo'lgan dunyoqarashi shu bilan birga ularning estetik tarbiyasi turlicha bo'ladi. Musiqa to'garaklarining tuzulishi, to'garak maqsadi, to'garak mazmuni, didaktik jihatdan o'ziga xosligi, to'garak ish rejasining fan mazmuni bilan bog'liqligi, o'quvchilarning yoshi va imkoniyatiga ko'ra bir-biridan farq qilinishi lozim. Musiqa to'garagi rahbari o'quvchilarni turli yo'nalishdagi musiqa to'garakalariga, ularga tarbiyaviy ta'sir etuvchi estetik qadriyatlar bilan boyitilgan tarbiyaviy omillarga boyitilgan to'garaklarga yo'naltirishi lozim. O'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga, onavatanimiz tabiatiga, milliy xalq san'atimizga, badiiy madaniyatimizga, o'z tariximizga muhabbat tuyg'usini rivojlantirib boorish lozim. Musiqa to'garaklarida xalq pedagogikasi tayanish, Sharq mutafakkir-

olimlarining dono fikrlaridan, shu bilan birga zamonaviy bilimlardan foydalanish lozim.

Musiqa to'garaklari oldida turgan muhim vazifalardan biri shuki, musiqiy va estetik tarbiya tizmini yo'lga qo'yishdir. Bu tizimlar esa o'quvchilarning tarbiyaviy-ta'limiy rivojlanishini belgilaydi. Musiqa to'garaklari tizim jihatidan 3 ta vazifani:

1. Ilmiy rivojlanib borish;

2. Psixologik va pedagogik jarayonlar umiyligidan iborat ta'lim jarayonida jamiyat talablarini e'tiborga olish;

3. Yangicha bilimlarga amal qilish va boshqa umumiy qoidalar asosida tarkib topishi kerak. Ushbu vazifalar asosida o'quvchilarning shaxsiyatiga mos yo'nalish belgilanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun musiqa to'garaklarida san'atning ayrim turlarini, milliy va jahon musiqa madaniyatini o'rganish va boshqa ta'lim va tarbiya shakllaridan foydalanish lozim. Ayniqsa, kata va o'rta yoshdagi o'quvchilarni o'z bilim, ko'nikma malakalarini mustaqil ravishda oshirishga o'rgatib borish kerak. Bunda musiqa to'garaklari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Savollar va topshiriqlar:**

1. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi nima?
2. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Musiqa to'garaklarining o'ziga xosligi nimada?
4. Musiqa to'garaklarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'zlab bering.
5. Musiqa to'garaklarining qanday turlari mavjud?



## 2-Mavzu. Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodi.

**Reja:**

**1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni.**

**2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.**

**3. Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodi**

**Tayanch iboralar:** *sinfdan tashqari ishlar, musiqa to'garaklari, shakl, metod, tarbiyaviy ishlar.*

### 2.1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni

**Sinfdan tashqari ishlar** - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni komil inson sifatida shakllanishiga va ularni mustaqil hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan birga olib boriladigan va ularga ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan turli yo'nalishdagi mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bu mashg'ulotlar pedagogik faoliyat yuritayotgan jamoa va sinf rahbari va ma'naviyat boshliqlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtirib boriladi. Maktabda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda musiqa to'garagi mashg'ulotlari katta yordam beradi. Sinfdan tashqariishlarning asosiy shakllariga ommaviy ishlar, tadbirlar, tanlovlar, davra suhbatlari, ko'rgazmalar, kitob taqdimotlari, tabiat qo'yniga sayohat, ochiq eshiklar, muzeylarga sayohat, tarixiy obidalarga ekskursiyaga chiqishlar, to'garak mashg'ulotlari, mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va h.k. bilan mustaqil shug'ullanishi) ni kiritish mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning ish faoliyatini turli xil faoliyat turlarini tashkil etishdan iborat. Bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat: Birinchidan, turli xil o'qishdan tashqari

faoliyat o'quvchining individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga, o'quvchilarni o'zini-o'zi namoyon etishga, o'zlariga ishinchni paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, o'quvchilarni turli xil sinfdan tashqari ishlarga jalb qilish ularning insoniy fazilatlarini va shaxsiy tajribasini, rang-barang faoliyatini va bilim, ko'nikmalarini boyitib boradi. Uchinchidan, turli xildagi sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarda xilma-xil faoliyat turlariga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarda mehnat qilishga qiziqishi shakllangan bo'lsa, ular o'z faoliyatlarini o'zlari mustaqil ravishda tashkil etishlari mumkin. To'rtinchidan, o'quvchilar turli xil sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etish bilan birga o'zlarining individual xususiyatlarini namoyish etishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga, o'z o'rtoqlari haqida qayg'urishga o'rganadilar. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishlarning har bir turi ijodiy, bilimga qaratilgan, sport, mehnat, o'yin harakatlarida bo'lib, o'quvchilarni muayyan yo'nalishidagi o'zaro hamkorlik tajribasini boyitadi. Sinfdan tashqari ishlar bir tomondan o'quv jarayonini rivojlantirishga ishlasa, boshqa tomondan o'quvchilarning tarbiyaviy tomonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari**. Butun bir ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonning maqsad va vazifalariga o'ziga xos xarakter beradi va ularni amalga oshirish uchun uzviy xizmat qiladi. Masalan, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar faoliyatida ta'lim berish birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi. Sinfdan tashqari ishning ta'lim berish vazifasi ilmiy bilimlar sistemasini o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdangina iborat emas, balki o'quvchilarni muayyan xulq-atvor malakalariga jamoaviy hayotiga muayyan ko'nikmalariga o'rgatishdan ham iborat. Sinfdan tashqari ishda uning rivojlantiruvchi vazifasi katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga sinsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning individual qobiliyatini rivojlantirishdan ham iborat.



Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish individual ishda ham, ommaviy ishlarda ham foydalanilishi mumkin. Bular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

**Tarbiyaviy vazifalarni o'rganish.** Bu bosqich o'quvchilarning va sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad pedagogik reallikni obyektiv baholash, undagi ijobiy jihatlar (o'quvchidagi, jamoadagi eng yaxshi tomonlar)ni hamda nimalarni tuzatish, shakllantirish va eng muhim vazifalarni aniqlashdan iborat. O'rganish ishlari pedagogik tadqiqotlarda ma'lum bo'lgan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, kuzatish yordamida pedagog har bir bola va umuman jamoa to'g'risida axborot to'playdi. Suhbat axborot to'plovchi metoddir. Bunda suhbat faqat o'quvchi va sinf bilan emas, balki ota-onalar, sinfda ishlovchi boshqa o'qituvchilar bilan ham o'tkaziladi. Individual ishda bolaning faoliyati mahsulotlari: rasmlar, mayda-chuyda buyumlar, she'r, hikoya va hokazolar katta ahamiyatga ega. Jamoani o'rganishda sotsiometriya metodi axborot berish jihatidan ustun turadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishni modellashtirish shundan iboratki, pedagog o'z xayolida muayyan shakl obrazini yaratadi. Bunda sinfdan tashqari ishning maqsadi, umumiy vazifalari mo'ljal sifatida foydalanilishi kerak. Umumiy maqsad - kirishimlilik sifatlarini tarbiyalash bo'lsin. Aniq maqsad — o'z-o'ziga baho berishni oshirish, xavotirlanish holatini yo'qotish, ya'ni ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish. Masalan 1- sinf o'quvchilari xayrixoh, yoqimtoy, lekin bilimga intiluvchan emas. Sinfdan tashqari ishning umumiy maqsadi - bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, asosiy vazifa - rivojlantirish, aniq maqsad - o'quvchilarning ong-bilim doirasini kengaytirish, bilish faolligini shakllantirish. Sinfdan tashqari ishning maqsadi, vazifalari hamda sinf va o'quvchilarni o'rganish natijalariga muvofiq ravishda uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tanlanadi. Mazkur bosqich tarbiyaviy vazifalar,

ularning mazmuni, shakllariga tuzatishlar kiritish va keyingi sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

## 2.2. Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodi.

**1.Individual sinfdan tashqari ishlarning shakllari.** Individual sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning umumiy maqsadi – shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish o'quvchida ijobiy "men" konsepsiyasini shakllantirish hamda uning shaxsidagi xilma-xil tomonlarni, individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Individual ishning mohiyati o'quvchilarni umumlashtirish, unda o'z- o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Individual ishning samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ish shaklini aniq tanlashgagina emas, balki o'quvchini ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishga ham bog'liq. O'quvchi bilan olib boriladigan individual ish pedagogdan kuzatuvchanlikni, nazoratni, ehtiyotkorlikni, sermulohazalikni talab etadi. Uning samaradorligida pedagog bilan o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatilishi asosiy shartlardandir. Quyidagi shartlarga rioya qilingandagina bularga erishish mumkin:

1. O'quvchining tuyg'ulari, kechinmalari, istaklarini to'la qabul qilish. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga g'ayriixtiyoriylik, shaxsiy tajribaning yetishmasligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrokdan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida keskinlik kasb etadi va uning kelgusi taqdiriga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchini tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi o'quvchining xatti-harakati va ishlarini ma'qullaydi degan gap emas.

2. Tanlash erkinligi. O'qituvchi har qanday yo'llar bilan muayyan natijaga erishishga intilmasligi kerak. O'qituvchi hech qachon o'quvchini majbur qilmasligi kerak. Har qanday tazyiq istisno qilinadi. O'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, o'quvchi



shaxsiy qaror qabul qilish uchun to'la haqlidir. Pedagogning vazifasi - o'quvchini o'qituvchi taklif qilgan qarorni qabul qilishga majburlash emas, balki to'g'ri tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdir.

3. O'quvchining ichki ruhiyatini tushunish o'qituvchidan o'quvchi yuboradigan noverbal axborotni o'qiy bilishni talab etadi. Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog va bolaning muomalasida psixologik to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi.

**2.Sinfdan tashqari ommaviy ishlarning shakllari.** Sinfdan tashqari ommaviy ish shakllari pedagogga har bir o'quvchiga jamoa orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday ishlar o'quvchilarni boshqalarni tushunish, jamoa bo'lib ishlashda birgalikda harakat qilishga, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'zining hissasini qo'shishi lozim. Hamma bajarayotgan ishning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq.

### Savol va topshiriqlar.

1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni nimalardan iborat ?
2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday tashkil etiladi ?
3. Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodi haqida so'zlab bering?
4. Sinfdan tashqari ishlarning individual shakli qanday amalga oshiriladi?

## 3-Mavzu. Musiqa to'garaklari ishlarini rejalashtirish va olib borish metodikasi

**Reja:**

1. **To'garak rejasini tuzish**
2. **To'garaklarga o'quvchilarni jalb qilish.**

**Tayanch iboralar:** *to'garak rejasi, musiqa to'garaklari, o'quvchilar, musiqa to'garaklarini tashkil etish metodikasi.*

### 3.1. To'garak rejasini tuzish.

To'garak ishlarini tashkil etishda to'garak rahbari o'ziga ish rejasini tuzib olishi zarur. To'garak mashg'ulotlari o'quvchilar yoshiga qarab turli guruhlardan iborat bo'ladi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan va yuqori sinf o'quvchilaridan har xil to'garak lar tuzish mumkin. Bundan tashqari har bir sinfning o'quvchilaridan tuzilgan alohida to'garaklar, musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishiga va qobiliyatiga qarab ham musiqa to'garaklari tashkil etilishi mumkin. To'garak jamoasi o'rtacha 10—16 kishidan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida qaysi to'garak turini tanlashga bog'liq. 10-16 dan ortiq kishilik to'garak jamoasini boshqarish uchun rahbar ma'lum darjada mahoratli va tajribali bo'lishi talab qilinadi.

Inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamolotini ta'minlashda san'atning, jumladan, musiqaning ahamiyati katta. Zero san'at asarlari vositasida kishining badiiy dunyo kengayib ma'naviyati shakillanadi. Ma'naviyatni shakillantirish esa, har bir davrning muhim vazifasi bo'lib, uni hal etish nihoyatda dolzarb. San'at vositasida musiqa madaniyati, bola shaxsining ma'naviyatini shakllantirishni izchil amalga oshirishda umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garaklarining ayniqsa roli katta. Iste'dod tufayli respublika maktablarida musiqa ta'lim tarbiyasining yangi, Konstitutsiyasi qabul qilindi. Musiqa dasturlari ishlab chiqildi. Musiqa darslarini milliy musiqa merosimiz ustivorligida amalga oshirish yuzasidan uslubiy qo'llanma tavsiyanomalar nashriyotlarida chop etilmoqda.



Dars-musiqa tarbiya tizimida asosiy omil hisoblanadi. Biroq musiqa tarbiyasi tizimida dars jarayonlarini to'ldiruvchi va boyituvchi yana bir omil mavjud bo'lib, u sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimidir. Tarbiyaga oid masalaga yondashilganday eng avvolo uning ahamiyati va maqsadi. sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ahamiyati: **Birinchidan**-o'quvchilarning badiiy ehtiyojini qondirish bo'lsa, **ikkinchidan** sinfda olingan bilim va malakalarni boyitishni kengaytirish, boyitish va amaliy faoliyatga qo'llashdan iborat. Iqtidorli o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish uchun, zaruriy shart sharoitlarni yaratib borishdan iboratdir. Sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarining samaradorligiga erishish orqaligina o'quvchilar ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyati tarbiyalash maqsadini amalga oshirish ancha samarali bo'ladi.

### 3.2. To'garaklarga o'quvchilarni jalb qilish

Musiqa to'garagi rahbari faoliyatini kuzatish tahlil etish natijalari ularni ixtisoslikning mazkur yo'nalishi sohasida maxsus tayyorgarlikga to'liq ega bo'lishi kerakligidan dalolat beradi. Bu ayniqsa, to'garak rahbarining sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga kiradigan tadbirlarning sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga kiradigan tadbirlarning ommaviy va to'garak ko'rinishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida namayon bo'ladi. Demak sinfdan tashqari tarbiyaning ommaviy hamda to'garak shakllari mavjud. Ommaviy tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'proq o'quvchilarni jalb qilishni toqazo etadi. Ammo, ulardan qandaydir alohida qobiliyati maxsus musiqiy bilim va malakalarni talab qilinmaydi. Bu tadbirlarga qo'shiq bayramlari musiqa haftaligi, san'at bayramlari, musiqiy ijodiy uchrashuvlar ko'rik tanlovlar va boshqalar kiradi. Bu tadbirlar musiqiy tarbiya vazifasini bajarib o'quvchilarning badiiy qiziqishlarini rivojlanishiga ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga samarali yordam beradi.

SamDU
O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti
Axborot - resurs markazi
18651

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining yana bir shakli-musiqiy to'garaklar bo'lib u an'anaviy xarakterga ega. Uning tarkibiga xor, musiqa asboblarida chalishni o'rganish, Vakal-cholg'u dastasi, cholg'uchilari (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar) dastalari kabi to'garaklar kiradi. Musiqa tarbiyasining bu shakli ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'garaklarning asosi musiqa darslaridir. Chunki musiqa to'garaklariga layoqatli va musiqa darslariga to'la ko'nikmagan o'quvchilar jalb qilinadi. Dars har bir bolaning layoqati va qiziqishi hisobiga olinib uning xohishi bilan u yoki bu musiqa tugaragiga jalb qilinadi. Shuni ham ta'kidlab utish lozimki, mashhur san'atkorlar, iste'dodli san'atkorlar, ajoyib xonandalar ana shunday musiqiy to'garaklardan birida tarbiyalanib kamol topganlar. To'garak faoliyatini faollashtiradigan narsa maktab sahnasidir. Unda to'garakchilar sahnada ijro etish orqali qobiliyati, tomashabinlarning esa, ijrolarni tinglab va kuzatib musiqiy-estetik didlari rivojlanadilar.

To'garak ishlari ham maxsus dasturlari va kalendar tematik reja asosida olib boriladi. Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya muassasalaridan qatnashadigan bolalar ham o'qituvchilar nazoratidan bo'lib, maktab musiqa hayotiga ularning faol qatnashishini ta'minlash lozim. Ommaviy tadbirlardan erishilgan yutuqlar diplom yoki shahodatnomalar maktabning umumiy majlislarida ota-onalar ishtirokida e'lon qilinadi. Faol qatnashgan to'garak a'zolari rag'batlantiriladi. Pirovardida hisobot konserti beriladi. Umuman olganda to'garak faoliyati maktab hayoti bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Dars singari xalq ta'limi tizimi tomonidan har bir to'garak turining o'quv dasturi chiqariladi. To'garak rahbari asarini dasturdan tanlab oladi. E'lon qilingan yangi asarlardan yana qo'shimcha tanlab olinadi va to'garak a'zolari bilan birgalikda repertuarlar rejasi va uni o'rganish belgilanadi. Shunday qilib, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya tizimlari o'quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim



ahamiyatga egadir. Bu tizimlar muhim pedagogik yo'nalishlar bo'lib, uni takomillashtirish musiqa ta'limning dolzarb muammolaridandir.

**Savol va topshiriqlar.**

1. To'garak rejasi qanday tuziladi?
2. To'garaklarga o'quvchilarni jalb qilish. ishlari qanday amalga oshiriladi?
3. To'garakda tarbiyaviy ishlarning o'ziga xosligi nimada?
4. To'garakning darsdan farqi nimada?
5. Musiqa to'garaklarining turlarini sanab bering?
6. Umumta'lim maktablarida musiqa to'garaklarining tashki etilishi nimalarga asoslanadi?

## 4 – Mavzu. Musiqa to'garagi rahbari oldiga qo'yilgan talablar

**Reja:**

1. **Musiqa to'garagi rahbarining vazifalari.**
2. **To'garak mashg'ulotlari tahlili.**
3. **To'garak mashg'ulotini kuzatuvchining maqsadi**

**Tayanch iboralar:** *to'garak rahbari, vazifalari, musiqa to'garaklarining tahlili.*

### 4.1 Musiqa to'garagi rahbarining vazifalari.

Musiqa to'garagi rahbarining qilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ular **Birinchidan**, umumta'lim maktablarida darsdan tashqari musiqa to'garaklarida rahbar musiqa san'atining keng namunalaridan foydalanishda ularni bir nechta mezonlar asosida qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

1. Musiqa to'garagi turlari bo'yicha tashkil etilgan musiqa to'garaklarining a'zolarining iqtidorini aniqlash, musiqa asarlari repertuarini tanlash va o'quvchilarning qiziqishini va o'zlashtirishlarini hisobga olish;

2. Musiqa asarlaridan repertuar tanlashda o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini, qiziqishini, ijrochilik imkoniyatlarini inobarga olish;

3. Repertuarlardan tanlangan asarlarni o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkurini, natijaviyligi bilan birga tarbiyaviy ta'surchanligiga ega bo'lish;

4. To'garak a'zolarida o'qishga ijodkorlikka, mehnatga, ijodiy izlanish va mustaqil ishlashga va ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otish;

5. Musiqa asarlarini o'rganish orqali to'garak mashg'ulotlarida musiqa ta'limining boshqa tarkibiy qismlari (Musiqa savodi, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) ni o'zlashtirish uchun ahamiyatliligiga e'tibor qaratish.

**Ikkinchidan,** musiqa asarlaridan ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanish sinfda darsda o'tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qilishiga e'tibor berish;

**Uchinchidan,** o'zbek xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularning qaysi mahalliy musiqa uslubiga xosligi, janri, ijrodagi musiqiy cholg'ularning ishtiroki, raqs jo'rligi kabi xususiyatlarga e'tibor berish.

**To'rtinchidan,** umumta'lim maktablari musiqa to'garagi rahbalari har bir mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishlari, musiqa ta'limi va musiqa ijodiyotining nazariy, amaliy bilimlari bilan boyitib borishlari, o'z ustida ishlab bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishi lozim.

**Musiqa to'garaklarining maqsadi** quyidagilardan iborat. O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni musiqiy ruhda tarbiyalash, musiqiy bilimini, dunyoqarashini, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning urf-odat va an'analaridan mazmunli foydalanish, milliy qadriyatlarga asoslangan tashkiliy pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashdan iboratdir.



Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari musiqa to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

-umumiy o'rta ta'lim maktblarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy ishlar bajarilishini ta'minlash;

-musiqa to'garaklari a'zolari ro'yxati, mashg'ulot bo'ladigan kunlar jadvali shakllantiriladi;

-musiqa to'garaklarining o'quv-me'yoriy hujjatlarini va moddiy-texnik ta'minotini yaratish;

-musiqa to'garaklarini samarali tashkil etish, mazmunini boyitish, musiqa to'garagi rahbari ijodiy izlanishlar olib borish;

-to'garak ishtirokchilarini turli tadbirlar, tanlovlar, festival va ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini ta'minlash.

### 4.2.To'garak mashg'ulotlari tahlili

To'garakning nomi ______________________

To'garak rahbari

______________________

(F.I.Sh)

Mashg'ulotga ajratilgan vaqt ____ daqiqa. Mashg'ulot turi ______________________

Ro'yxat bo'yicha o'quvchilar soni ____ Qatnashgan o'quvchilar soni ___

Sana____________

TAHLIL

1.Mashg'ulot o'tkaziladigan xona ______________________

______________________

2.To'garak rahbarining mashg'ulot o'tishga tayyorgarligi (mavzu, ish rejasi, jurnal)

______________________

______________________

______________________

3.Mavzuga doir ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanishaning holati

4. Mavzuning yoritilish darajasi

5.O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi

6.Yutuqlar

7.Kamchiliklar

8.Taklif va mulohazalar

9.Tahlil qildi
(IMZO)
(F.I.Sh)



10.Tahlil bilan tanishdim
(IMZO)
(F.I.Sh)

### 4.3. To'garak mashg'ulotini kuzatuvchining maqsadi.

Shu o'rinda to'garak mashg'ulotini kuzatuvchi o'z oldiga qaysi maqsadni qo'ygan bo'lsa, tahlil daftarining shu qismiga yozib qo'yadi. Masalan, to'garak mashg'ulotida to'garak: rahbarning ta'limini tarbiya bilan bog'lash yo'llari va bu boradagi metodlarini o'rganish.

To'garak mashg'ulotining borishiga ilmiy-metodik, didaktik, umumiy pedagogik va umumiy psixologik tavsif.

-to'garak mashg'ulotining tuzilishi, uning qismlarini rejalashtirish, vaqtdan o'quv taxtasidan va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanish (mazkur mashg'ulot mashg'ulotining cabinet tizimida olib borilganligi yoki olib borilmaganligi), o'quv xonasining sanitar-gigienik holati, sinfdagi to'garak a'zolarini o'quv anjomlari bilan qanchalik qurollanganligi;

-o'rganilayotgan mavzuning vaqt va mazmun jihatidan o'quv dasturiga mosligi, to'garak rahbari bayon etayotgan mavzuning ilmiyligi, to'laligi, mavzuning to'garak a'zolari yoshiga mosligi, g'oyaviy qimmati, mashg'ulotning tarbiyaviy ahamiyati, to'garak rahbari bayonining ravonligi;

-o'tgan mashg'ulot mavzusining so'ralishi, yangi mavzuning o'tilgan mavzuga bog'lanishi;

-to'garak rahbarining mashg'ulot o'tish usul va metodlari, mashg'ulot davomida oldingi yoki o'tgan mashg'ulotda o'tilgan mavzuni so'rashda, yangi mavzuni bayon qilishda, mustahkamlash va yakunlashda to'garak rahbari qo'llagan metodlar, ularning maqsadga muvofiqligi, mashg'ulot davomida foydalanilgan ko'rgazmali vositalar, mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashi;

-to'garak a'zolarining mashg'ulotga munosabati – mashg'ulotga o'z vaqtida yetib kelishi, diqqat bilan tinglashi, kuzatishi, qiziqishi,

faolligi, ishtiyoqi, intizomi, mazkur fan asoslarini bilishi, mustaqil fikrlash qobilyati, amaliy yoki laboratoriya ishlarini mustaqil bajara olishi.

To'garak rahbarining to'garak mashg'ulotiga munosabati – o'z vaqtida yaxshi tayyorgarlik bilan to'garak mashg'ulotiga kelishi, mazkur guruhdagi to'garak a'zolarining psixologiyasini bilishi, to'garak mashg'ulotida to'garak a'zolariga nisbatan muomalasi, guruhni boshqara bilishi, ish uslubi, mashg'ulotda to'garak rahbarining rahbarlik roli, nutq madaniyati, tashqi qiyofasi, to'garak a'zolari o'rtasidagi obro'si, mashg'ulotda texnika vositalaridan foydalanishi, mazkur guruh bilan aloqasi va hokazo.

To'garak mashg'ulotining ijobiy va salbiy tomonlari. Bunda kuzatuvchi to'garak mashg'ulotining borishiga ilmiy metodik, didaktik, umumiy pedagogik hamda umumiy psixologik yo'nalishdagi tavsifi ichidan to'garak mashg'ulotining yutuq va kamchiliklari terib olinadi va mashg'ulot tahlilining shu qismiga ilmiy va umumpedagogik tavsiyalarini to'garak mashg'ulotlarini kuzatish daftariga yozishi.

To'garak mashg'uloti xulosasi – to'garak mashg'uloti rejasining bajarilishi, to'garak rahbarining o'z oldiga qo'ygan ta'lim-tarbiyaviy maqsadiga to'liq erishishi yoki erisha olmaganligi, to'garak a'zolari bilimining sifati, mashg'ulotdagi ta'limning davlat o'quv dasturiga mosligi.

To'garak mashg'uloti samaradorligi va to'garak rahbarining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid mashg'ulot kuzatuvchi tomonidan beriladigan takliflar ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishga yordam berishi lozim.

**Savol va topshiriqlar.**

1.Musiqa to'garagi rahbarining qanday vazifalari mavjud?

2.To'garak mashg'ulotlarini tahlil qilib bering.

3. To'garak mashg'ulotini kuzatuvchining maqsadi nimalardan iborat?



4. To'garak mashg'ulotlarining samaradorligi nimalardan iborat?

## 5- Mavzu. Musiqa to'garagi rahbarining padagogik mahorati.

**Reja:**

1. **Musiqa to'garagi rahbarining padagogik mahorati mazmuni.**
2. **Pedagogik mahorat haqida tushuncha.**

**Tayanch iboralar:** pedagogik mahorat, *musiqa to'garaklari, musiqa to'garaklarini tashkil etish, to'garak rahbari.*

### 5.1. Musiqa to'garagi rhbarining pedagogik mahorati mazmuni.

Bugungi kunda musiqa to'garagini zamonaviy ruhda tashkil etish va uni mazmunli olib borish musiqa to'garagi rahbaridan katta mahorat talab qiladi. Zamonaviy musiqa to'garagi rahbari komil inson tarbiyasiga hissa qo'shadigan ta'lim va tarbiyani zamon talablari asosida olib boradigan, to'garak mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etadigan, ijodkor, o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini egallagan, mahoratli rahbar bo'lishi lozim. Musiqa to'garagi rahbari mashg'ulot maqsadini zamon talablariga muvofiq ishlab chiqishi, o'z mashg'ulotlari doirasida amaliy tadqiqotlar olib borishi, ta'lim tizimini yuksak jahon miqyosidagi yutuqlarga tayanib, umumkasbiy va ijodiy faollikka erishishi, istiqbolli vazifalarni ilgari surishga qodir yangi avlod vakillarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Musiqa to'garagi rahbari pedagogik mahoratini ko'rsatib beruvchi eng muhim omillardan biri to'garak mashg'uloti jarayonini qulay va samarali holatda tashkil etishiga bog'liq, shu bilan birga rahbar o'z oldiga maqsad qo'yishi, o'quvchilarni komillikka eltuvchi maqsadlar sari yo'naltira olishidadir. Rahbar o'zining maqsadini aniq tasavvur eta olishi va o'z

faoliyati maqsadiga erishish o'quvchilari uchun ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: "Har doim ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi". To'garak mashg'ulotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida to'garak a'zolari faoliyatini boshqarish murakkabligi shundaki, rahbarning maqsadi har doim o'quvchining kelajagi uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Shu ma'noda mahoratli pedagoglar o'z faoliyatini mazmunini o'quvchilar ehtiyojiga moslab loyihalashtiradilar. Bu esa hamkorlik pedagogikasini amalga oshirish ham hisoblanadi.

Musiqa to'garagi rahbarining pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, rahbar har doim o'zustida muntazam ishlab kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib borishi lozim. O'zining alohida xususiyatlaridan tashqari, o'quvchilar bilan ishlash qobiliyati, ularni uyushtirish, bir maqsad yo'lida birlashtirish, mazmunli va samarali mashg'ulotlarni tashkil eta olish va ularni boshqarish kabilar rahbarning pedagogik mahoratini tashkil etadi. Psixolog-olimlarning ta'kidlashicha hab bir shaxs takrorlanmasdir. Shuning uchun pedagog rahbar har bir o'quvchi bilan individual ish olib borishi lozim. Musiqa to'garagi rahbari doimo o'sib-o'zgarib takomillashib borayotgan o'quvchi shaxsi bilan ish olib boradi. Ularga yondashishda bir xildagi qotib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Shuning uchun ham musiqa to'garagi rahbaridan doim ijodiy izlanishda bo'lishini talab qilinadi. To'garak mashg'uloti jarayonida o'quvchi shaxsiga ijobiy-axloqiy tomondan ta'sir etadigan shaxs to'garak rahbari hisoblanadi. Bu esa to'garak rahbarining o'z axloqiy sifatlarini takomillashtirib borishini taqazo etadi. O'qituvchi mamlakatimizdagi ilm-fan, ta'lim, milliy qadriyatlar, musiqiy merosimiz, va musiqiy san'atimiz namunalari bilan o'quvchilarni tanishtirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. To'garak a'zolarining har biriga individual yondashishi, ularning psixologiyasini o'rganishi, mashg'ulot jarayonida ularning talab va istaklarini qondirishi, yaxshi ijodiy natijalarga erishishi, o'quvchi-



yoshlarning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun sharoit yaratishi lozim.

## 5.2. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garagi rahbari pedagogik mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

Mahorat - bu mohirlik, ustalik, epchillik degan ma'nolarni anglatib, biror ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarishdir.

Pedagogik mahorat esa pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta ustalik va epchillik bilan tashkil etishi hamda mohirlik bilan boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligidir.

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, "ta'lim" ustuvor milliy loyihasini amalga oshirishda musiqa to'garagi rahbariga yangi talablar qo'yadi. Bu esa, ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan muhitda yashashga qodir bo'lgan o'qimishli, ijodiy, musiqiy qobiliyatli, malakali va raqobatbardosh shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yangi vazifalarni qo'yadi. Ta'limning yangi paradigmasi musiqiy bilimlarni doimiy to'ldirish va yangilash, ijrochilik malakalarini va ko'nikmalarini takomillashtirish, ularni mustahkamlash va kompetentsiyaga aylantirish ehtiyojlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Uning oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun musiqa to'garagi rahbari kasbiy mahorat va professionallikning zarur darajasiga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik mahorat bu to'garak rahbarining kasbiy faoliyati bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari majmui hisoblansa, musiqiy mahorat – bu o'z musiqiy faoliyatini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garagi rahbari faqat bir sohadagi "mutaxassis" bo'lmasligi, u nazaryachi, musiqa tarixchisi, musiqa etnografi va musiqa asbobini yaxshi biladigan ijrochi bo'lishi ham kerak.

Musiqa to'garagi rahbarining pedagogik mahorati uning faoliyati kasbiy madaniyat va pedagogik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan turli tarkibiy qismlarni birlashtiradigan kompleks sifatida tavsiflangan shaxsning integratsiyalashgan sifati hisobdanadi.

Musiqa to'garagi rahbari bir nechta pedagogik mahorat omillarini o'zida mujassam ettirgan bo'lishi kerak:

1. Musiqa to'garagi rahbari o'zining madaniyati bilan ajralib turishi kerak;
2. Musiqiy faoliyatning yuqori badiiy sifati bilan ajralib turishi kerak;
3. Musiqa to'garagi rahbari juda keng musiqiy dunyoqarashga ega bo'lishi kerak;
4. Musiqa to'garagi rahbari ko'p qirrali musiqashunos bo'lishi kerak;
5. Musiqa to'garagi rahbari – psixolog bo'lishi kerak;
6. Pedagogik jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil eta olishi kerak;
7. Musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zida mujassam ettirgan bo'lishi kerak;

Pedagogik mahoratni shakllantirishga qaratilgan harakatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchilarning o'zlari mustaqil ishlashlariga undash;
- ta'lim sifati va natijasi bilan bog'liq maqsad va qiziqishiga erishish;



- ijrochilik malakasini oshirish;
- boshqalarning nuqtai nazaridan farq qiladigan fikrlarini qo'rqmasdan ifoda etishga undash;
- turli o'quvchilarning motivatsion faoliyatiga qo'shilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga imkon beruvchi turli xil turtki shakllarini yaratish;
- o'z sohasidagi yutuqlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish;
- ijroviy imkoniyatlarni kengaytirish;
- savollar berish va takliflar berishni o'rgatish;
- tinglash va boshqalarning fikrini tushunishga harakat qilishni o'rgatish, lekin o'z huquqiga rioya qilgan holda;
- o'quvchilarning o'z ish natijalarini baholash mezonlarini to'liq tushunishiga olib kelish;
- o'z pedagogik faoliyatini va uning natijalarini ma'lum mezonlarga muvofiq o'z-o'zini hurmat qilishni o'rgatish.

Musiqa to'garagi rahbari tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o'zlashtirilishi umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashni kafolatlaydi.

**Savol va topshiriqlar.**

1. Mahorat nima?
2. Padagogik mahorat nima?
3. Musiqa togaragi rahbarining padagogik mahorati mazmuni nima?
4. Pedagogik mahorat musiqa to'garaklarida qo'llanilishi nimalarda o'z aksini topadi?

# 2-BOB. MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

## 1-Mavzu. Musiqa savodi to'garagini tashkil etish va olib borish

**Reja:**

**1. Musiqa savodi to'garagining ahamiyati**

**2. Musiqa savodi to'garagining boshqa to'garaklar bilan bog'liqligi va uni olib borish metodikasi.**

**3. To'garak mashg'ulotlarida interfaol metodlarning qo'llanilishi.**

**Tayanch iboralar:** *musiqa savodi, metodika, interfaol metodlar, musiqa to'garaklarining samaradorligi.*

### 1.1. Musiqa savodi to'garagining ahamiyati.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan har bir musiqa to'garaklari o'ziga xos mazmunda olib boriladi va har bir to'garak o'z oldiga to'garak a'zolarini ma'naviy-estetik tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Shu jumladan "Musiqa savodi" to'garagi alohida ahamiyatga ega, chunki bu to'garak boshqa musiqa to'garaklarning asosini tashkil qiladi. "Musiqa savodi" to'garagi musiqa to'garaklarida o'zlashtiriladigan kuy-qo'shiqlarni ongli ijro etishlari, ularning nazariy asoslari haqida yaratilish tarixi, mualliflari, uslublari, xarakteri, janriy xususiyatlari, tuzulishi va shu kabi xususiyatlarini ongli tushunib, shu asosda yondashib o'rganishlari uchun xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki "musiqa madaniyati" darslari bir necha faoliyatlar negizida tashkil etiladi. Bu faoliyatlar tarkibida qo'shiq (jamoa bo'lib) kuylash, musiqa tinglash va musiqa savodi yetakchi faoliyatlar hisoblanib, o'quvchilarga dastur va darslik bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim va tushunchalarni yetkazishga yo'naltirilgan bo'ladi. Musiqa to'garaklarining tashkil etilishi ham



ana shu faoliyat turlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu o'rinda musiqa savodi to'garagi faoliyatida amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tishimiz lozim.

"Musiqa savodi" to'garagi faoliyatida asosiy maqsad o'quvchilarni nazariy (musiqaning elementar) qoidalarini, ya'ni nota yozuvi bilan bog'liq ifoda vositalarini o'zlashtirib borishlariga asoslanadi. Musiqa savodi faoliyatida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat o'quvchilarning musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarashi, musiqiy xotira, musiqiy idrokini shakllanishiga xizmat qiladi. Bu faoliyatda o'quvchilar musiqa asarining yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari, ritm, metr, o'lchov, registr, lad, temp, nota yo'li, nota cho'zimlari, tovushlar balandligi, sanalishi, ijodkorlari, ijrochilari haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi.

Katta tajribaga ega bo'lgan musiqa to'garaklari rahbarlari va musiqa pedogogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish pedogog olimlarning fikrlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, musiqa ta'limi va tarbiyasi tizimidagi to'garaklarni, xususan boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab musiqa to'garaklarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishda tinglanadigan asarlarni tuzilishi, badiiy-g'oyaviy mazmuni va ularni bolalar yoki xususiyatlariga mosligi va ta'sirchan ijrochi hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan, ularning xulosalariga ko'ra musiqa tinglash jarayonini quyidagi bosqichlarda bo'lishi mumkin:

1. Tinglanadigan asar haqida to'garak rahbarining kirish so'zi (bunda o'quvchilarga musiqa janri, tuzilishi nima haqidaligi, mualliflari, asarni yoritish tarixi haqida so'zlab beradi.)
2. To'garak rahbari ijrosida yoki texnik vosita orqali musiqani tinglash.
3. Tinglangan asarni suhbat munozara va bahs bilan musiqiy va g'oyaviy –badiiy jihatdan oddiy tahlil qilish.
4. O'quvchilarni tushunchalari va musiqani qay darajada idrok etishini bilish uchun ular qisqa-qisqa savollar berish bilan aniqlab borish.

5. Musiqiy asarni qaytadan to'la holicha tinglash hamda asar haqida o'quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilaridan tashkil etilgan "Musiqa savodi" to'garagida musiqa savodi ya'ni nazariyasiga oid bilimlar quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi:

1. Bolalar diqqatini musiqaning asosiy ifoda vositalari kuy registrlar, temp, ritm, dinamik belgilar, nota belgilari, cho'zimlari, nota chizig'i, kalitlar va boshqalarga qaratiladi.

2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga mansub bo'lgan bilimlar, chapak va cholg'u asboblar chalish qodalariga amal qilishga o'rgatish.

3. Musiqa asarini ijodkorlari bo'lmish "kompozitor yoki bastakor", "ijrochi", "tinglovchi" kabilarning o'rnini, ahamiyatini o'rganiladigan asar g'oyaviy badiiy mazmuni bilan bog'liq ravishda kerakli ma'lumotlarni musiqa savodi amaliyoti orqali o'rganib borish.

### 1.2. Musiqa savodi to'garagining boshqa to'garaklar bilan bog'liqligi va uni olib borish metodikasi.

Musiqa to'garaklarining barchasida belgilangan pedagogik maqsadlar barcha musiqiy faoliyatlar yaxlitligida olib borilganda musiqiy malakalarni shakllantirish jarayoni samarali kechadi. Masalan, birgina qo'shiq kuylash faoliyatini olib qaraylik. Biror qo'shiq o'rgatishdan avval to'garak rahbari ushbu qo'shiqning mualliflari haqida gapirib beradi. O'rganilayotgan qo'shiq notasi va so'zi doskaga yoziladi. Keyin magnitafon yozuvida yoki to'garak rahbari ijrosida qo'shiq tinglanadi. Musiqa asarlari tahliliga oid bilimlarga murojat etamiz. Bu jarayonni amalga oshirishda tafakkur, diqqat, xotira, musiqiy eshituv va badiiy-emotsional ko'tarinki ruh muhim rol o'ynaydi. Avvalgi o'tilgan to'garak mashg'ulotlar bilan o'tilayotgan mashg'ulotning uzviy bog'langan bo'lishi, o'tiladigan



mavzuga mos material tanlash, to'garak mashg'ulotlarini o'tishda samarali usul va metodlardan foydalanish lozim.

Ko'rinadiki, o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini o'zlashtirish va shu jarayonda nota o'qish, notaga qarab kuylash malakalarini egallashlari avvalo to'garak rahbarining kasbiy mahoratiga, mashg'ulotlarni tashkil, qilish, boshqarish, rejalashtirish, samarali ish uslublaridan unumli foydalanish, o'quvchilarni umummusiqiy, musiqiy-nazariy pirovardida nota o'qish va notaga qarab kuylash malakalarini takomillashishiga samarali ta'sir etadi. Hozirgi kundagi musiqa ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarning asl mazmuni va mohiyati ham ana shuni taqozo etadi. Musiqa savodi to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga musiqa savodi bo'yicha bilimlarni yetkazishda bir qator ko'rgazmali chizma va shakllardan foydalanish mumkin.

Mavzuning mazmun mohiyatini ochib berishda bir qator ko'rgazma va notalardan keng foydalangan.

**1-ko'rgazma. Nota cho'zimlari va ularning sanalishi**

Butun nota - = 1i, 2i, 3i, 4i ;
Yarim nota - = 1i, 2i;
Chorak nota - = 1i;
Nimchorak nota - = 1 yoki i
O'n oltitalik nota - = 2tasi 1 yoki i

**2-ko'rgazma. Ton va yarim ton**



"Musiqa savodi" to'garagi mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini oshirib borishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoniga muhim e'tibor qaratilishi lozim. Bunda to'garak rahbari va o'quvchilar faoliyatidagi hamkorlik ta'limning eng samarali jihatlari hisoblanadi. To'garak mashg'ulotida to'garak a'zolari xor bo'lib kuylaydilar, musiqa tinglaydilar, musiqaga mos ritmik harakatlar bajaradilar. Mashg'ulot mazmunli, bir necha xil metodlar va vositalar orqali tashkil etilsa o'quvchilar musiqiy kompetensiyalarni ancha yengil, qulay va qiyinchiliklarsiz egallab borishadi.

### 1.3. To'garak mashg'ulotlarida interfaol metodlarning qo'llanilishi.

Zamonamiz va ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablar musiqa to'garaklarini ham zamonaviy interfaol metodlar asosida samarali tashkil etilishini talab qiladi. Bu borada bir qator interfaol metodlar asosida tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarini keltirish mumkin.

Interfaol texnologiyalar borki, bunday texnologiyalarni to'garak rahbari bilan o'quvchilarni hamkorlikda ishlashiga, ya'ni o'quvchilarni passiv tinglov, yoki ijrochi bo'libgina qolmasdan mashg'ulotni har bir faoliyatini aktiv ishtirokchisi sifatida qatnashishlarini ko'zda tutadi. Interfaol metodlarning turlarini tanlash to'garak turi va mashg'ulotning qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni nazarda tutganligiga bog'liq. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonida qo'llaniladigan usullar bir talay. Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, jamoni o'qitishga yoki yakka tartibda ta'lim berishga mo'ljallanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatan o'yinga moyil bo'lishlarini hisobga olgan holda ularni darsga qiziqishlarini kuchaytirish uchun "o'yin xarakteridagi" turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulotning har bir faoliyatini amalga oshirishda uni bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanish yaxshi bo'ladi. Hozirgi



kunda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga va to'garak mashg'ulotlarida qo'llashga qiziqish kuchayib ommalashib bormoqda. Chunki, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni bilimlarini puxta egallashlarini ta'minlaydi.

**Konsert mashg'uloti** - bu eng samarali tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib o'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash, o'zlarining ijrosiga va boshqalarning bilimlariga baho berishi, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, yakka ijro va jo'r bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish, raqs elementlarini bajarish kabi bir qator musiqiy kompetensiyalarni namoyish etishga imkoniyat yaratadi. Ushbu mashg'ulotlarni asosan, to'garak mashg'ulotlarining rejadagi soatlar bajarib bo'lingandan so'ng yakunlash qismida tashkil etishmaqsadga muvofiqdir. Sababi o'quvchilar mashg'ulotlar davomida bir nechta kuy-qo'shiqlarni ijro etishga erishadilar va ularni sahnada namoyish etish malakalarini egallab oladilar. "Konsert" avvaldan rejalashtiriladi va uni tashkil etish uchun o'quvchilarga avvaldan vazifalar beriladi va ular ustida ishlanadi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini, ijrochilik mahoratlarini namoyish etishga kirishadilar. O'quvchilar sahna madaniyatini, tashabbuskorlikni o'rganadilar. Konsert mashg'ulotlarini biron bir kompozitor, ijodkor, yozuvchilar tavallud kuni yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bu shu ijodkor yaratgan asarlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Viktorina mashg'uloti.** Ushbu mashg'ulot asosan musiqa tinglash jarayonida o'tkaziladi. To'garak rahbari musiqa tinglash uchun mo'ljallangan texnik vositalarda o'quvchilarga biron bir kuy yoki qo'shiq qo'yib beradi.o'quvchilar esa musiqani tinglab uning muallifarini, nomini, ijrochisini, unda mavjud cholg'ularni topadi. Viktorina mashg'uloti "Kompozitor, ijrochi va tinglovchi" mavzusida ham uyushtirilishi ham mumkin. Mashg'ulotda rahbar o'quvchilarni qatorlarga, ya'ni guruhlarga bo'ladi. Har bir guruhning faolligiga, to'g'ri javoblariga qarab baholab boradi. Bu mashg'ulotlari o'quvchilarni nafaqat musiqani tinglash, balki, qo'shiq kuylash

jarayonida ham qo‘llashimumkin. O‘quvchilar musiqa asarlari yaratuvchilari kompozitor, shoir ijrochilari haqida ham ma’lumotla bilan tanishadilar. Qo‘shiqlarning janri qaysi mahalliy uslubg xosligi, ijro etilish holati haqida bilimlarini mustahkamlashga ha ijobiy ta’sir qiladi.

**Bahs-munozara mashg‘ulotlari.** Bunda musiqa asarlari badiiy va nazariy tahlil qilish musiqa tarixi, adabiyoti, nazariya singari musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlanadi. Bu mashg‘ulo turida asosan musiqa darslarida o‘tilgan va o‘rganilgan musiqi bilimlarga tayaniladi. Bahs-munozara mashg‘ulotla o‘quvchilarning avval egallagan bilimlarini sinovdan o‘tkazishda ham yaxshi usul hisoblanadi. Bu mashg‘ulot boshqa mashg‘ulotlardan o‘ziga xosligi bilan farqlanadi, ya’ni bu mashg‘ulotda bir mavzu yoki biror janr, nazariy tushuncha yuzasidan tortishuv bo‘ladi. To‘garak rahbari va o‘quvchilar o‘zlarining fikrlari bilan o‘rtoqlashadi. Har bir fikr isbotlanadi va to‘g‘ri javob qabul qilinadi.

**Quvnoqlar va zukkolar mashg’uloti.** Bu mashg‘ulot musobaqa tarzida tashkil etiladi va bir kompozitor yoki musiqiy asarning yaratilish tarixiga bag‘ishlanishi mumkin. Bu o‘rinda kopozitorning mahorati, badiiy obrazi, voqeylik tasviri, ularga singdirilgan g‘oyalarni anglash, mushohada yuritish, qo‘llanilgan vositalarni tushunishga undash alohida o‘rin tutadi. Bunday darslar o‘quvchilarda topqirlik, faollik, zukkolik, ziyraklik fazilatlarini shakllantiradi. Quvnoqlar va zukkolar musiqa savodi to‘garagining noan’anaviy mashg‘ulot turi bo‘lib, uni bir nechta shaklda amalga oshirish mumkin. O‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash, savol – javob tarzida, tinglangan musiqa asarining mazmuni mohiyatini izohlash, shuningdek turli didaktik o‘yinlar tarzida uyushtirish mumkin. Bunday mashg‘ulotlarda musiqiy o‘yinlarni uyushtirishning keng imkoniyatlari mavjud. Masalan, televideniya orqali namoyish etiladigan “Mo‘jizalar maydoni”, “Ohangrabo”, “Balli qizlar”, “Kuyni top”, “Imkon shou” kabi shakllardan foydalanish



mumkin. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi: - qizlar-bolalar, qatorlararo, parallel sinflar bo‘lishi mumkin. Har bir jamoa uchun sardorlar saylanadi va ikkita raqib jamoa o‘z bilimlari asosida raqobatlashadi. G’olib chiqgan jamoalar rag’batlantiriladi. Tajribali pedagoglar, yuqori sinf o‘quvchilaridan saylangan hayati javoblarni baholab boradi. Musobaqaning shartlari avval o‘tilgan darslarga asoslanishi lozim. To‘garak ishtirokchilariga bu haqida bir hafta oldin ma’lum qilinadi va hafta davomida o‘quvchilar unga tayyorgarlik ko‘rib yurishadi. Bunday to‘garak mashg’ulotlarida musiqiy ko‘rinishlar, qo‘shiq-raqslarga ham ahamiyat beriladi. Mashg’ulot so‘ngida to‘plangan ballar umumlashtirilib, e’lon qilinadi va g’olib jamoa rag’batlantiriladi. Quvnoqlar va zukkolar mashg’ulotlaridagi ta’limiy o‘yinlar, mitti bosh qotirmalar, sirli-qiziqarli topshiriqlar, har xil faoliyatlarni almashib turishi o‘quvchilarni fikrlashga odatlantiradi, zerikish va toliqishdan saqlaydi.

**“Bilag’onlar ko‘chasi”.** Bu metodda bolalarga kompozitorlarning rasmlari ko‘rsatiladi. O‘quvchilar uning ismi sharifi, ijodi, asarlari haqida so‘zlab berishadi. Ma’lum ifodaviy vositalar – kalit, dinamik belgi, alteratsiya belgilari rasmi ko‘rsatiladi, bolalar unga ta’rif berishadi, qoida va vazifalarni aytib berishadi.

**“Sinkveyn” metodi.** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadilar. To‘garak rahbari har bir guruhga o‘quvchilar o‘rgangan turli qo‘shiqlardan 4 takt kirish qismini ijro etib boshlab beradi. Guruhlar navbat bilan ijro etilgan asar nomini aytib, davom ettirishlari kerak. Vazifani to‘g‘ri bajargan guruh rag’batlantiriladi.

Keltirilgan bunday metodlarni qo‘llashda to‘garak rahbari avvalo uni o‘z o‘rnida samarali bo‘lishiga ishongan holda yondashishi kerak bo‘ladi va bularning barchasi o‘quvchilarning umum musiqiy, musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmog’i lozim. Musiqa to‘garaklarida o‘quvchilarning musiqa savodi faoliyatida o‘zlashtiriladigan bilim, tushunchalarni har

jihatdan samarali kechishiga xizmat qiladigan ish usul, shakl vositalaridan unumli foydalanishiga e'tibor qaratish lozim.

### Savollar va topshiriqlar.

1. Musiqa savodi to'garagining maqsad va vazifalari nimalar?
2. Musiqa savodi to'garagining boshqa to'garaklar bilan bog'liqligi va uni olib borish metodikasiga tushuncha bering?
3. To'garak mashg'ulotlarida qanday interfaol metodlarni qo'llash mumkin?

## 2-Mavzu. Vokal to'garagi faoliyati.

**Reja:**

1. **O'quvchilarda vokal to'g'risida tushuncha hosil qilish.**
2. **Vokal to'garagini tashkil etish.**
3. **To'garakda qo'shiq kuylash malakasini shakllantirish.**

**Tayanch iboralar:** *vokal to'garagi, vokal ijrochiligi, vokal to'garagini tashkil etishqo'shiq kuylash, vokal ijrochiligi ustida ishlash.*

### 2.1. O'quvchilarda vokal to'g'risida tushuncha hosil qilish.

Maktabdagi musiqa ta'limi tizimida bolalarning musiqaviy tushunchalar, bilim va malakalarni o'zlashtirishida maktab to'garagi faoliyatining ahamiyati kattadir.

Bolalar vokal to'garagida kuylash bilan san'atda aktiv ishtirok etadilar. Vokaliz kuylash — bolalarga musiqaviy badiiy tarbiya beribgina qolmay, ularga estetik zavq ham bag'ishlaydi, ularda o'rtoqlik va jamoa ishi uchun mas'uliyat sezish kabi fazilatlarni o'stiradi.

Vokal to'garagining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarning musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish va qo'shiq kuylash malakalarini vujudga keltirish — to'g'ri intonatsiya, sozlik, ijro etilishi kerak bo'lgan qo'shiqning tempi, usuli, harakat tuslari (dinamikasi), tovush tuslari (tembrlari) ning moslashgani hamovozligi (ansambl) ga erishish.
2. Vokal - malakalarini vujudga keltirish — kuylash holati, nafas olish, ovoz hosil qilish va talaffuz (diksiya) qoidalariga rioya qilish.
3. Bolalarni to'garakda kuylashni sevadigan qilib tarbiyalash, ularda musiqa bilimini har tomonlama egallash istagini oshirib borish.
4. Qo'shiqni dirijorning qo'l harakatiga rioya qilib, to'g'ri kuylashga odatlantirish.
5. Bolani o'z ovoziga ehtiyot bo'lishga o'rgatish,
6. To'garakda bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot berish, ya'ni vokal to'garagi qatnashchilari ijrosida bayramlar, badiiy kechalar, ulug' sanalarga bag'ishlangan tantana va hokazolarda konsertlar uyushtirish va yaxshi ijrochi xor jamoasi darajasiga erishish.

Albatta, bu mas'uliyatli vazifalarni osongina amalga oshirib bo'lmaydi. Bunda, birinchi navbatda, to'garak rahbaridan prinsipiallik, o'z - o'ziga talabchanlik, ijodiy izlanuvchanlik va jonkuyarlik bilan ish olib borish talab qilinadi.

Musiqa to'garagi mashg'ulotlari malakali rahbar boshqaruvida o'tilgan bo'lsa, o'quvchilarning bilim doirasini yanada kengaytirish maqsadida quyidagi talablar amalga oshirilishi lozim:

1 Murakkabroq vokal adabiyoti vositasida to'garak ishtirokchilarining musiqa bilimlarini sinfda o'rgatilganiga nisbatan boyitish.

2. Ma'lum darajada musiqaviy talantga ega bo'lgan o'quvchilarning musiqaga bo'lgan talabini qondirish.

3. To'garak ishtirokchilarining musiqa savodidan bo'lgan bilimini yanada mustahkamlash, ularning vokal - xor malakalarini yuksaltirish.



*1-rasm.Vokal to'garagi a'zolari.*

## 2.2. Vokal to'garagini tashkil etish

Maktabda vokalchilar to'garagini tashkil etish uchun, dastlab, maktab ma'muriyati va shu ishga mas'ul kishilar bilan maslahatlashiladi. So'ngra kerakli imkoniyatlar yaratiladi — xona ajratiladi, o'quv asboblari tayyorlanadi. Shundan so'ng vokal to'garagiga yozilish haqida e'lon chiqariladi. E'lon «ko'rinishi va mazmuni jihatidan o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi kerak. E'londa ushbu vokal to'garagiga yozilish uchun kimga murojaat qilish lozimligi hamda to'garakning mashg'ulot kuni, vaqti, albatta, ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Vokal to'garagining dastlabki mashg'ulotlarini boshlash oldidan to'garakka yozilgan o'quvchilarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladi, bu yig'ilishda maktab ma'muriyatining vakillari qatnashadi.

Yig'ilishda o'quvchilar bilan suhbat o'tkazilib, ularga qo'shiq kuylash san'atining qisqacha tarixi, to'garakning ahamiyati va kelajakdagi rejalari haqida qiziqarli qilib gapirib beriladi, to'garakka yozilganlarning ovozi sinab ko'rilishi aytiladi.

Vokal to'garagiga yozilgan bolalar ovozi bir necha dars davomida tekshirib ko'rilishi mumkin. Vokal to'garagi rahbari to'garakka yozilganlar bilan avvaldan tanish bo'lmasa (musiqa darsi



olib bormagan bo'lsa) u hamma o'quvchilarning ovozini birma - bir eshitib ko'rishi juda zarur va shartdir. Ovozlarni tekshirishda o'quvchilarning ovoz sifatiga (tovush tusi, aniqligi, kuchi, umumiy musiqaviyligi), ularning ba'zi tovush va intervallar (tovush oralig'i) ni yuqoriga yoki pastga aniq kuylay olishligi, musiqaviy o'quvi kabi sifatlariga alohida e'tibor berilishi kerak.

**O'quvchilarni to'garakga jalb qilish va saralab olish quyidagicha amalga oshiriladi:**

1. O'quvchining musiqaviy o'quvini aniqlash, ya'ni tugallangan ma'lum kichik jumlalar (frazalar) ni esda saqlab qolish qobiliyatini tekshirish. Masalan: o'quvchining qobiliyatiga qarab bundan murakkabroq har xil ritmli musiqa jumlalarini qo'llash ham mumkin.

2. Rahbar ikki tovushni bir vaqtda chalib, o'quvchining har bir tovushni alohida ko'ylab berishi (garmonik eshitish qobiliyati) ni tekshirish.

3. O'quvchining o'ziga tanish bo'lgan birorta qo'shig'ini kuylatib, uning ovoz kuchini, qo'shiqni nechog'lik to'g'ri ayta olishini, ritm hissini tekshirish. Shu qo'shiqni yoki uning biror jumlasini yarimtonliklar vositasida yuqorilatib va pastlatib kuylatish metodi bilan ovozning qaysi partiyaga mansub ekanligini aniqlash.

4. O'quvchining ritmik qobiliyatini tekshirib ko'rishbiror predmetga qalam bilan sekin urib turib, kichik ritmik jumla hosil qilish va so'ngra uni o'quvchiga takrorlatish va hokazo.

Yuqori sinf o'quvchilaridan tashkil etiladigan vocal to'garagiga o'quvchilar qabul qilish sinovi yanada murakkabroq mashq va usullar yordamida o'tkaziladi. Rahbar sinovlar tugagandan so'ng o'quvchilarni vokal to'garagiga qabul qilish haqida ma'lum xulosaga kelib, u yoki bu o'quvchini vokal to'garagi ro'yxatiga kiritishga qaror qiladi. To'garakga qabul qilingan har bir o'quvchining qaysi ovozga mansub ekanligi, birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo ovozlar hamda bu ovozlarning kengligi (diapozoni) va tovush tusi (tembri)

aniqlanadi. Bu paytda bolalarning yosh xususiyati albatta hisobga olinishi zarur.

Bu to'garakga vokal qatnashchilari orasidan bir o'quvchi boshliq qilib va ikkinchisi *boshliq o'rinbosari* qilib saylanadi. Bu boshliqlar jamoat ishida aktivligi, musiqaviy qobiliyati va xulq - atvori jihatidan o'quvchilar hurmatiga sazovor bo'la olgan o'g'il yoki qiz bolalar bo'lishi kerak.

Vokal to'garagi a'zolari boshlig'ining vazifasi musiqa rahbariga yaqindan yordam berishdir. U mashg'ulotlarni uyushtiradi, tartib intizomni va umumiy davomatni nazorat qiladi. Mashg'ulot xonasida o'quv va ko'rgazmali qurollarning yaxshi saqlanishini ta'minlaydi. Boshliq o'rinbosari esa boshliqning ishlariga yordam beradi, yo'qligida uning vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, har bir sinf uchun (yuqorida aytilganidek, ilg'or o'quvchidan) sinf boshlig'i saylanishi zarur. Sinf boshligi o'z sinfining qatnashuvchilari davomatini daftar-jo'rnalga belgilab boradi, rahbar bergan ko'rsatma va topshiriqlardan o'quvchilarni xabardor qilib, to'garak rahbarining ishini yengillashtiradi, shuningdek, ashula o'rganish va musiqa savodi bo'yicha o'tilgan temalar yuzasidan zarur paytda o'z sinfidagi o'quvchilarga to'garak rahbari ishtirokisiz tegishli maslahatlar beradi.

Vokal to'garagining ishidagi asosiy zarur masalalardan biri mashg'ulot o'tkaziladigan xonaning mavjudligi bo'lib, u kerakli darajada keng, yorur, uning temperaturasi mu'tadil (normal) bo'lishi lozim.

Mashg'ulot o'tkaziladigan xonaning tozaligini saqlash uchun har galgi mashg'ulot kuniga navbatchi o'quvchi ham belgilab qo'yilishi zarur.

Xonada royal yoki pianino, akkordeon, bayan, skripka, g'ijjak, rubob va shu kabi musiqa asboblari bo'lishi kerak Xususan, royal yoki pianinoning bo'lishi vokal to'garagi uchun g'oyat zarurdir, chunki rahbar ashula o'rgatayotganda bir qo'li bilan ashula kuyini



chalib, ikkinchi qo'li bilan bolalarning kuylashini boshqarib (dirijorlik qilib) boradi.

Mashg'ulot xonasida nota chiziqlari chizilgan doska, yetarli stol va stullar bo'lishi shart Mashg'ulot uchun zarur jihozlarni saqlash uchun shkaf bo'lishi kerak

Xona devorida kompozitor va bastokorlarning portreti, musiqaga oid yaxshi tasviriy sur'atlar ma'lum tartibda ilib qo'yiladi. Yaxshi jihozlangan xonada bolalar o'zlarini konsert zaliga kirganday his qiladi.

### 2.3. To'garakda qo'shiq kuylash malakasini shakllantirish.

Vokalchilar jamoasi yarim doyra shaklida joylashtiriladi, rahbarning o'zi esa o'rtada bolalar tomonga qarab turishi kerak. Ikkinchi ovozlar o'ng tomonga, birinchi ovozlar chap tomonga joylashtirilib, har qaysi ovozdagi bolalar qator - qator va orqama - orqa joylashgan bo'ladi. Bolalarni qatorga joylashtirishda fakat bo'ylari past - balandliginigina emas, balki, ularning musiqa qobiliyatini ham nazarda tutmoq kerak. Kamroq o'quvli bolalarni «kuchlilar» orasiga joylashtirish yaxshi natija beradi. Xususan, eng yaxshi qobiliyatli bolalarning orqa qatorda bo'lishi o'rinlidir, bu hol ularning kuylashini oldingi qatorlarga yaxshi, aniq eshitilishini ta'minlaydi.

Maktabda tashkil qilingan vokal to'garagi o'quvchilar yoshiga qarab turli guruhlardan iborat bo'ladi.

Maktablarda boshlang'ich I, II va III sinf o'quvchilaridan vokalchilar to'garagi tuzish mumkin. Agar vokal to'garagi 1-sinf o'quvchilaridan tashkil topsa, 1-sinf o'quvchilarini to'garakning tayyorlov gruppasiga ishtirok ettirsa ham bo'ladi. Yangi o'quv dasturiga binoan, II - III sinf o'quvchilaridan tashkil topgan vokalchilar to'garagida asosan bir ovozli, qisman 2 ovoz elementli bo'lgan qo'shiqlar o'rganiladi va eng oddiy vokal malakalari o'zlashtiriladi.

Agar bu vokal to'garagida IV sinf o'quvchilari ham qatnashsalar, u holda yanada mukammalroq ikki ovozli qo'shiqlar o'rgatiladi. II - III va IV sinf o'quvchilaridan tuzilgan vocal guruh dastlabki mashg'ulotlar davrida bir ovozli ashula vositasi bilan xor malakalarini ma'lum darajada o'zlashtirganidan so'ngina 2 ovoz elementlari bo'lgan qo'shiqlarni kuylashga o'tishi mumkin. O'z o'zidan ma'lumki, ikki ovozlilarni o'rganishga kirishilganda ovozlar ikki partiyaga ajratilgan bo'lishi kerak. Bu ishda, ya'ni bolalarning ovozlarini ajratishda ham musiqa rahbarining juda ehtiyot bo'lishi xatolarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Shuningdek, har bir vokal guruhiga tegishli o'quvchilardan alohida o'g'il bolalar ansambli ham tuzish mumkin.

Vokalchilar jamoasi o'rtacha 15 - 20 kishidan iborat bo'ladi. Bundan ortiq kishili vokalchilar jamoasini boshqarish uchun rahbarning ma'lum darjada mahoratli va tajribali bo'lishi talab qilinadi. Bir necha vokalchilar to'garagi birgalashib ijro etadigan ommaviy tadbirlarda ijrochilarning soni cheklanmaydi, ya'ni ijro etilishi kerak bo'lgan vokal qo'shiqlarini biladigan barcha o'quvchi kuylashga jalb qilinishi mumkin.

Vokal mashg'ulotlari o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning eng faol shaklidir. Qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat-e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi va nutqini rivojlantiradi, ovoz diapazonini kengaytiradi, musiqiy uquvni o'stiradi, dunyoqarashi yildan yilga shakllanib boradi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi. Vokal malakasini oshirish yordamida o'quvchilar qo'shiq so'zining mazmunini va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar hamda asar mazmuni orqali hayotiy jarayonlarni mushohada qilish ko'nikmasini hosil qiladilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal malakalarini shakllantirib borish va bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal malakalarini shakllantirish bilangina yoqimli ohangdoshlikka, sof jarangdorlikka erishish mumkin. Ular vokal mashqlaridir.



**Savollar va topshiriqlar.**

1. Vokal ijrochiligi haqida tuhuncha bering?
2. Vokal to'garagi qanday tashkil etiladi?
3. Vokal to'garagida qo'shiq kuylash malakasi qanday shakllantiriladi?
4. Ovoz apparatiga nimalar kiradi?
5. Vokal to'garagiga o'quvchilar qanday saralab olinadi?

## 3-Mavzu. Folklor to'garagini tashkil etish va olib borish.

**Reja:**

1. **Folklor san'ati mazmuni va folklor qo'shiqlari haqida**
2. **Folklor qo'shiqlaridan namunalar o'rganish.**
3. **Folklor to'garagini tashkil etish.**

**Tayanch iboralar:** *folklar atamasi, folklor to'garagi, folkloq qo'shiqlari, folklor to'garagini tashkil etish.*

### 3.1.Folklor san'atining mazmuni va folklor qo'shiqlari haqida tushuncha.

Xalq og'zaki ijodida - **folklor** atamasi inglizcha ***folk***-xalq va ***lore***-donolik so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, xalq donishmandligi, donoligi, hunarmandligi, san'atkorligi ma'nolarini anglatadi.

Folklor musiqa san'ati o'qitish uslubiyatini o'rganish o'quvchilarda milliy musiqaga muhabbat uyg'otadi. Uning asosiy maqsadi folklor musiqa ijrochiligining taraqqiy etgan turi hisoblangan qo'shiq kuylashga ko'nikma hosil qiladi va o'zbek qo'shiqchilik sa'natining yaratilishi, mumtoz musiqaning paydo bo'lishini o'rgatadi.

Inson ongining musaffoligi, jamiyatning yetukligi, shaxs ma'naviyat dunyosining boyligini ta'minlashda folklor musiqaning ahamiyati juda kattadir. Shuning uchun ham folklor musiqa san'atini o'rganish o'quvchilarda milliy qadriyatlar hisoblanish ming yillik

tarixga ega bo'lgan urf-odatlar, udumlar, marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat uyg'otadi. Folklor musiqa san'ati, folklor etnagrafik ansambllari, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarni tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Marosimlarni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar marosimlar folklorini tashkil etadi.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni xalqqa olib chiqib, yana ularni zamonaviy talqinda namoiy etishga folklor san'ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek folklori xilma-xil shakllardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi.



*2-rasm. Folklor to'garagidan lavhalar*

***Marosim folklori.*** Insonga sihat-salomatkli tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar marosim folklorini tashkil etadi.

***Bahorgi mavsum bilan bog'liq marosimlar.*** Mavsumiy marosimlar yilning to'rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi



bilan aloqadordir. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi. Dehqon urug' sepishga tayyorgarlik ko'rish, ariqlarni kovlash bilan shug'ullansa, chorvador yaylovlarga ko'chishga tayyorgarlik ko'radi. Dehqon va chorvador turmushidagi barcha og'ir yumushlar ilgari hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Bahorgi mavsumiy marosimlarga «Shox moylar», «Navro'zi olam», «Yomg'ir chaqirish», «Sust xotin» marosimlari kiradi.

***Yozgi marosimlar.*** Kishilarning xo'jalik faoliyatida yoz faslining o'rni alohidadir. Shunga qarab ushbu faslda o'tkaziladigan marosimlar rang-barang bo'lgan. Biroq o'zbek marosim folklorida hozirga qadar atigi bitta janr saqlanib qolgan. Yozgi marosimlar folkloridan faqat shamol to'xtatish bilan bog'liq ayrim janrlar saqlangan. Bular «Choy momo» marosimida ijro etiladigan qo'shiqlardan iborat.

***Kuzgi marosimlar folklori.*** Kuz faslida dehqon yoz bo'yi qilingan mehnatining samarasini yig'ishtirib oladi, chorvador esa qishlovga yem-hashak, ozuqa tayyorlaydi. Kuzgi marosimlarga «Oblo baraka», «Shamol chaqirish», «Mirhaydar bobo», «Galagov», «Xo'p mayda» marosim qo'shiqlari kiradi.

***Qishki marosimlar folklori.*** O'zbek xalq folklorida qishki marosimlardan faqatgina «Gap-gashtak» va «Yas-sun» marosimlargina saqlanib qolgan. «Gap-gashtak» marosimi erkaklar tomonidan mahalladagi choyxona yoki biror xonadonda o'tkaziladi. «Yas-sun» marosimi asosan ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida qimizxo'rlik marosimi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, uning ma'nosi davrada o'tirish qoidalari demakdir.

***Qo'shiqlar.*** Qo'shiq-turkiy qo'shmoq fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini angalatadi. Qo'shiqlar xalq ma'naviyatining qudratini, xalq irodasining bukilmasligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va do'stlikka, sevgiga sadoqatga chorlaydi. Qo'shiqda ishq-muhabbat kuylansa, bunday qo'shiqlar «lirik qo'shiqlar» deb ataladi.

***Mehnat qo'shiqlari.*** Qo'shiq mehnat jarayonida ishlayotganla tomonidan ijro etilib, mazmunan mehnat jarayoni bilan bog'li bo'lsa, bunday qo'shiqlar «mehnat qo'shiqlari» deb ataladi. Mehna qo'shiqlari rang-barang janrlardan tashkil topgan bo'lib, ularni bi turkum doirasida ushlab turuvchi bir necha xususiyatlar mavjud O'zbek mehnat qo'shiqlari quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Ular:

***1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.***

***2. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.***

***3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.***

1. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlariga «Qo'sh qo'shiqlari», «O'rim qo'shiqlari)), «Yanchiq qo'shiqlari)) «Yorg'uchoq)) qo'shiqlari kiradi.

2. Chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan mehnat qo'shiqlariga «Ho'sh-ho'shlar», «Turey-turey» qo'shiqlari, «Churiya»lar kiradi.

3. Hunarmandchilik bilan aloqador mehnat qo'shiqlariga «Charx qo'shiqlari», «Bo'zchi qo'shiqlari», o'rmak qo'shiqlari «Kashta qo'shiqlari» kiradi.

***Termalar.*** Terma o'zbek folklorining mustaqil janri bo'lib uning yaratilishida baxshilarning roli nihoyatda kattadir. Ko'pchilik hollarda ular dostonchilarning individual ijodi hisoblanadi. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga «terma» deyiladi.

***Naqllar.*** Naql termini yaqin va o'rta sharq xalqlari orasida ***«Zarbulmasal»*** deb yuritilgan va u ramziy hikoya ma'nosida qo'llangan. O'zbekistonda esa «Zarbulmasal» o'rnida, asosan, naql termini qo'llaniladi. Naql-axloqiy norma hamda odob haqida yuzaga kelgan fikrlarni izohlovchi ta'limiy xarakterdagi ma'joziy hikoyadir.

O'zbek xalq naqllaridan «Har kim qilsa o'ziga», «Odam odam bilan tirik», Ko'rpangga qarab oyoq uzat», «Har kimniki o'ziga, oy



ko'rinar ko'ziga», «Qaqqillashi biznikida, tuxum qo'yishi qo'shninikida», «Bugungi jahlni ertaga qo'y», Ko'rmaganning ko'rgani qursin» kabilar xalq orasida keng tarqalgan.

***Dostonlar.*** Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan bog'liqdir. Doston so'zi, qissa, hikoya, sraguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabyoitdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Folklorshunoslarning ta'kidlashicha, doston murakkab san'at asari bo'lib, uning doston bo'lishi uchun adabiy tekst, musiqa bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. Dostonlarni ijrochilari va yaratuvchilari baxshilardir. Dostonlarga «Qahramonlik dostonlari», «Romantik dostonlar», «Maishiy-romantik dostonlar», «Tarixiy dostonlar» kiradi.

***Og'zaki drama.*** Og'zaki drama-xalq ijodining mustaqil turi bo'lib, uning ma'nosi xalq orasida og'zaki to'qilgan sahnaviy asarlar namoishini anglatadi. U juda qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirgi kunda ham xalqning ongi va axloqiy normalarini, badiiy idrok va estetik didini tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Turli xil o'yin-kulgilar, dramatik holatlar, har xil qiyofaga kirishlar monolog va dialoglar, sahna harakatlari va ovoz ohanglari og'zaki dramaning janr belgilari hisoblanadi.

***Askiya.*** Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining mustaqil janri bo'lib, asosan, to'y-tomosha, yig'inlar va saylovlarda ijro etiladi. Askiya arabcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, so'zamol, zakovatli, o'tkir zehnli degan ma'nolarni anglatadi. Zakiy so'zining ko'pchilik shakli azkiyo bu keyinchalik talaffuzda o'zgarib, askiya shakliga kelib qolgan. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi. Askiyachilar tarafma-taraf bo'lib olib, qochirim so'zlar bilan askiya boshlaydilar, tinglovchilar esa u yoki bu tomonning so'zga

chechanligi, hozirjavobligidan mamnun bo'lib kuzatadila
Tomonlardan biri ustun kelganda, kulgi qahqahaga aylanadi.

Xalq og'zaki ijodida musiqa termalaridan tuzilgan folklo qo'shiqlarini ta'riflab o'tamiz.

**«Halinchak» qo'shig'i**

Qadimdan qizlar, yosh kelinchaklar bog'dagi katta daraxtla shoxiga halinchak ilib, to'planishib, kelinchakni uchirib, shu asnod qo'shiq kuylashib, qo'shiqda dard va xursandchiliklarini bayo etganar

**«Lolajon» qo'shig'i**

Qizlar bahorda dalalalarga chiqib lola qizg'aldoq sayl o'tkazganlar. Qo'shiqda qizlar o'zini lolaga qiyoslab kuylaydilar v raqslar ijro etadilar

**«Hado'rsi» qo'shig'i**

Qo'shiq uzumni ezib, suvini ajratib olish va undan shinn tayyorlash jarayoniga bag'ishlanadi. Bu marosim bilan asosan xotin qizlar shug'ullanganlar. Shuning uchun so'zlarda tokning tanasin bellariga, novdasini bilaklariga bezaganlar.

**«Hay yor-yor qo'shig'i»**

Qo'shiqni qadimda asosan erkaklar bazm uyushtirib jo'r bo'lib qarsak chalib kuylaganlar, har kupletini boshqa-boshqalar kuylab naqoratini jo'r bo'lib ijro etganlar.

**«Ho'p mayda» qo'shig'i**

Galagov qo'shiqlari turkumidan, g'allani o'rib olib, xirmon qilib ho'kizlarni bir-biriga tamg'ab somonni yanchiganlar. Uzoq va zerikarli ishda albatta qo'shiq xirgoyi qilganlar. Maydayo qo'shig'i shu mehnat marosimi tufayli yaratilgan.

**«Lolachaga ishim bor» qo'shig'i**

Erkaklar hazil mutoiba qo'shig'i. To'y marosimida ulfatlar eng bo'yi past do'stlarini o'rtaga olib, atrofida qarsak chalib qo'shiq kuylaganlar. O'rtada kichkina tizzalab o'tirib raqsga tushgan.

***Qarsak*** – qadimda o'zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan qo'shiq janri va erkaklarning davra o'yin qo'shig'i



hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida, ayniqsa, mashhur. She'r matnlari sifatida turli mavzudagi xalq so'zlari va she'riyati qo'llanadi (to'rtliklardan iborat). Kuylari sodda, kichik diapazonli, boshlang'ich ohang orqali rivojlanadi. Xarakteri yeng'il, jozibali, o'ynoqi (o'yin va raqs harakatlari unga hamroh). Ijro uslubi yakkanavozguruh yoki guruh tarzida, doira jo'rligida (qo'shiqqa mos qarsak va baland ovozlar yordamida ritmik usullar hosil qilinadi). Qarsak to'y marosimlarida va ommaviy tadbirlarda aytilgan. Qarsak qo'shiqlari turkum sifatida ham aytilgan – Yak qarsak, Du qarsak, Se qarsak, Chorqarsak va Beshqarsak (nomlari doira usullari va qarsak chalish uslublari bilan bog'liq). Navbat bilan turkum tarzida ijro etiladigan o'yin va terma-qo'shiqlar "yak qars", "qo'sh qars", "besh qars" kabi usullardan iborat. Hozirgi kunda qarsak qo'shig'i va qo'shiq turkumi asosan folklor-etnografik ansambllari repertuaridan o'rin olgan. Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "Beshqarsak" folklor jamoasi tomonidan folklor qo'shiqlari tiklanib, o'z repertuarlaridan joy olgan. Qarsaklarning turlari beshqarsak, mayda qarsak, qo'shqarsak, tezqarsak kabilardir. "Mayda qarsak" (Yakka qarsak, Qo'sh qarsak va Tez qarsak (yoki Uzma) nomli o'yin-raqslarni o'z ichiga oladi. Unda qarsaklar bilan hosil qilinadigan usul, bayt, bir ovozda aytiladigan qo'shiqlar va raqs harakatlari birlashadi. Ko'p joylarda ijrochilar yonma-yon turgan yoki o'tirgan holda davra yoki yarim davra hosil qilib, o'rtadagi o'yinchiga hamohang bo'lib, usulga mos chayqalib turadilar. "Beshqarsak" yonma-yon turib davra hosil qilgan holda ma'lum sur'at va usulda – besh qarsak (1-1-3) o'ynaladigan ommaviy raqsdir. Uning katta davralarida 20 va undan ortiq kishi ishtirok etadi. Qarsak o'yini Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida saqlanib kelmoqda.



*3-rasm. Folklor to'garagida milliy o'yinlarning aks etishi.*

**3.2. Folklor qo'shiqlaridan namunalar.**

OMON YOR

**(Muallif: Sattarova Malika**

San'atimiz g'unchalari omon yor
Omon yorga o'ynaylik omon yor
Mustaqil shu makonda omon yor
Davru davron suraylik omon yor

Samarqandning qizlari omon yor
Yarqiragan yuzlari omon yor
Charx urib o'ynasak biz omon yor
Qoyil qolar o'zlari omon yor

Qani keling qizlarjon omon yor
Bizni qutlar har bir on omon yor
Yana jo'shib o'ynasak omon yor
Do'stlar bizga mehribon omon yor



BOYCHECHAK

Navro'z guli boychechak
Qadaming qutlug' bo'lsin
Ochilib hay-hay chechak
Bog'imiz o'tlug' bo'lsin

Hoy boychechak boychechak
Sen bahor nishonasi
Yuziga surganlarni
Yarqirar peshonasi

HALINCHAK

Halinchak-o halinchak
Hayot bizga belanchak
Halinchakda uchadi
Qiz, juvonu kelinchak

Halinchago halinchak
Halinchakda kelinchak
Halinchago halinchak,
Yon atrofi boychechak.

Bahor, yozda mehnat qil,
Bo'lmay sira erinchak
Halinchago halinchak
Halinchakda kelinchak

CHILLAK O'YINI.

Mergan, chaqqon bolalar,
Birga chillak o'ynarlar,
Mergan, chaqqon bolalar,
Har gal chillak o'ynarlar.
Chillakning sopi qani,

Pilladan otsin G'ani,
Chillak uchib ketti-ku,
Topinglar qani-qani.
Chillakning o'zi qani,
Topib oldik-ku mani,
Tushmay qoldi pillaga,
Yana otsinmi G'ani.

OQ TERAGU, KO'K TERAK.

Oq teragu, kuk terak,
Bizdan sizga kim kerak.
Qo'shiq aytib o'ynaydi,
O'ynamasa qo'ymaydi,
O'zingiz ham bilasiz,
Bizlarga...... kerak.
Oq teragu, kuk terak,
Bizdan sizga kim kerak.
Kuylasa gar ovozi,
Baland bo'lar parvozi,
Yarashar uning nozi,
Bizlarga ....... Kerak.

HAPPAK O'YNAGAN QIZCHALAR.

Happak o'ynagan qizchalar
Yuzlari shirmoy kulchalar.
Happak toshi oq bo'lar,
Otib ilsa toq bo'lar,
Bizlar uni o'ynasak,
Qalbimiz zavqqa to'lar.
Happak o'ynagan qizchalar
Yuzlari shirmoy kulchalar.
Happak toshin otamiz,
Birovin yo'qotamiz,
Birgalasjib o'ynasak,



O'yin zavqini topamiz.
Happak o'ynagan qizchalar
Yuzlari shirmoy kulchalar.

HAKKALAKAM O'YNASAMMI.

Hakkalakam o'ynasammi?
Dukkalakam o'ynasammi?
Chizmani chizib yerga,
O'ynasak birga-birga,
Sakrab, chopib o'ynasak
Tushib qolamiz yerga.
Hakkalakam o'ynasammi?
Dukkalakam o'ynasammi?
Chizmani o'ynar mergan,
Xonasin topib tergan,
Chizig'ini bosmaylik,
Toshini topib bergan.

### 3.3.Folklor to'garagini tashkil etish.

Folklor to'garagi orqali o'quvchilar qadimiy an'analarimiz, urf-odatlarimizni mehnat va marosim qo'shiqlarimizni, milliy qadriyatlarimizni va milliy musiqa san'atimizni mukammal o'rganadi.

Folklor to'garagida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Har xil janrdagi uslubi va mazmuni jihatidan farq qiluvchi folklor musiqa asarlarini o'rganish asosida milliy, folklor musiqaga muhabbat ruhida tarbiyalash va musiqaviy dunyoqarashni shakllantirish.

2. O'quvchilarda mumtoz, folklor musiqaga muhabbat uyg'otish, ularda folklor musiqa ijrochiligining keng tarqalgan janri hisoblangan folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylash malakasini hosil qilish.

3. Folklor qo'shiqlarni kuylashda qarsaklar va sah[...] harakatlarini o'zlashtirishga erishish;

4. Sahnaga chiqish jarayonida folklor musiqa asarlari mukammal raqs, qarsaklar, zavq-shafq beruvchi ovozlar orqa[...] ijrochilik malakalarini o'zlashtirish.

Folklor to'garagi rahbari quyidagi kompetensiyalarga e[...] bo'lishi lozim.

1. Ijrochining musiqaviy kuylash va sahna harakatlari qobiliyatlarini diqqat bilan o'rganib chiqib, repertuar tanlash;

2. Ijrochining milliy folklor raqslariga ishtiyoqi va qobiliyatini aniqlash, nutq malakasini oshirib borish va ijro erkinligini ta'minlovchi mashg'ulotlarni olib borishni to'g'ri rejalashtirish;

3. Folklor musiqa asarlarini tik turib, o'tirib, qarsak chalib [...] raqs orqali ijro etganda qomatni erkin holatda tutish, butun gavda harakatchan va faol, mimika-yuz ko'rinishi esa ijro etiladigan asar xarakteriga mos ravishda ma'noli, ifodali bo'lishi lozimligini bilish;

4. Nafasdan to'g'ri foydalanishda, bir vaqtning o'zida raq[...] harakatlari, qarsak chalish orqali folklor musiqa asarlarini ijro etish[...] nafas olish yo'llarini mukammal o'zlashtirishni talab qiladi. Shuning uchun ijrochilik nafas tipini barqaror etish lozim. Jamoa bo'lib kuylaganda musiqa jumlasiga muvaffaq hamma bir vaqtda shovqinsiz, chaqqon va nafis olishga erishishni mukamma[l] o'rganish;

6. Tovush hosil qilishda tovush tayanchini sezgan holda tabiiy va yoqimli tovush chiqarish. Tovushning ravon qo'yilishiga erishish. Yumshoq va qattiq, hayajonli tovushlardan maqsadga muvofiq foydalanish. Undosh tovushlarni qisqa va yumshoq talaffuz etgan holda, unli tovushlarni ravon, mayin kuylash. Folklor musiqa asarlarini ijro etayotganda gavda, bosh, qo'l va oyoq harakatlarining erkinligi va chaqqonligi, ishonchliligiga erishish.

7. Talaffuz folklor qo'shiqlarini ijro etishda alohida o'rin tutadi. Talaffuzning erkinligi, yorqin va ifodaliligi, mazmundorligi, jamoa ijrosining eshitilish aniqligiga erishish. Ijro etilayotgan asar-



qo'shiqning so'zlarini tinglovchilarga aniq yetkazib berish vositasi talaffuz deyiladi. Aniq so'z talaffuziga erishish esa artikulyatsiya apparati-til, lablar, tanglay, tishlar, jag'laming faoliyatiga bog'liq ekanligini anglash.

8. Ovoz qizitish mashqlarini to'g'ri va mukammal bajarishni o'rganish. Bunda:

-Mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash;

-Ma'lum unli tovushlar, bo'g'inlar va so'zlar yordamida ish olib borish;

-Turli tovush yo'nalishlarida har xil uslublardan foydalanish;

-Turli dinamik sur'at uslubida ish olib borish;

-Ayrim folklor qo'shiqlari bo'lakchalaridan foydalanib ishlash;

-Diapazonning ma'lum qismida kengaytirib ish olib borish.

### Savollar va topshiriqlar.

1. Folklor san'ati mazmuni va folklor qo'shiqlari haqida tushuncha bering?
2. Folklor qo'shiqlaridan nmunalar kuylab beraolasizmi?
3. Folklor to'garagi qanday tashkil etiladi?
4. Folklor nima?
5. Folklorda nimalar aks ettiriladi?

## 4-Mavzu. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish va olib borish

**Reja:**

1. **O'zbek xalq cholg'ulari haqida tushuncha.**
2. **O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish va olib borish.**

**Tayanch iboralar:** *o'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagi, cholg'u ijrochiligi, o'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish.*

## 4.1. O'zbek xalq cholg'ulari haqida tushuncha.

Umumta'lim maktablarida joriy etilgan sinfdan va maktabd tashqari to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'zbek xalq cholg'ul to'garagini tashkil qilish va ansambl ijrosini rivojlantirish hozir zamon talablari asosida ishlab chiqilgan.

Tajriba havaskorlik ansambllarida badiiy - tarbiyav ishlarning xilma - xil shakllari mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq cholg'ulari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

***Torli tirnama cholg'u va torli urma cholg'u asboblari:***

Havaskorlik cholg'u ansambllari tarkibiga kiradigan mill cholg'ularimizdan birinchi guruhi, torli tirnama cholg'ularda iboratdir. Bular: afg'on rubobi, qashqar rubobi, dutor alt, ten dutori va bas dutorlari, tanbur, qonun cholg'ulari hisoblanad Bundan tashqari, urma torli cholg'u «chang» sozi ham to cholg'ular guruhiga kiradi.

***Urma zarbli cholg'u asboblar:***

Havaskorlik cholg'u ansambllari tarkibiga kiradigan milli cholg'ularimizdan yana bir guruhi urma cholg'u asboblardi Bularga: Doira, nog'oralar, safoil, qayroq, qoshiqlar kiradi. Ag alohida doirachilar to'garagini tuzish maqsad qilib olingan bo'lsa, holda yana bir necha cholg'ular ya'ni barabanlar, litavlalar ksilofo metalafon, marimba, uchburchak va boshqa xalqlar cholg'ularin ham to'garakda ijro etishga ishlatsa ham bo'ladi.

***Kamonli cholg'u asboblar:***

Cholg'u ansambllari to'garagi tarkibiga kiradigan milli cholg'ularimizdan yana bir guruhi kamonli cholg'ular hisoblanad Bu cholg'ularga asosan, g'ijjak, ba'zida skripka, g'ijjaki Boburiy, sato qobo'z (juda kam hollarda uchraydi) tashkil etadi.

***Puflab chalinadigan cholg'u asboblar***

Cholg'u ansambllari to'garagi tarkibiga kiradigan milli cholg'ularimizdan yana bir guruhi - bular puflab chalinadiga cholg'ular hisoblanadi. Bulardan cholg'uchilar ansamblid qo'llaniladigan eng asosiysi bu nay cholg'usidir. Yana bir cholg'u



qo'shnay ham cholg'u ansambllari va orkestrlarda keng qo'llanilmoqda. Xorazmda bo'lamon cholg'usi ansambl ijrosida keng qo'llanilgan. Puflab chalinadigan cholg'ularimizdan surnay va karnay marosimlarda keng qo'llaniladi va unga doira va nog'oralar ham jo'r bo'lishadi. Bu cholg'ularning alohida karnay - surnaychilar guruhi deb atashadi xalqimiz.



*4-rasm. Xalq cholg'ulari ansambli.*

## 4.2. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish va olib borish.

To'garak rahbari sinfga yoki musiqa xonasiga kirib kelgandan so'ng, to'garak a'zolari bilan salomlashib, so'rashib olgach, jo'rnalga o'quvchilarning ya'ni sozandalar darsga kirganligi haqida yo'qlama joyiga belgilab qo'yadi. So'ngra cholg'u asboblarini jo'rlashga, ya'ni fortepiano cholg'usining «lya» tovushini eshitib, cholg'ularni shu notaga qarab sozlab oladilar va ijro etishga tayyor ekanligi aniqlanadi.

O'quvchilar ijro malakalarini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda barmoqlar harakati mashqlarini sekin -asta ijro eta boshlaydi. Barmoqlar harakati ya'ni o'ng va chap qo'l mutanosibligi sezilgandan so'ng, ansambl a'zolari berilgan gammalar (tovushqator) ijrosiga o'tadilar . DO major, RE major, MI major va ularning parallel minorlarini har - xil usul va uslublarda

ijro etib berishi nazarda tutiladi. Shundan so'ng har murakkablikdagi etyudlar ijrosiga o'tiladi.

Shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, cholg'uchilar ansambl berilgan badiiy asarlarda uchraydigan usul (shtrixlar) rivojlantirish uchun etyud va mashqlar tanlanadi. Mashqlar ha ma'lum bir tizimda berilishi kerak.

Asosan texnikaviy mashqlar va etyudlarni ijro etish, bu navbatida to'garak a'zolarining ijro mahoratini oshirishga zam yaratadi. To'garak a'zolarida malakaviy ijro mahoratini oshirish ularni rivojlantirishni o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatla ko'p jihatdan ularning ruhiy holatiga ham bog'liqdir.

Texnik malaka va ko'nikmalar hosil bo'lgandan keyingi ularning imkoniyatlariga mos keladigan oddiy kichik musiq asarlardan tanlab berish lozim.

O'qituvchi, yoki to'garak rahbar cholg'u asbobini qo'liga ol o'zi avval ijro etib ko'rsatadi va kuyning mohiyatini tushuntiri bergandan so'ng, dasta qatnashchilari shu kuyni eshitib cholg'u ohangini topib ijro etishga harakat qiladilar.

Mashqlarni oddiydan murakkabga erishish tamoyili sifatid amalga oshirish maqsadga muvofiq hisolanadi.

O'quv mashqlarini o'zlashtira borgan sari, cholg'ularda ijr sur'ati tezlashib boradi, sababi, ilgari o'zlashtirilgan malaka v ko'nikmalar shu tariqa rivojlanib hamda mustahkamlanad Bajariladigan ishni aniq tushungan o'quvchilar har bir muayya holatda nima qilishini va nimalarga erishishni hamda ularni qanda yo'l bilan amalga oshirishni biladigan bo'ladilar. Buning natijasid diqqat - e'tiborni jamlab, fikrni bir yerga to'plab, ishlash ko'nikmas paydo bo'la boshlaydi. Shu bilan birga gamma va mashqlarni ijr etayotgan vaqtda, notalarni sanab chalish va ularni nomlarini aytib kuylash, ko'rganini eslab qolish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilarda xotiraning rivojlantirishga va shu notalarni baland - pastlik darajasini tez anglab olishga yordam beradi.



O'quvchi - sozandalar albatta uyga berilgan vazifani, musiqa asarlarini sekin - asta ijro etadi, Berilgan badiiy asarni ma'lum qismini ijro etish vaqtida, avval uni sust tempda chalib berishi maqsadga muvofiqdir, chunki, tez sur'atda ijro etilgan asarda ko'p xatoliklar borligi ko'zga tashlanadi.

Uy vazifasi dasta qatnashchilari uchun qancha tushunarli bo'lsa, ijroning bajarilishi ham shuncha osonlashadi. Uy vazifasini to'garak a'zolari ijro etib ko'rsatib chalayotgan vaqtda bir oz adashib chalishi mumkin, lekin o'qituvchi tinglayotgan paytida musiqiy asar qanchalik chala bo'lmasin, to'garak a'zolarini chalishdan to'xtatmasdan, asarni oxirigacha eshitishi zarur.

Musiqiy badiiy asarlar ustida ishlayotgan davrda, to'garak a'zolari dastasiga musiqa rahbari asta - sekinlik bilan bir xil milliy bezaklarimizdan o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Agar ularga birinchi bosqich paytidan boshlab melizmlarni tushuntirib borilsa, ijrochi to'rtinchi bosqichga qadar ancha yutuqlarga erishishi mumkin.

Shuning uchun birinchi mashg'ulot darsdan boshlab, suhbat orqali va o'qituvchining ijrosi misolida o'quvchiga milliy bezaklarimzdan nola, molish, kashlsh, bidratma, trell singari bir qancha melizmlarni oson tushuntirilib, ijroda qanday sadolanishini cholg'uda ko'rsatib berish zarur.

Bundan tashqari o'zbek xalq kuylarida uchraydigan zarblar to'g'risida axborot berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oddiy yakka zarb, qo'sh zarb, teskari zarb, ufor zarb bilak zarb, pirrang kabi zarblarni o'quvchi ongiga singdirib borish kerak.

Musiqa asari ustida ishlashning natijasi va uning yakuni - bu tomoshabin yoki eshituvchilar oldida ijro etib berishdir. Kichik hajmda bo'lgan asar Yallama yorim asarini misol qilib olsak: Agar to'garak a'zolari shu asarni oddiy usullar bilan chalsa, undagi malaka va ko'nikmalar yetarli darajada emasligi ko'zga tashlanadi.

Agar to'garak a'zolari dastasi kuy ijro etadigan jarayonda, ular ijroda milliy bezaklardan foydalansa oddiy nola, va qo'sh zarb yoki

trellardan unumli foydalanib, dinamik tuslarni mohirona ishlatish erishsa, unda eshituvchi bevosita to'garak a'zolari dastasini ijrosiga qoyil qoladi, yoki boshqacha qilib aytganda biror nazoratdan ijobiy baho olishga muyassar bo'ladi.

To'garak qatnashchilariga yangi mavzuni tushuntirishda yo badiiy asarning qolgan ma'mm bir qismini tahlil qilishda, o'qituv didaktik prinsiplarga rioya qilgan holda, ularga bilishi zarur bo'lg ko'rsatmalarni beradi. Ya'ni, musiqiy asarni ma'lum bir qismi to'garak a'zolariga cholg'u asbobi vositasida og'ir tempda ijro et ko'rsatib berishi kerak. To'garak a'zolarida shu kichik fra to'g'risida ma'lumot paydo bo'la boshlaydi. So'ngra ular shu jumla (frazani) uyda mustaqil o'zlashtirishga kirishadi

**Savollar va topshiriqlar.**

1. O'zbek xalq cholg'ulari haqida tushuncha bering?
2. O'zbek xalq cholg'ulari turlani sanab bering?
3. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagi qanday tashk etiladi?

## 5-Mavzu. Doirachilar to'garagi faoliyati

**Reja:**

1. **Doira cholg'usi haqida ma'lumot.**
2. **Doirachilar to'garagi faoliyati.**

**Tayanch iboralar:** *doiar cholg'usi, musiqa to'garaklar doirachilar to'garaklarini tashkil etish, cholg'u sozlari.*

### 5.1. Doira cholg'usi haqida ma'lumot

Doira milliy cholg'u asboblari turkumiga kirib, "dul" "childirma", "nog'ora", "qayroq", "safoil", "reznog'ora" nomlari bilan ham xalq orasida mashhurdir. O'zbek xonadonining har bir farzand doirani sevib chalishga harakat qiladi. Respublikamizda doira ritmil usullarini dunyoga mashhur qilishda o'z hissasini qo'shgan Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab bo'lmoqda. Mashhur doirachilar To'ychi Inog'omov, G'ofur Azimov Raxim Isoho'jaev, Anver Baroyev, Dadaxo'ja Sottixo'jaev ustaning



an'analarini davom ettirgan. Bugungi kunda Dilmurod, Xolmurod va Elmurod Islomovlar davom ettirmoqda. O'zbek xalq cholg'u asboblari orasida urib chalinadigan asboblar guruhi kuyning xos ritm qatorini tashkil etib, alohida o'rin egallaydi. Juda ko'p xalqlarda xalq kuylari urib chalinadigan asboblarning ritmlari asosida ijro etiladi. Urib chalinadigan asboblardan eng ko'p tarqalgan doiradir. Doira aniq bir baland tovush chiqarmaydi. Musiqiy qator tembrli ohangdorligining, ritmik-dinamik tonning butun xilma-xilligi ikki qo'lning zarbi va hamma barmoqlar ishtirokida ta'minlanadi. Doira sadolari o'ziga xos xarakterga ega, u yakka ijro etilganda, raqs jo'rligida yaxshi qabul qilinadi. "Doirachilar" to'garagida o'quvchi-yoshlarning doirachilik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish, ularga doirachilik san'atining boshlang'ich kasb sirlarini puxta o'rganishlari va kelgusida kasb tanlashlariga amaliy yordam berishdan iborat. "Doirachilar" to'garagiga 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar jalb qilinadi[1].

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi uzoq o'tmishga birib taqaladi. Urma zarbli cholg'ular esa eng birinchi bo'lib paydo bo'lgan cholg'ulardan hisoblanadi. Qadimda insonlar bu cholg'ulardan, ovlarda, urushlarda, va har xil diniy marosimlarda foydalanishgan. Tarixdan ma'lumki, mil. avv. V asrdan, milodiy V asrlarda Orta Osiyo hududida Xorazm, Parfiya, Baqtriya va Kushon davlatlari xukum surgan. Ushbu davlatlar hududidan topilgan arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab ashyoviy dalillar topilgan va ular orasida musiqa cholg'ulari (damli, zarbli, torli) ham bor edi. Demak, bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Aytib o'tishimiz joizki, buyuk bobomiz Sohibqiron Amur Temur va temuriylar davrida musiqa madaniyati ancha rivoj topdi. Bu davriga kelib "O 'n ikki maqom" tizimi shakllanib amalda qo'llana boshladi va u saroy musiqasi hisoblanib asosan saroyda amir va amaldorlar uchun ijro etilgan. "O'n ikki maqom"da usullar doira

[1] uz.wikipedia.org

cholg'usida ijro etilgan va doira jo'rligida tanbur, rubob, g'ijja chang, ud, dutor kabi cholg'ular ijro etilgan. O'sha davrda cholg'ularni ijro uslubi va joyiga qarab ikki turga bo'lishin mumkin, saroyda ijro etiladigan cholg'ular ya'ni, ud, rubob, g'ijja arfa, doira va boshqalar. Doira, nog'ora, dovul va karnay, surn cholg'ulari esa bayramlarda, sayillarda va to'y-tomoshalarda ij etilgan. Bundan tashqari zarbli (doira, nog'ora, dovul) va dam (karnay, nafir) cholg'ulardan ovda va urushlarda ham unum foydalanishgan.

Xalq orasida laparlar, o'lanlar va turli folklor qo'shiqlarda doi cholg'usi asosiy cholg'u hisoblangan va ayollar tamonidan ij etilgan. XX asrga kelib doira san'ati darg'asi va doirachilarning pi ustozi hisoblangan Usta Olim Komilov yangi doirachilar ijrov maktabini yaratdi va Marg'ilonda musiqa to'garaklar faoliyati yo'lga qo'ydi. Usta Olim Komilov, "Qo'sh qars", "Katta o'yin", "Pilla "Qo'qoncha", "Tantana", "Andijon po'lkasi", "Sarboz", "Farg'onacha "Dovul", "Shodlik" va boshqa ko'plab asarlarni doira va raqs uchu yaratdi. Hozirgi kunda bu asarlardan ta'lim muassasalarida darsli sifatida foydalanib kelinmoqda. Usta Olim ota asos solga doirachilar maktabini uning eng yaqin shogirdi To'ychi Inog'omo Toshkentda davom ettirdi. Ustoz shogird an'analariga asoslangan b maktab bugungi kunda ham faoliyatda bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunga kelib davlatimiz tomonidan musiqa va san'atg bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshdi.





*5-rasm. Doirachilar ansambli*

**5.2. Doirachilar to'garagi faoliyati.**

Doirachilar to'garagi faoliyati asosan bolalar musiqa va san'at maktablarida yo'lga qo'yilgan. Umumta'lim maktablarida ham doirachilar to'garagi faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq lekin, bu faoliyat maktabda malakali mutaxassis-doirachi, ya'ni doirachilar to'garagini tashkil qila oladigan va faoliyat olib boradigan to'garak rahbarini talab qiladi.

Musiqiy ta'limda doira ijrochilarini tayyorlashning eng muhim bosqichi bu bolalar musiqa va san'at maktabi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchi doira cholg'usi haqida ilk tasavvur hosil qiladi hamda undagi ijrochilik mahoratini egallashning dastlabki jarayonlarini o'zlashtiradi. Ushbu jarayonda cholg'udagi ijro holati, uslublari, zarblari (shtrixlari)ni puxta o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar yakka va ansanbl tarzda olib borilib, fortopiano jo'rligida ham asarlar ishlanadi.

Ushbu maktabda yutuqli tomonlar bilan birga kamchliklari ham yo'q emas, xususan doira sinfida bir qancha kamchiliklar mavjud. Bolaning ijrosi va pastonofkasini tog'ri shakllantira olmaslik, asar tanlashdagi kamchiliklar, aksariyat hollarda o'quvchilar o'zi ijro qilayotkan asarlarni mazmunini bilishmasdan

ijro etishi va boshqa kamchiliklar mavjud. Albatta bunda mashg'ulot rahbarlarining ma'suliyatli bo'lishi talab etiladi, chunki yo ijrochilar asosiy bilim malakani ushbu dargohdan olishadi.

Savollar va topshiriqlar.

1. Doira qanday cholg'ular guruhiga kiradi?
2. Doira haqida ma'lumot bering?
3. Doirachilar to'garagi qanday tashkil etiladi?
4. Doirachilar to'garagi rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Ozbekistonda doira ijrochigi san'atining rivojlanishi haqida so'zlab bering?
6. Mashhur doirachilardan kimlarni bilasiz?

## 6- Mavzu. Dutorchilar to'garagi faoliyati.

**Reja:**

1. **Dutor cholg'usi haqida ma'lumot.**
2. **Dutor ijrochiligi maktablari.**
3. **Dutorchi qizlar ansambli haqida.**
4. **Dutorchilar to'garagi faoliyati.**

**Tayanch iboralar:** *dutor dutor turlari, dutor to'garag dutorchilar to'garagin tashkil etish. dutor zarblari, dutor sozi, duto turlari, "dast", "oddiy zarb", "yakka zarb", "barmoq zarb", "Arpedjio' "^"*

### 6.1.Dutor cholg'usi haqida ma'lumot.

**Dutor** (fors - ikki tor) - 1) torli chertma milliy musiqa cholg'usi O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek dutorlari muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi (rezonatori) 8-12



ta yupqa, bir-biriga yonmayon yopishtirilgan taxtacha (qovurg'a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'iz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 13-17 ta parda bog'lanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o'yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanavor sozi (kvarta), Munojot so'zi (kvinta), Qo'shtor sozi (unison)ga sozlanadi. Uyg'urlarda dutor. kattaroq shaklda, Turkmanistonda fakat o'yma (qazma) turi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda kosaxonasi qovurg'alik dutorlar bilan birga hajmi kichik, o'yma xillari ham uchraydi. Dutor yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda yakka zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud[2].

Dutor alt yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Dutor alt, dutor primada orkestr jo'rligida yirik asarlarni (solo) chalish mumkin. Dutor alt mungli, mayin va o'zining yoqimli tovushi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Tovush jihatidan ancha past, texnik imkoniyati ham kichkina, lekin oxirgi yillar davomida tajribali ijrochilar bu cholg'u imkoniyatlarining barcha qirralarini ochib berishdi. Dutor altda o'ziga xos har xil usullarda (terma zarb, chertma zarb, teskari zarb, bilak zarb, pissikato) kuy chalinadi. Dutor chalish usullari boyligi, turli-tumanligi tufayli orkestrda uning o'rni muhimdir. Dutor yakkasoz ijro etayotgan cholg'uga jo'rnavoz bo'lib, o'zining yoqimli va mayin tovushi bilan moslashadi. Tovush jarangini, garmoniyasini boyitib, tovushlarni ushlab, kuy mohiyatini ko'tarib turadi. Dutorda bir yo'la ikki tovush sadolanadi. Tersiya, kvarta, kvinta, bitta ochiq torda esa undan katta intervallarni chalish mumkin[3].

Dutorning quyidagi turlari mavjud: dutor prima, dutor sekunda, dutor-bas, dutor - kontrabas kabi turlari mavjud.

---
[2] uz.wikipedia.org
[3] Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2017

Dutor cholg'usining yana bir muhim jihati shundaki, bu soz yakka ijro qilinganda o'ng qo'ldagi zarblarning "usul beruvchi" vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo'ladi.

O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g'ijjak, chang, nay, surnay, qo'shnay, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg'ular mavjud. Cholg'ularning takomillashuvi ularning ovoziga, ovoz diapazoniga, shakllariga ta'sir ko'rsatgan. Dutor cholg'usi manbalarda yozilishicha deyarli o'zgarmagan. Qadimda dutor cholg'usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo'lsa kerak, dutor sozining mayin va xonanda ovozga egaligi bizgacha o'zgarmastan yetib kelgan.

## 6.2. Dutor ijrochiligi maktablari

O'zbekistonda asosan Xorazm, Qo'qon, Andijon, Toshkent kabi o'ziga xos ijrochilik maktablari shakllangan.

Asrlar davomida rivojlanib ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o'tib kelgan dutor cholg'uchiligi an'anasi turli ijrochilik uslublarini shakllantirdi. Ular o'zlarida shakl tuzilishining lad intonatsiya, usul va boshqa tamoyillarini aks ettiribgina qolmasdan sozandaning ijro davomidagi butun ijodi va holatini ham namoyon etadi. Shu bois applikatura, bezak, badiha va xalq sozandalari tomonidan tarixan ishlab chiqilgan kompozitsiyaning o'ziga xos majmui bo'lgan ijro usullari xususiyatlariga doir masalalarni umumlashtirish asosiy vazifalarimizdan etib belgilanadi.

Boshqa tanbur sifat cholg'ularga o'xshab dutorda ham o'ng qo'l bilan tovush hosil qilinadi va bunda ikkala tor ham bir vaqtning o'zida sadolanadi. Barcha dutor ijrochiligi an'analarida o'ng qo'lning ikkala barmog'ini navbat bilan pastga va yuqoriga harakatlantirib chalish usuli keng tarqalgan. Bu usul turli joylarda o'z nomlanishiga ega bo'lib, faqatgina torga zarb berishni aks ettirib qolmasdan, balki uning yo'nalishini, ya'ni zarblar harakatini belgilaydi. Usul



Xorazmda "dast", Farg'onada "oddiy zarb", Toshkentda "yakka zarb", Buxoro va Samarqandda "barmoq zarb" deb ataladi.

Xorazm ijrochilik an'analarda bu zarb dutorning eng baland pardalarida ham qo'llaniladi. Boshqa mahalliy uslublardan o'n birinchi pardadan keyin ko'rsatgich barmoq bilan faqat yuqoriga urib, tovush dinamikasini o'ta kuchsiz sadolantirib chalish ko'proq uchraydi. Ijro davomida tovush tembrining tozaligi va qo'lning dutor qopqog'iga tegmasligiga katta ahamiyat beriladi. Xorazm dutorining hajmi kichik bo'lsa ham unda qo'l panjalarining harakat amplitudasi boshqa mahalliy uslublarnikiga qaraganda kengdir. Dutor qopqog'iga tekkizib chalish Xorazm uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, u yerda boshqa joylarga nisbatan ko'proq ochiq havoda ijro etilgan. Bu esa ko'p tovush kuchini talab qilgan va kichik hajmli cholg'u torini tarangroq sozlab, o'ng qo'lni keng amplitudada xarakatlantirib turishga olib kelgan.

Buxoroda, Farg'ona vodiysida, Toshkentda erkak dutorchilar zarbni pastga urganda qo'lni cholg'u qopqog'iga tekkizmasdan chalishadi. Bunday ijro asosan bilakni yumshoq harakatlantirish hisobiga amalga oshiriladi. Toshkent va Farg'ona vodiysi ayollari dutorni qopqog'iga urib chalish usulini ko'p qo'llaydi. Ayollar dutorda sof cholg'u asarini ijro qilganlarida urma cholg'ular aksariyat hollarda qo'llanilmaganligining ikki sababi mavjud: Doiraning tovushi ancha kuchli bo'lib, uzoqqa eshitiladi va bu hodisa ayrim hollarda uydagi erkaklar orasida norozilik tug'diradi. Doiraning zarbi dutor tovushini bosib ketadi. Qopqoqqa barmoq bilan urish esa ijro paytida kuchli zarbni alohida ajratgani holda go'yo urma cholg'uning o'rnini bosadi, ashulachi hamda raqqosaga ko'maklashadi.

Shunday qilib "yakka zarb" usuli bosh va ko'rsatgich barmoqlarning pastga va yuqoriga urilishidan tashkil topadi, u ko'pincha cholg'uning baland registirida tovush kuchini pasytirish uchun qulay hisoblanadi. Xorazmda mazkur usulning bu turdagi ko'rinishlari uchramaydi. Yakka zarbga yaqin usullardan yana biri,

to'rt barmoqni izchil barmoq harakatlari bilan ikki torni pastga bosh barmoq bilan yuqoriga urish orqali bajariladi. Bu usulni pastga urilishi nota yozuvida "Arpedjio" va yuqoriga urilishi belgisi bilan ifodalanadi. Mazkur usul turli mahalliy uslublarda xil. Toshkent va Farg'onada "bilak zarb", Buxoro va Samarqandda "Mushtarak zarb", Xorazmda "Sharq zarb" deb nomlanadi. Ularni kelib chiqishi xilma xil ma'nolarga ega: "Bilak"- so'zi qo'lni bilagini, "mushtak" – mushtni, "shaq" – barmoqlarning deka tegishi natijasida shaqillab chiquvchi tovushni ifodalaydi.

Iste'molda ko'p ishlatiadigan yana bir usul "rez" bo'lib, u ha turli ijrochilik uslublarida har xil nomlanadi. Farg'ona Toshkentda "bildiratma", "dirillama", gohida "zarb" kabi atamal bilan yuritiladi.

Dutor usullaridan yana biri Farg'ona va Toshkentda "term zarb", Buxoro va Xorazmda "yig'ma dast" deyiladi. U ikki ko'rinishda ijro etiladi: birinchisi: ikkala torda oldin ko'rsatgi barmoq, keyin bosh barmoq pastga, so'ngra oldin bosh barmo keyin ko'rsatgich barmoq yuqoriga birin ketin xarakatlanadi. Buni barmoqlar harakatining navbat bilan kelishi ravon, bir tekis, tor tushadigan zarblarning kuchi bir xil bo'lishi darkor. Terma zarbni bu ko'rinishi uncha kuchli bo'lmasada, ammo chiroyli sadolanish ega.

Navbatdagi usul Xorazmda "Chappa dast", Buxoro Samarqandda nomsiz. Farg'ona va Toshkentda "teskari zar deyiladi. Bunda zarblarning izchilligi yuqorida zikr etilga usullardan farq qiladi. Bu usulni ijro qilganda torga tushadiga zarblar bir xilda bo'lib, ularning kuchlari esa turlicha taqsimlanadi. "Teskari terma" deb ataladigan dutor usulining yana bir tu oldingilaridan o'z ijrosining murakkabligi bilan ajralib turadi. Fargona va Toshkentda "teskari terma", Xorazmda "chappa yig'ma deyiladi. Bu usul ikkala torga o'ng qo'l barmoqlarining pastga yuqoriga izchil sur'atda qo'llaniladigan tezkor harakatlaridan tashk topadi.



Dutorda ikkala torga ulanadigan usullardan tashqari yakka torda chalinadiganlari ham mavjud bo'lib, ular ham turli mahalliy uslublarda har xil nomlanadi. Bunday usullar O'zbekistonning ko'proq sharqiy hududlariga xos bo'lib, Buxoro va Samarqandda juda kamdan – kam uchraydi va maxsus nomlanishiga ega emas. Xorazmda maskur zarb dutor faqat ashulaga jo'rlik qilganda ba'zi hofizlar tamonidan qo'llaniladi.

Barcha ijrochilik an'analaridan ko'rsatkich barmoqni yuqoriga harakatlantirgan holda baland tovushlarni chalishda ishlatiladi. Barcha uslublarda "glisando" usuli qo'llanilib, har yerda turlicha nomlanadi: Xorazmda "otlash", Buxoro va Samarqandda nomsiz, Farg'ona va Toshkentda "toydirma zarb", "sirpanma zarb" deb ataladi. Bu usul chap qo'lda ikki torni bosgan holda yoki faqat yuqori torni bosib, paski torni ochiq jaraglagani holda qo'l dasta bo'ylab sirpantiriladi.

Dutor cholg'uchiligida bir qancha ijro bezaklari bo'lib, ularning nomlanishi xam turlichadir: Farg'ona, Toshkent va Xorazmda "nola", "qochirim", "bezak" yoki "naholak" deyilsa, Buxoro va Samarqandda "gulpar" deb ataladi. Musiqa o'quv yurtlari xalq cholg'ulari bo'limlarining "akademik yo'l" deb ataladigan o'quv tizimini tugatgan sozandalar, asosan temperatsiya qilingan dutorlarda ta'lim olganliklari sababli, tovush hosil qilishning Ovro'pacha usuliga va nota matniga qat'iy rioya qiladilar.

Dutor an`anaviy cholg`ular orasida turli va rang-barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boy cholg`u soz sifatida turli yoshdagi ijrochilar amaliyotida keng qo`llanilib kelinadi.

Xorazm dutor ijrochiligini takomillashuvida bir qator ustoz ijrochilarining katta hissalari bor.

Bulardan - Nurmuhammad Boltayevni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ustoz ijrosidagi - "Orazibon", "Qarinavo", "Aliqambar", "Qoradali", "Roviy", "Dilxiroj" kabi xalq kuylarida Xorazm ijro

uslubini, ya'ni qopqoqqa urib, to'rt barmoqni birgalikda t
chalishlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

### 6.3. Dutorchi qizlar ansambli haqida.



*6-rasm. Dutorchi qizlar ansambli.*

**Dutorchi qizlar ansambli** O'zbekiston Teleradiokompaniya qoshida G'anijon Toshmatov nomidagi dutorchi qizlar ansambl xonanda va sozanda xotin-qizlardan tashkil topgan ansambl. Dastl O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida "Dutorchi qiz-juvonla ansambli (1939 yil) tashkil etilgan. Badiiy rahbari - L.Sarimsoqov musiqa rahbari - Yu.Rajabiy, baletmeyster - G.Rahimova. Keyinchal u "Ashula va raqs ansambli" deb nomlangan. Ansambld R.Bogdanova, K.Ismoilova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arti M.Abdullayeva va boshqalar xizmat qilgan. 1958 yil yangida "Dutorchi xotin-qizlar ansambli" tashkil etilgan (badiiy rahbari M.Abdullayeva). 1964 yilda tarqalgan.

1977 yilda Toshkent shahar Madaniyat uyida A.Ilyoso boshchiligida "Dutorchi qizlar ansambli" tuzildi. Mazkur ansam ishtirokchilari 1979 yil O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshid tashkil etilgan. Repertuaridan yuzlab o'zbek xalq qo'shiqla



("Chamannor", "Yoryoraxon-Gulyoraxon", "Simsim oralab", "Yo'l bo'lsin", "Yor-yor" lar, laparlar, o'lanlar), bastakor va kompozitor (G'.Toshmatov, K.Jabborov, S.Kalonov, F.Sodiqov, M.Murtazoyev, Q.Iskandarov, A. Ismoilov, R. Tursunov, T. Otaboyev, Q. Komilov, Sayfi Jalil va b.)lar asarlari ("Qoshing qarosi balo", "Baxtimdan", "Diyorimsan", "Uyolaman", "Kelasan", "Tamanno", "Humo", "Avval Vatan, keyin jon", "Sevgi"), shuningdek, ansambl ishtirokchilari (Z. Suyunova, Z. Rahmatullayeva, Q. Esonova) bastalagan qo'shiqlar ("Boy qaynona", "Ayol", "Gul ochilsa", "Uzoq kutdim" va b.) va turli xalqlar (afg'on, hind, uyg'ur, qoraqalpoq, ispan) qo'shiqlari o'rin olgan. Ansambl Tojikiston, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya mamlakatlarida gastrolda bo'lgan.

O'zbekiston viloyatlari va o'quv yurtlarida ham dutorchi qizlar ansambllari (mas, Nukus sh. 1-Madaniyat uyi qoshida "Qirq qiz" dutorchi qizlar ansambllari, 1967; Farg'ona davlat ped. institutining "Nihol" dutorchi qizlar ansambllari, 1977) tashkil etilgan.



***7-rasm. Dutorchilar ansambli to'garagining konsert jarayonidan lavhalar.***

### 6.4. Dutorchilar to'garagi faoliyati.

**"Dutorchilar" to'garagining ish rejasi**

______________maktabining “**Dutorchilar**” to‘garagining
______o‘quv yiliga mo‘ljallangan

**ISH REJASI**

| № | Bajariladigan ishlar | Muddati | Ma’sul | Soati | Haftakuni. | Baja gan Haq a izo |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Dutorchi qizlar ansamblining maqsad va vazifalari. | Sentabr | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 2 | Dutor haqida ma’lumot berish. | Oktabr | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 3 | O‘zbek xalq kuylaridan namunalar o‘rganish | Noyabr | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 4 | Dutorchi qizlarning ijrochilik malakalarini oshirish | Dekabr | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 5 | Chet el kompozitorlarining asarlaridan namunalar ijro etish | Yanvar | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 6 | Rus kompozitorlarining asarlaridan namunalar o‘rganish. | Fevral | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 7 | Dutorchi qizlar ansamblining sahnaviy ijrochilik madaniyatini oshirish. | Mart | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 8 | Dutorchi qizlar ansambli a’zolari bilan individual ishlash | Aprel | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 9 | Musiqiy asarlar ijrochiligida badiiy bezaklar ustida ishlash. | May | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |
| 10 | Musiqiy asarlarni jo‘rnavoz bilan ishlash va ijrochilik malakalarini rivojlantirish. | Iyun | To‘garak rahbari | 8 | Payshanba | |



**Maktab direktori:** ____________

**To‘garak rahbari:** ______________

**TO‘GARAK A’ZOLARINING RO‘YXATI**

| № | To‘garak a’zolarining ismi sharifi | sinfi |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |
| 3 | | |
| 4 | | |
| 5 | | |

| | | |
|---|---|---|
| 6 | | |
| 7 | | |
| 8 | | |
| 9 | | |
| 10 | | |

### Savollar va topshiriqlar:

1. Dutor cholg'usini yasalishida qanday daraxt yog'ochlarida foydalanilgan?
2. Dutorning tuzilishi haqida gapirib bering?
3. Dutor zarblarini topib o'rganib keling.
4. Dutorni sozlash haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.
5. Dutor turlari va ularning farqi yuzasidan ma'lumot to'plash
6. Xorazm, Qo'qon, Andijon, Toshkent ijrochilik maktablarining o'ziga xos jihatlari haqida gapirib, amaliy ijro asosida tushuntir bering?
7. "yakka zarb" qanday ijro etiladi?
8. "teskari zarb" qanday ijro etiladi?
9. Farg'ona-Toshkent dutor ijrochiligida shaxsiy uslublari bila nom qozondan mashhur ijrochilarni sanab bering?

### 7-Mavzu. Rubobchilar to'garagi faoliyati.

**Reja:**

1. **Rubob cholg'usi haqida ma'lumot.**
2. **Rubobchilar ansambli to'garagining tashkil qilinishi.**

**Tayanch iboralar:** *rubob, rubobchilar to'garagi, rubobchilar ansambli to'garaklarini tashkil etish, shtrixlar, ijrochilik asarlari.*



### 7.1.Rubob cholg'usi haqida ma'lumot.

Rubob cholg'usidan uyg'ur, o'zbek, tojik va boshqa xalqlar ham keng foydalanadilar. Qashqar rubobi tut, chinor, o'rik va boshqa qattiq yog'ochlardan ishlanib, kuchli jozibali, serohang, jarangdor tovushga ega.

Qadimgi o'yma ruboblarning pardalari ichakdan eshilib uning dastasiga bog'lanar edi. Shu ruboblarning tovushqatori diatonik joylashgan bo'lib, maqomlar va mumtoz kuylarimiz ijro etilardi. Endilikda esa, 1936 yildan boshlab, barcha o'zbek musiqa cholg'ularimiz qatori rubob ham takomillashtirilib, xromatik tovushqatorga ega bo'ldi. Bu esa butun dunyo xalqlari musiqa asarlarini, shuningdek G'arbiy Ovropa klassik asarlarini ham ijro etish imkoniyatini berdi.

Mashhur rubobchi sozandalarimizdan: Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Abbos Bahromov, Nusrat Inoqovlardir. Hozirgi kunda ijro etib kelayotgan rubobchilar: Qobil Usmonov, Tohir Rajabov, Rahmatjon Tursunov, Husan Nabiyev Anvar Inoqov, Rifatilla Qosimov, Rustam Karimov, Ari Boboxonov Olimboy Rahmonov, Ravshan Hamroqulovlardir.

#### *Rubobning sozlanishi*

Rubobning kosasiga asosan baliq terisi ba'zi hollarda buzoqning yurak terisi ham qoplanadi. Rubob notasi yozilishidan ko'ra bir oktava past sozlanadi (ovoz beradi). Rubob besh torda iborat. Uning birinchi tori juft bo'lib, fortepianoning yoki changnin birinchi oktavadagi ***lya*** pardasiga va ikkinchi tori ham juft bo'lib, m pardasiga, oxirgi ichakdan eshilgan yo'g'on tori bitta bo'lib, chalinadigan kuyining mohiyatiga qarab, ***si*** yoki ***lya*** pardasig sozlanadi.

Rubob xalq ansambli va orkestrda yetakchi vazifani bajarad Uning yoqimli tovushi mayin, serjilo, ohangi boshqa sozlarda ajralib turadi. Rubobning bir necha turlari bo'lib, ular rubob prim rubob sekunda, rubob tenor deb ataladi.

| | | |
|---|---|---|
| 6 | | |
| 7 | | |
| 8 | | |
| 9 | | |
| 10 | | |

## Savollar va topshiriqlar:

1. Dutor cholg'usini yasalishida qanday daraxt yog'ochlarid[a] foydalanilgan?
2. Dutorning tuzilishi haqida gapirib bering?
3. Dutor zarblarini topib o'rganib keling.
4. Dutorni sozlash haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish.
5. Dutor turlari va ularning farqi yuzasidan ma'lumot to'plash.
6. Xorazm, Qo'qon, Andijon, Toshkent ijrochilik maktablarini o'ziga xos jihatlari haqida gapirib, amaliy ijro asosida tushuntir[ib] bering?
7. "yakka zarb" qanday ijro etiladi?
8. "teskari zarb" qanday ijro etiladi?
9. Farg'ona-Toshkent dutor ijrochiligida shaxsiy uslublari bil[an] nom qozondan mashhur ijrochilarni sanab bering?

## 7-Mavzu. Rubobchilar to'garagi faoliyati.

**Reja:**

1. **Rubob cholg'usi haqida ma'lumot.**
2. **Rubobchilar ansambli to'garagining tashkil qilinishi.**

**Tayanch iboralar:** *rubob, rubobchilar to'garagi, rubobchil[ar] ansambli to'garaklarini tashkil etish, shtrixlar, ijrochilik asarlari.*



### 7.1.Rubob cholg'usi haqida ma'lumot.

Rubob cholg'usidan uyg'ur, o'zbek, tojik va boshqa xalqlar ham keng foydalanadilar. Qashqar rubobi tut, chinor, o'rik va boshqa qattiq yog'ochlardan ishlanib, kuchli jozibali, serohang, jarangdor tovushga ega.

Qadimgi o'yma ruboblarning pardalari ichakdan eshilib uning dastasiga bog'lanar edi. Shu ruboblarning tovushqatori diatonik joylashgan bo'lib, maqomlar va mumtoz kuylarimiz ijro etilardi. Endilikda esa, 1936 yildan boshlab, barcha o'zbek musiqa cholg'ularimiz qatori rubob ham takomillashtirilib, xromatik tovushqatorga ega bo'ldi. Bu esa butun dunyo xalqlari musiqa asarlarini, shuningdek G'arbiy Ovropa klassik asarlarini ham ijro etish imkoniyatini berdi.

Mashhur rubobchi sozandalarimizdan: Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Abbos Bahromov, Nusrat Inoqovlardir. Hozirgi kunda ijro etib kelayotgan rubobchilar: Qobil Usmonov, Tohir Rajabov, Rahmatjon Tursunov, Husan Nabiyev, Anvar Inoqov, Rifatilla Qosimov, Rustam Karimov, Ari Boboxonov, Olimboy Rahmonov, Ravshan Hamroqulovlardir.

#### *Rubobning sozlanishi*

Rubobning kosasiga asosan baliq terisi ba'zi hollarda buzoqning yurak terisi ham qoplanadi. Rubob notasi yozilishidan ko'ra bir oktava past sozlanadi (ovoz beradi). Rubob besh tordan iborat. Uning birinchi tori juft bo'lib, fortepianoning yoki changning birinchi oktavadagi ***lya*** pardasiga va ikkinchi tori ham juft bo'lib, ***mi*** pardasiga, oxirgi ichakdan eshilgan yo'g'on tori bitta bo'lib, u chalinadigan kuyining mohiyatiga qarab, ***si*** yoki ***lya*** pardasiga sozlanadi.

Rubob xalq ansambli va orkestrda yetakchi vazifani bajaradi. Uning yoqimli tovushi mayin, serjilo, ohangi boshqa sozlardan ajralib turadi. Rubobning bir necha turlari bo'lib, ular rubob prima, rubob sekunda, rubob tenor deb ataladi.

## 7.2. Rubobchilar ansambli to‘garagining tashkil qilinish

O‘quvchilarni ijrochilik malakalarini shakllantirishda aso sinfdan tashqari mashg’ulotlar ya’ni to‘garaklar muhim o hisoblanadi.

O‘zbek xalq cholg’ulari orasida rubob cholg’usi alohida o‘ri egallab, uni ijro etgan o‘quvchi rubobning ovozidan zavqlana O‘quvchining ijro malakasini shakllantirishda har bir cholg asbobining ahamiyati katta, jumladan rubob cholg’usini oladig bo‘lsak uning pastanovkasi, ijrochilik qonun-qoidasi o‘quvchid mukammallikni talab etadi. Masalan to‘garaklarda Ijrochi malakasini shakllantirish uchun rubobchilar ansamblini tuzi yaxshi samara beradi.

Rubobchilar ansambli quyidagicha tashkil qilinadi. Ansambl qatnashayotgan o‘quvchilar ansambl shaklida o‘tirib olisha so‘ngra ruboblarni sozi tekshirib ko‘riladi ya’ni fotepia cholg’usining lya tovushini eshitib tayyor ekanligi aniqlanadi.

O‘quvchilar ijro malakalarini shakllantirish va uni rivojlantiri uchun birinchi navbatda barmoqlar harakati mashqlarini sekin as ijro eta boshlaydi. Barmoqlar harakati hamda o‘ng va chap q mutanosibligi sezilgandan so‘ng ansambl a’zolari berilgan gammal (tovush qator) ijrosiga o‘tadilar. Ulardan “Do major”, “Re major”, “ major” va ularning parallel minorlari har xil usullar bilan ijro et borishi nazarda tutiladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, rubobchil ansambliga berilgan badiiy asarlarda uchraydig usullar(shtrixlar)ni rivojlantirish uchun etyud va mashql tanlanadi. Ushbu mashqlar ham ma’lum bir tizimda bo‘lishi kera Texnik ko‘nikma va malaka hosil bo‘langan keyingina rubobchilar ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda oddiy va kichkin musiqiy asarlarni tanlab berish lozim. Kuyni avvalam bo o‘qituvchining o‘zi rubobda ijro etib, uning mazmun mohiyatin badiiy obrazini, ijro texnikasini, kuyning eng mukammal qismlari tushuntirib berishi muhim sanaladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar har ushbu kuyni o‘z ijrolarida ifodalab berishga harakat qilishadi.



O‘quv mashqlarini o‘zlashtira borgan sari o‘quvchilarning cholg’ularda ijro texnikasi, ijro sur’ati tezlashib boradi, sababi ilgari o‘zlashtirilgan malaka va ko‘nikmalar shu tariqa rivojlanadi va mustahkamlanadi. Buning natijasida gamma va mashqlarni ijro etayotgan paytda notalarni sanab chalish va ularni nomlarini aytib kuylash ijrochilik malakasini shakllanishiga xizmat qiladi. Ijrochilik malakasini shakllanishida ansambl a’zolarining bir-biriga ta’siri katta. Sababi ular bir-birini eshitish, birgalikda bir xil ohang hosil qilish, bir-birini boshqarish kabi ko‘nikmalar hosil qilib borishadi. Ansambl jarayonida ijro malakasi sust o‘quvchilar ham o‘z ustida ishlashga va boshqalar kabi jonli va mukammal ijro etish harakat qilishadi. Ansamblni tashkil qilish o‘quvchilardan mukammallikni talab etadi. Unda har bir qatnashuvchi asarni qalban his qilishi, eng nozik qismlarini ham mahorat bilan ijro eta olishi, ohang va soz uyg’unligi, tempni bir xil ketishi, denamik belgilarda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, shtrixlardagi bir xillik, qo‘llarning mutanosibligi muhim. Shundagina asarning badiiy ifodasi va mazmuni tinglovchida yaxshi taassurot uyg’otadi va ansamblning badiiy qiymatini oshiradi.

Ansamblni tashkil qilishda tanlangan asar dastlab sekin tempda o‘rganilib, kuyni mayda-mayda bo‘laklarga bo‘lib o‘rganilishi maqsadga muvofiq, chunki asar hali mukammal o‘rganilmay turib temp tezlashgan holda ijro etilsa ansambl ijrosida ko‘p xatoliklar ko‘zga tashlanadi. Asar ijrosidan avval undagi har xil milliy bezaklarni ijroda qanday sadolanishini o‘qituvchi tomonidan tushuntirib berilishi, asarni ijro texnikasini boyitadi. Bundan tashqari o‘zbek xalq kuylarida uchraydigan zarblar to‘g’risida ham o‘quvchilarga ma’lumot berilishi kerak. Oddiy qo‘sh zarb, yakka zarb, teskari zarb, uffori zarb, bilak zarb, pirrang kabi zarblarni o‘quvchilar ongiga singdirib borish kerak. Anashunday zarblardan foydalanib, turli xil bezaklar orqali asar badiiyligi va ijro texnikasining boyitilishi o‘quvchilarning ijro malakasini qay darajada shakllangaligini bildiradi. Musiqa asari ustida ishlashning natijalari va uning yakuni uni sahnada tomoshabinga ijrosi chog’ida

yuzaga keladi. Masalan kichik hajmdagi asarlardan o'zbek xalq k "Do'loncha"ni oladigan bo'lsak, rubobchilar shu asarni oddiy usul bilan chalib bersa o'quvchilarning ijrochilik malakalari yet darajada shakllanmaganligini bildiradi. Aksincha, ular ijroda d davomida o'rgangan har xil bezaklar, nola va qo'sh zarblard foydalanib, dinamik belgilarni mohirona ishlatishga erishsa, u eshituvchilar bevosita rubobchilarning ijrosiga qoyil qol Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilar ansambl orq ijrochilik malakalarini mohirona ko'rsatishga muyassar bo'lishadi

Rubobchilar ansamblini tashkil qilishda quyidagi bosqichla nazarda tutadi:

- o'qituvchi bilan birgalikda asar tanlash;
- birgalikda asarni tahlil qilish;
- asar muallifi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;
- asarning ijro texnikasini o'rganish;
- asarning texning qiyinchiliklarini yengish mashqlarini ij etish;
- asarning eng mukamml ijrosini yo'llarini o'rganish;
- dinam belgilar va temp ustida ishlash;
- jo'rnavoz bilan ansamblni shakllantirish;
- asarni badiiy ifodasini ijro orqali tinglovchiga mahorat bil yetkazib berish;

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqichlar birma-bir bosib o'tilg o'quvchi ansambl ijrosi jarayonida o'z oldiga qo'ygan maqsadi erisha oladi.





*8-rasm. Rubobchilar to'garagi a'zolarining konsert jarayoni.*

Ma'lumki, har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim, yuksak mahorat va ijrochilik malakalarini talab etadi. O'qituvchi o'quvchida ijrochilik malakalarini shakllantirar ekan, unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buninh uchun dastlabki davrlardanoq imkoni boricha yaxshi jaranglaydigan, o'quvchiga yoqadigan asarlarni, ularni o'rganishga ishtiyoqini kuchaytiruvchi musiqiy asarlarni repertuarga kiritib borish lozim. Asar ustida ishlaganda boshlang'ich davrdan boshlab har bir shtrixni yaxshi tovush hosil qilinishiga e'tibor berish kerak, chunki sozandaning tovush kuchi va sifati ijroninng badiiy ifodalaydigan asosiy mezonlaridan biridir. Badiiy ifodalilik o'zbek xalq cholg'u asboblarining cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Sozandaning ijro texnikasi qanchalik yuqori bo'lmasin, agar u asarning badiiy xususiyatlarini ochib bera olmasa tinglovchida yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Bunday asar quruq, go'yo jonsiz, ruhsiz oddiy bir ko'rinishda bo'lib qoladi. Buning uchun sozanda o'z cholg'usini yaxshi bilishi va shtrixlarning ifodalilik xususiyatlarini yaxshi egallagan, ularni kerakli darajada qo'llay bilish, hamda tiniq ohangdor yig'ilgan tovushni kosil qila olishi va uni boshqara bilish kabi malakalarni to'liq o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

[illegible]

[illegible]

Masalan, Yevropa klassik asarlarini ijro etganda tovush ma[illegible] tiniq, zich va yig'ilgan sifatlarga ega bo'lishi kerak. Bunda ijrochi [illegible] katta mahorat talab etgan holda zarbli, mezrobli [illegible] mediatorning o'rtasi bilan berilib chap qo'l barmoqlari bilan aniq qattiq bosish kerak bo'ladi. O'ng qo'l harakati amplitudasi qisqa yengil bo'lsa, o'zbek xalq kuylari va Shashmaqom namunalarida [illegible] shu zarb xarrakka yaqinroq joyda urilib jarangdor va tiniq tovush[illegible] erishiladi.

Xuddi shunga o'xshash triolli shtrix ham o'zbek raqs kuylari [illegible] butunlay boshqa xarakterga ega bo'lib, tovushlarni pastga – tepa[illegible] urish tartibi ham turlicha va o'ziga xos bo'ladi. Rus va yevro[illegible] kompozitorlarining asarlarida yoki Ozarbayjon kompozitor[illegible] asarlarida esa bu shtrixlarning xarakteri qat'iy triol ko'rinishiga e[illegible] bo'ladi.

Ijro malakalarida bundan tashqari stakatto usulida chali[illegible] pauzalar ham kuyning milodik tuzulmasida asosiy o'rin tutadi[illegible] jumlalarda ayniqsa ritmning juda aniqligi talab etiladi. Bu ha[illegible] badiiy ifodalilikning bir ko'rinishi bo'lib, shu bilan kuyning xarakte[illegible] ochiladi.

Aniq ritmni tarbiyalash har bir o'quvchida har xil kecha[illegible] Shuning uchun sanab chalish, fortepiano jo'rligida ijro et[illegible] ansambl ijrochiligining turli ko'rinishlarida (duet, treo, kvarte[illegible]



foydalanish, doira jo'rligida maxsus kuylar o'rganish o'zining yaxshi samarasini beradi. Bu esa o'quvchilarning ijrochilik malakalarini shakllanishiga xizmat qiluvchi omillardan sanaladi.

Tremolo shtrixi ayniqsa rang-barangdir. Bundan tashqari bu shtrixning xarakterini ochishda faqat o'ng qo'lning tekis harakati bilan emas, balki chap qo'l barmoqlarining harakatlari, ularning bir pardadan ikkinchi pardaga silliq o'tishi yoki sirg'alishlari, shu bilan birga torni har xil me'yorda to'lqinlata olishi bilan erishiladi.

Birgina o'zbek musiqasining o'zida tremoloning bir necha turini ko'rishimiz mumkin. Buxoro – Samarqand yo'nalishida yaratilgan kuylar ijrosidagi tremoloda uzliksizlik, jo'shqinlik va tremolo bilan har xil ritmik ko'rinishlar ijrosini ko'rsak, Farg'ona – Toshkent ijro yo'llaridagi kuylarda bir muncha tekis, tiniq jarangdor tremololarni ko'rishimiz mumkin. Kompozitorlar ijodidagi asarlarning badiiy badiiy xarakteridan kelib chiqib, mayinlik bilan ijro etilgan tremolo g'amgin, ma'yus, o'ychanlik kabi taassurotlarni qoldirsa boshqa bir asarda xuddi shu tremolo bilan tinglovchiga orom baxsh etadigan, ruhan xotirjamlikka olib keladigan taassurot qoldiradi. Bunda albatta ijrochining malakasi alahida o'rin tutadi.

Ayrim asarlarda esa kompozitor aniq bir belgi bilan belgilamagan joylarda musiqiy jumlalarni ritmdan chiqmagan holda tempini orqaga tortish, xuddi kechikib tushayotgandek ijro etish yoki aksincha, tempdan tezlab ketmagan holda ichki bir harakat bilan chalish usullari mavjud bo'lib, bular ijrochidan yetarlicha malakani talab etadi. Bunday usullarni amalga oshirish ijrochining mazkur asar badiiy mohiyatini qanchalik teran anglaganidan va ijro malaksining shakllanganligidan kelib chiqadi. Bu esa sozandaning fortepiani, ansambl yoki orkestr jo'rligidagi ijrosida kuyni yanada mukammal va to'liq eshitilishini ta'minlaydi.

Shashmaqomning nasr bo'limidagi asarlarni hamda bastakorlarning mumtoz ashulalarning cholg'u sozlarida xususan qashqar rubobida ijro etganda bu asarlarning ashula yo'lini yoki so'zlarini yaxshi bilish yoki o'rganish qashqar rubobi ijrochiligi

badiiy xususiyatlarini to'g'ri qo'llashga va asarning badiiy qimma saqlagan holda jaranglashiga olib keladi. Chunki ashula yo'li musiqiy jumlalar so'z bo'g'inlari bilan chambarchas bog'liqligi bi ajralib turadi.

Yuqorida ko'rganimizdek har bir jaranglaydigan tovush shtrixlarning juda ham turfa xillarini ko'rishimiz mumkin. Ularni ayrimlarinigina qisman ko'rib chiqdik. Ularni har bir o'quvchi ijro malaklarida qo'llay olishi ansambl chog'ida asarni yanada gu yangrashiga xizmat qiladi. Shtrixlani rang-barang qilib chalish, as xarakteriga mos ravishda ularga jilo berib, kerakli obrazni ho qilish o'ng qo'lning mediatorni boshqarishiga va chap qo'lning to qanchalik yaxshi sezishiga hamda har ikkala qo'lning bir-biri mutanosib harakatlariga bog'liq. Bunday malakali ijrochi o'quvchi ansamblda asar mazmunini ochi berishga xizmat qiladi.

Masalan xalq cholg'u ansamblini tashkil qilishda va ular bil ishlashda ijrochilarning ijro malakalari yetarlicha bo'lishi kera Shundagina ansamblning saviyasi yuqori darajada bo'ladi. Bun eng avvalo, har bir ishtirokchining qaysi cholg'u asboblari o'rganish uchun malaka, ishtiyoqlari borligi aniqlana Mashg'ulotlar jarayonida muntazam ravishda nota yozuvi chiziqlarda joylanishi, notalarning cho'zimlari, dinamik belgilari pauzalar haqida umumiy ma'lumot berilib boriladi. Har b ichrochiga cholg'u asboblarining tuzulishi, sozlanishi, qo'llanilis va sozlanishi haqida tegishli ma'lumotlar beriladi.

Cholg'uchilar ijro etayotganida bir-birlarini yaxshi tingl olishlari va tovushlar tarovati hamohang bo'lishi maqsadi cholg'ular joylashuviga binoan sahnada quyidagi tartibda joylasha doira, nay, g'ijjak, qo'shnay, qonun, rubob, ud, dutor, tanbur hokazo.

**Savollar va topshiriqlar.**

1. Rubob qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?
2. Rubob cholg'usining sozlanishi?
3. Rubobning tuzilishi haqida gapirib bering?



4. Afg'on rubobi va Qashqar ruboblarining farqi haqida ma'lumot to'plash.
5. Rubobchilar to'garagi qanday tashkil etiladi?

## 8- Mavzu. Raqs to'garagini tashkil etish va olib borish.

**Reja:**

1. **O'zbek raqs san'ati haqida.**
2. **Raqs to'garagini tashkil etish va olib borish**
3. **Raqs to'garagi taxminiy ish rejasi.**

**Tayanch iboralar:** *raqs to'garagi, o'zbek raqs san'ati, raqs to'garagi rahbari.*

### 8.1.O'zbek raqs san'ati haqida.

Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rin tutuvchi bir yo'nalishdir. Raqs san'ati - ijod ruhiyatini, his-tuyg'ularni, fikrni so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir. «Raqs - o'zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq; Ko'ngildagi bor-yo'g'ingni ko'zlarga, harakatlarga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoq; Istaklaringni bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo'lmoq». Bunday buyuk tuyg'u mukammal raqs qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarning yuragida bo'ladi. «Xoreografiya» - o'zi nima? Bu so'z zamirida nima yotibdi? U grekcha so'zdan olingan bo'lib, «choreia» - o'yin, «grapho» - yozaman, ya'ni so'zma-so'z taijima qilinganda «Raqsni yozaman», degan ma'noni bildiradi. Ko'pchilik esa xoreografiyani raqs deb tushunadi. Lekin xoreografiya so'zi keng ma'noni o'z ichiga oladi. Fan sifatida rivojlanib bu atama ikki turda tavsiflandi: l.Raqs ijrochiligi - professional raqs ijrochiligi, xalq ijodiyoti negizidagi havaskorlik raqs ijrochiligi. Professional raqs ansambllarining davlat va xususiy ansambllari mavjud. «Bahor» (1957-yil), «Shodlik»

(1968-yil), «Lazgi» (1968-yil) ansambllari ilk tashkil qiling professional raqs ansambllaridan hisoblanadi. 1990-yillar «Tanovar», «Ofarin», «Toshkent zebolari», «Sabo», "Tum «Parizoda» va shu kabi xususiy raqs ansambllari paydo boldi. U shu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim tizimida o'qib fundamental bilim ega bolgan mutaxassislar ishga qabul qilinadilar. Bunday ansambl qatoriga Farg'onadagi «Anor», Surxondaryodagi «Surxon gullar «Zevari», «Quralay», Namangandagi «Namangan gullari», Jizzaxni «Gulira'no», Sirdaryoning «Sirdaryo navolari» kabi ansambl nomini keltirishimiz mumkin[4].

### 8.2. Raqs to'garagini tashkil etish va olib borish

Maktabdan va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotl jarayonida o'quvchilarga raqs to'garagi haqida ham ma'lumot berib borish tavsiya etiladi. Raqs to'garagini tashkil etish uch rahbar oldindan belgilab sog'lom va raqsga qiziqadig o'quvchilarni jalb qilishi zarur. Bunda to'garak a'zolari musiq idrok eta olish qobiliyatlari bo'lishi shart va ularda musiq tinglash, to'g'ri qabul qilish malakalari bo'lishi zarur.

Raqs o'quvchilarning jismoniy chiniqtirishda va sog'l o'sishida roli juda kattadir. To'garaklarni tuzish va tashkil etish rahba (baletmeystr) avvalambor maktab mamuriyatid mashg'ulotlarni qaysi xonada o'tkazilishi va vaqtini aniq belgil olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, o'quvchilarni ba'zilari ertalab o'qiydilar ba'zilari esa, tushdan keyin makt darslarini o'qishga kiradilar. Shu sababdan to'garakning rejasi o'tkazish joyi hamda vaqti aniq ko'rsatilishi lozim.

Raqs to'garagiga maktabda o'qiydigan, yoshidan jinsidan qat nazar qiz va o'g'il bolalar qabul qilinadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari raqs to'garagi tashkil qilish uning repertuarlari ustida ishlash jarayoni ham murakk uslublardan hisoblanadi. Bu tadbir nihoyatda keng tarqalgan badi

[4] Xoreografiya va raqs san'ati asoslari (E.Saitova, N.Abraykulova). -T. 2015



- tarbiyaviy ish shakllaridan biridir. Bu raqs ansambli qatnashchilariga o'rganilayotgan asarning g'oyaviy - badiiy mazmunini chuqurroq tushunishga va uning uslubini ilg'ab olishga yordam beradi.

Suhbatni ansambl rahbari o'tkazishi kerak. Unda raqs asarining mazmuni, u yaratilgan davr va uning muallifi haqidagi asosiy ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, repertuar bilan bog'liq. bo'lgan suhbatlarda estetika, san'at, musiqa va raqs ijrochilik tarixiga oid ayrim muammolar ham yoritilishi mumkin.

Raqs mashg'ulotlari to'garagiga kiritilgan kuylar va musiqiy asarlar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda vatanga muhabbat, do'stga sodiqlik, o'zida jismoniy baquvvatlilikni talab qiladi.

Raqs to'garagi mashg'ulotlariga quyidagi repertuarlarni kiritish mumkin:

«Yalama yorim», «Xorazm lazgisi», «Andijon polkasi», «Tanovvor», «Munojot», «guruhli raqs», «Xalqlar do'stligi», «Olamda gullar yashar», «O'zbekiston», «Bahor tongi sadosi», «Namanganning olmasi», «Lola sayli», «Chavondozlar», «Shodlik», «Orazibon», «Mavrigi», «Buxorocha», «Bahor valsi», «Doira o'yini», «Shodiyona» boshqalar.

Raqs to'garagi mashg'ulotlariga eng birinchi doira jo'r bo'ladi, shuning uchun ham rahbar o'quvchilarga doira usullari to'g'risida tushuncha berishi ıaqsadga muvofiqdir.

Usul - o'zbek xalq musiqasining eng muhim ifodaviy vositasi bo'lib, u zarbli cholg'ular (doira, nog'ora, qayroq, safoil va boshqa) da ijro etiladi. Shu boisdan usul zarbli cholg'ularda ijro etiladigan muayyan o'zgarmas ritm tuzilmalaridir.

Usullar vositasida qo'shiqlarga, cholg'u kuyi, raqs kuylari va raqslarga jo'r bo'linadi. Usul, odatda, ikki tovush asosiga qurilgan bo'ladi. Bular «bak» va «bum» deb ataladilar. «Bak» tovushi deyarli baland bo'lib, u doyraning gardishi (chetki qismi) tomon zarb berilishidan hosil bo'lsa, «bum» tovushi doyraning o'rta qismiga

zarb tovushidan yuzaga keladi va u «bak» tovushiga nisbatan k (past) tovush hisoblanadi. Usullarni notalar vositasida ham yo mumkin. Buning uchun bir chiziqli nota yozuv tizimi foydalaniladi. Bunda «bak» tovushi chiziqning ustiga, «bum» chiziqning ostiga nota bilan yozib qo'yiladi.



***9-rasm. Raqs to'garagi a'zolari.***

Mashhur raqqosalar to'g'risida gapiradigan bo'ls Mukarrama Turg'unboyeva, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismato Malika Axmedova, Malika Qalantarova, Qizlarx Do'stmuxammedova, Feruza Solixova, Ro'shana Sultonova boshqalarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

### *Raqs o'lchovlari va templari ustida ishlash*

Raqs to'garaklarida qo'llaniladigan o'lchovlar har xil bo'lib, ula 2/4, 3/4, 4/4, 3/8, 6/8, 7/8, 12/8 o'lchovlarida ham yoziladi. Bu o'lchovlarning templari ohista, mo'tadil, quvnoq, jozibali, tez va o't chaqqon suratlarda ijro etiladi.

Har bir raqsni o'rgatish usul va uslublari o'ziga xos xususiyat ega bo'lib, baletmeystrdan yuksak mahorat talab qiladi.



### 8.3. Raqs to'garagi taxminiy ish rejasi

| T/r | Mashg'ulot mavzulari | Amaliy | Nazariy |
|---|---|---|---|
| 1 | Musiqa haqida ma'lumot berish. | | |
| 2 | Raqs san'ati haqida ma'lumot berish. | | |
| 3 | Raqs turlari. | | |
| 4 | Ritm haqida tushuncha berish va unga mos harakatlar bajarish | | |
| 5 | O'zbek xalq raslari | | |
| 6 | Dunyo raqs san'ati | | |
| 7 | Milliy raqs | | |
| 8 | Yakkaxon raqs | | |
| 9 | Raqs elementlari | | |
| 10 | Raqs harakatlari ohangga mos raqs tushish | | |
| 11 | Ohangga mos raqs tushish | | |
| 12 | Harakatlar ustida ishlash | | |
| 13 | Asarni badiiy his etib raqs tushish | | |
| 14 | Asarni mazmunini harakatlar orqali tasvirlab berish | | |
| 15 | O'zbek raqs san'atini rivojiga hissa qo'shgan mashhur san'atkorlar | | |
| 16 | Mashhur raqqosalar haqida tushuncha berish | | |
| 17 | Maktab tadbirlarida raqs namoyish etish madaniyati | | |
| 18 | Zamonaviy raqs turlari | | |
| 19 | Farg'ona raqs san'ati | | |
| 20 | Xorazm raqs san'ati | | |
| 21 | "Lazgi" raqsini sahnalashtirish va ustida ishlash | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 22 | "Tanovor" raqsi ustida ishlash | | |
| 23 | Buxora raqs san'ati | | |
| 24 | Samarqand raqs san'ati | | |
| 39 | O'tilgan asarlarni mustahkamlash | | |
| 40 | Takrorlash | | |
| | **Jami:** | | |

Savollar va topshiriqlar.

1. O'zbek raqs san'ati haqida gapirib bering?
2. Raqs to'garagi qanday tashkil etiladi va olib boriladi?
3. Raqs to'garagi ish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor beri kerak?
4. Qanday raqs turlarini bilasiz?
5. Maktab tadbirlarini o'tkazishda raqs to'garaginig ahamiya nimada?
6. Raqs to'garagi rahbarining vazifalari nimalardan iborat?

**9-Mavzu. Xor ijrochiligi to'garagini tashkil etish va olib borish**

**Reja:**

1. **O'zbekistonda bolalar xori ravnaqi.**
2. **Xor bilan ishlash metodikasi.**
3. **Havaskor xor to'garagini tashkil etish.**

**Tayanch iboralar:** **xor san'ati, xor** *to'garagi, bolalar xor xorning turlari, ovozlar, xor to'garaklarini tashkil etish.*

**9.1. O'zbekistonda bolalar xori ravnaqi.**

Bugungi kunda xalqning ma'naviy madaniyatini rivojlantiris va mustahkamlash ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xal an'analarini va qadimgi bayramlarni tiklash, yangi bayramlarni jor etish, xalqaro («Sharq taronalari» va boshqa) musiqa festival anjumanlarini tashkil etish - bularning hammasi musiqa, sh



jumladan, xor madaniyati sohasida yangi shakllarni izlab topish faoliyatini jadallashtirishni talab etmoqda. Respublikamizdagi ijodiy kuchlarning yuksalishi bolalar ijodi sohasida ham o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga, bu sohada erishilgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, bolalar xor san'ati faol targ'ibotchisi, O'zbekiston xalq artisti, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi, O'zbekiston teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xorining badiiy rahbari va bosh dirijori Sh. Yormatovning qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. Respublika bolalar xor san'atidagi ko'pgina ijodiy tashabbuslar uning nomi bilan bog'liqdir. U doimo xor madaniyati rivojlanishida yangi yo'llarni izlab topmoqda. Konservatoriyada o'qish davrida Sh. Yormatov Respublika bolalar va o'smirlar saroyi qoshida bolalar xorini tashkil etdi. Konservatoriyani tugatgandan so'ng Sh.Yormatov o'sha maktabning o'zida, xor to'garagi rahbari va musiqa o'qituvchisi sifatida ishini davom ettirdi. Sh.Yormatovning tolmas tashkilotchilik faoliyati, undagi ishtiyoq, bolalarga bo'lgan muhabbat yuqori darajadaligi, kasbiy mahorati qisqa muddat ichida unga xorning ijrochilik saviyasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish imkonini berdi. O'zining ijodiy yo'lini topib olgan ushbu xor jamoasi endi xor musiqasi ishqibozlari, barcha musiqa shinavandalari orasida shuhrat qozonib, turli respublika va chet el ko'rik-tanlovlarida qatnashchisi va sovrindor bo'lmoqda, shuningdek, mamlakatimizda o'tkaziladigan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etmoqda. Bular respublikamizda xor studiyalarining tarkibiy qismi sifatida ilk bor tashkil qilingan xor sinflaridan edi. Bularning hammasi xor mashg'ulotlarining faollashuvi va samaradorligiga asos bo'ldi. Aynan shu davrda Sh.Yormatov maktabda o'zini barqaror va o'ziga xos jamoa sifatida ko'rsatgan o'g'il bolalar xor guruhini ham tashkil etdi. Uning o'ziga xosligi, birinchi navbatda, akademik va o'zbek milliy qo'shiqchiligi an'analarini o'zida mujassam etgan yangi ijrochilik yo'nalishida namoyon bo'ldi. O'ziga xos bolalar xor jamoasining

konsert faoliyati tez orada uni mashhur qildi va o'zbek o'g bolalarini xor ijrochiligiga jalb etishda katta ahamiyat kasb et Shunday qilib, 1970- yillarning o'rtasida Toshkent shahar 9 maktabida «Boychechak» katta xor guruhi, o'g'il bolalar xori, qiz vokal ansambliga asos solindi. Yil sayin xor jamoalarining ijrochi mahorati yuksalib bordi, dasturlari kengayib, konsert chiqishla ko'paydi. Maktabning ikkala xor jamoasi «Do, re, mi, fa, so «Kuylang, bolalar», «Birga kuylaymiz», «San'at g'unchalari» ka bolalar televizion dasturlariga jalb etildi. «Boychechak» xor jamoa O'zbekiston bo'ylab gastrolda bo'ldi, Finlandiya, Bolgariya x jamoalarining festival-tanlovlarida, bir necha marta Estoniya bo'lgan qo'shiq bayramlarida qanashdi. 1970-yilda «Boychechak xor studiyaga aylanib, «Respublikaning namunali bolalar x jamoasi» unvoniga sazovor bo'ldi. Gastrol faoliyati kengligi tufay uning boy va rang-barang (jahon mumtoz asarlari, O'zbekisto kompozitorlari xor asarlaridan iborat bo'lgan) dasturlaridan tu xalq qo'shiqlari ham o'rin oldi. Afsuski, bolalar saroyida sharoitning yetishmovchiligi sababli o'g'il bolalar xor jamoasi 198 yillarda tarqalib ketdi. O'zbekiston kompozitorlarining bolalar x musiqasi sohasidagi faol ijodi, har xil ko'rik-tanlov va festiv qo'shiq bayramlarining o'tkazilishi tufayli 1970-yilda O'zbekisto Davlat teleradioqo'mitasi qoshida Sh. Yormatov boshchiligi bolalar xor jamoasi tashkil qilingan edi. Bugungi kunga kelib, b jamoa O'zbekiston teleradiokompaniyasining respublikamizdagi e mashhur «Bulbulcha» bolalar xoriga aylandi. Bolalar xorini jarangdor, zavq-u shavqqa to'la san'ati barcha xor musiqa muxlislariga ma'lumdir. Repertuardagi asarlarning ijrosi yuks mahorati, musiqaviyligi, jonliligi, samimiyligi bilan ajralib tura Shuni ta'kidlash lozimki, bu jamoa mashhur xor jamoalari (Rossi markaziy televideniya va radiosi qoshidagi katta bolalar xo «Pioneriya» xor stu- diyasi) tajribalariga ijodiy suyanib, xo ijrochilarini tayyorlash va tarbiyalashning o'ziga xos qoidalari



asos soldi. Hozirda jamoa tarkibida 600 ga yaqin bola bo'lib, u o'zining quyidagi tuzilmasiga ega:



***10-rasm. "Bulbulcha" xor jamoasi.***

- maktabgacha bo'lgan bolalar guruhi;
- kichik xor guruhi;
- o'rta xor guruhi;
- o'g'il bolalar xor guruhi;
- yoshlar xor guruhi;
- folklor xor guruhi.

Xor jamoasi rahbari Sh.Yormatov keyinchalik o'zining maslakdoshlariga aylangan, «Bulbulcha» xorida vokal maktabini o'tgan xor dirijorlari (ularning deyarli barchasi konservatoriya bitiruvchilari)ni taklif etdi. Bular S.Olimov, A.Nesterova, I.Ro'ziyev, N.Ibrohimova, G.Mansurova, D.Sobirova, N.Mirzayeva va boshqalardir.

### 9.2. Havaskor xor to'garagini tashkil etish

Havaskorlik xori faoliyatining tashkiliy asoslari, havaskorlik xorining vazifalari, hozirgi davrda havaskorlik xorining faoliyati quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: 1.Keng xalq ommasini g'oyaviy va estetik tarbiyalash; 2.Xor jamoasi qatnashchilarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va ularning madaniy-estetik saviyalarini

oshirish; 3.Xor ishtirokchilariga musiqa ma'lumotini beri
4.Havaskor artistlarni badiiy ijro mahoratiga jalb qilish; ularni konsert ijrochilik faoliyatini tashkil qilish. Xor har bir a'zosi jam oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun f bo'lishi kerak. Xor a'zolarining ma'naviy ehtiyojlarini qondiri havaskorlik xorlarining muhim vazifalaridan hisoblana Havaskorlik xorlarining yana bir muhim ahamiyati shundaki, u keng konsert chiqishlari, konsert-leksiya, konsert-suhbat, har uchrashuvlar o'tkazish yo'li bilan diyorimizda xalq qo'shiqla vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar, klassik asarlarni targ'ib qil o'ziga xos madaniy-oqartuv ishlarini olib boradilar. Havaskor xorini tashkil qilish, asosan, ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr havaskorlik xori jamoasini tashkil qilish uchun bajariladigan barc tayyorgarlik ishlari kiradi. Ikkinchi davrga rahbarning xor bil birinchi uchrashuvi, xonandalarning vokal, musiqiy qobiliyatlari tekshirish va ovozlarni aniqlay borish, xor partiyalarini butla ishlari kiradi. Mana shu ishlarning hammasi xor tuzilishini tashkiliy davri hisoblanadi. Xor rahbari o'z atrofidagi faollar bil xor tashkil qilish uchun keng targ'ibot ishlari olib bormog'i lozim. ishda barcha targ'ibot vositalaridan keng foydalaniladi. Bo'lajak x a'zolari bilan bo'ladigan birinchi uchrashuvga jiddiy qarash, pux tayyorgarlik ko'rish lozim. Agar birinchi yig'ilish yomon tashk qilinsa, bu ish qo'shiq-xor ijrochiligini sevuvchilarga salbiy ta's qilishi mumkin. Xor rahbari mahalliy sharoit bilan, shu yerni qo'shiqchilik an'analari bilan yaxshi tanishgan va yuqorida ko'rsatmalarga amal qilgan holda xor tuzishga kirishadi. Shunda keyin ikkinchi tashkiliy davr rahbarning xor a'zolari bilan birinc rosmana uchrashuvidan boshlanadi. Puxta tayyorgarlik ko'ril o'tkaziladigan birinchi tashkiliy mashg'ulotda xodimlardan bi yig'ilgan kishilarga xor rahbarini tanishtiradi. Shundan so'ng x rahbari oldinga qo'yilgan vazifalar haqida, xor qo'shiq san'ati haqid gapirib beradi. To'garak a'zolarini yangi qo'shiqlar bilan tanishtira va tanish qo'shiqlardan bir ikkitasini aytib beradi, xonandalarni ha



tanish qo'shiqni birgalashib aytishga taklif qiladi. Ilk bor qo'shiq aytish ishtiyoqida kelgan shaxslar mashg'ulot mazmunidan yaxshi taassurot olishlari kerak. Birinchi mashg'ulotda to'garak a'zolariga xor tuzish uchun har bir xonandani eshitib ko'rish, ularning ovoz xarakterini, qaysi partiyaga mansubligini aniqlash zarurligi tushuntiriladi. Shuningdek, xonandalar bilan maslahatlashib, mashg'ulotlarning aniq kunlari va vaqtlari belgilanadi. Shunday qilib, xor rahbari birinchi darsda xor qatnashchilari bilan qisman tanishadi, ularni ro'yxatga oladi. Xor jamoasining tashkiliy davrida xonandalarni xorga tezroq ko'proq jalb qilish uchun rahbar birinchi tashkiliy kundan boshlab o'zining butun pedagogik mahoratini ishga solishi va mash- g'ulotlarni qiziqarli o'tkazishi zarur. Ma'lumki, musiqaga butunlay o'quvsiz kishilar juda ham kam uchraydi. Shuningdek, radio, televideniye kishilarning eshitish qobiliyatiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Xorda o'z-o'zini boshqarish organlarini saylash muddati biroz cho'ziladi va bu ish xonandalar bir- birlari bilan birmuncha tanishganlaridan so'ng amalga oshiriladi. Keyingi mashg'ulotlar davomida xor qatnashuvchilari orasida faol, yaxshi musiqiy qobiliyati bor kishilar ma'lum bo'la boshlaydi. Shular orasidan xor boshlig'i saylanadi. Bundan tashqari, xor jamoasiga kotib va kutubxonachi ham tayinlanadi. Kotib jamoa faoliyatiga taalluqli hujjatlarni yig'ib yuradi va saqlaydi. Kutubxonachi esa nota materiallarini saqlaydi. Mashg'ulot vaqtida xonandalarga nota partiyalarini tarqatadi va yig'ib oladi. Shunday qilib, asta-sekin havaskor jamoa o'z-o'zini boshqarish tamoyiliga asoslanib ish olib borishga o'rganadi.

## 9.3. Xor bilan ishlash metodikasi

Xonandalarning ovoz va musiqa qobiliyatlarini aniqlash. Xorga musiqa qobiliyati bor, ya'ni musiqaviy xotiraga, eshitish qobiliyatiga, ritmga va shirali ovozga ega bo'lgan kishilar qabul qilinadi. Musiqa eshitish qobiliyati yaxshi rivojlanmagan, ammo o'rtamiyona ovozga ega bo'lgan kishilarni xorga qabul qilish mumkin. Bunday kishilar

xorda ishtirok etishni, qo'shiq aytishni astoydil xohlaydilar va u bilan yaxshi ish olib borilsa, asta-sekin ularning eshitish qobiliya va ovozi rivojlana boradi. Shunday qilib, xonandalarga xorda qo'sh aytishni o'rgatishga kirishishdan oldin, albatta, dastlab mashg'ulotlarda ularning ovozlarini sinovdan o'tkazish zarur. Bun xonanda ovozining:

- xorga loyiq va noloyiqligi;
- qaysi partiyaga mansubligi;
- tembri;
- diapazoni;
- chidamlilik darajasi aniqlanadi.

Shuningdek,xonandaning

- vokal tayyorgarligi;
- intonatsiyaning tozaligi;
- musiqiy xotirasi;
- nutq;
- ritmni sezish qobiliyati;
- musiqiyligi;
- notani o'qiy olish kabi muhim tomonlarini tekshirib ko'ris foydali va maqsadga muvofiqdir. Shuni ham aytish kerak xonandaning yuqorida aytilgan ovoz xususiyatlarini va uni umumiy musiqiy qobiliyatlarini darhol aniqlash oson emas. Ag professional xorlarda bu xususiyatlarning aksariyatini xonanda xorga qabul qilishdan oldin aniqlash talab qilinsa, havaskor xorlarida ovozni aniqlash ish jarayonida asta-sekin bajarila Ovozni tekshirish va aniqlash uchun har xil usullar va mashqla qo'llaniladi. Masalan, professor A.Yegorov o'z tajribasiga tayang holda quyidagi maslahatlarni beradi:

1. Major va minor uch tovushli ovozlarini alohida-alohi ayttirish.

2. Major va minor gammasining tovushlarini alohida-alohi ayttirish. A.Yegorov bu ikki mashqni o'rta registrlardan boshla



avval yuqoridan pastga, keyin pastdan yuqoriga xromatik tartibda ovoz diapazoniga qarab bajarishni taklif qiladi.

3. Ikki va uch tovush oralig'ini xromatik tartibda kuylash.

4. Har xil intervallar yoki kuyning kichik-kichik bo'laklarini fortepianoda chalib berish va qaytarish. Uchinchi va to'rtinchi bandlardagi maslahatlarga ko'ra xonandaning intervallarni qanchalik sof talaffuz eta olish ko'nikmasiga egaligi aniqlanishi uqtiriladi.

Shundan keyin notani solfedjio qilish qobiliyati tekshirilishi, bunda musiqa adabiyotidan biror vokal yoki xor asarining bo'lakchasini matni bilan kuylash orqali xonanda ovozining xorga yaroqliligi aniqlanadi. Individual tekshirish tugagach, bir jinsli ovozlarning bir nechtasini birga qo'shib, o'rta registrda, yaxshisi, bir notadan ma'lum bir bo'g'inni yoki biror unli tovushni cho'zish orqali tekshirish mumkin. Bu holda har xil tembrli ovozlar yaxshi eshitiladi. Sekin-asta ovoz partiyasining ichida bir ovozni ikkinchi ovozga yaqinlashtira borib, ovozlarga deyarli qo'shiladigan guruhlar barpo qilish va xor partiyasini tuzish mumkin. Bu uslub har bir xonandaga bir - birining ovozini eshita bilish imkonini beradi. Havaskorlik xorlarida chiroyli tembrli va o'ta katta diapazonli ovozlar kam uchraydi. Umuman, havaskorlik xorlarida qatnashishni xohlovchilar ozmi - ko'pmi o'zlaricha ashula aytib yurgan va aytishni xohlovchi, lekin umuman ashula aytmagan kishilar bo'ladi. Bunday kishilarning ovozi va musiqa eshitish qobiliyati hali rivojlanmagan bo'ladi. Xor rahbari ishni, avvalo, xonandalarning ovozi bor-yo'qligini, individual sifatlarini va musiqiy qobiliyatini aniqlashdan boshlashi kerak. Buning uchun, dastavval, ovozning primar tovushlarini, ya'ni zo'riqmasdan, bemalol jaranglovchi tovushlarni eshitib ko'rish kerak. Boshlang'ich mashg'ulotlarda butun jamoa bilan ularga tanish va yaqin bo'lgan qo'shiqlardan ikki uchtasini bir ovozdan aytish mumkin. Masalan, «Yallama yorim», «Yor-yor» va hokazo. Mashg'ulotlarda xor qatnashuvchilari bir-birlariga ancha o'rganib olishadi. Shu davrda xor rahbari uchun qatnashuvchilar

bilan erkin suhbatlashish imkoniyati tug'iladi. Masalan: erkakla uchun kichik oktavada, ayollar uchun birinchi oktavada major gammasidan birorta tovushni eshitib, xonandadan ovoz bilan takrorlash hamda tanish ashulani aytib berish so'raladi. U ashulani aytib bergach, shu kuy boshqa tonlikda ayttiriladi. Agar xonanda yangi tonlikka moslashib ayta olsa, rahbar uning musiqiy qobiliyatini, xotirasini va boshqa tomonlarini aniqlab oladi. Shundan so'ng xor rahbari xonandaga ma'lum tovushni eshittirib, uni takrorlashni yoki uncha qiyin bo'lmagan mashqlarni eshittirib, ularni ovoz bilan takrorlashni so'raydi. Mashqlar pastki yoki o'rta registr notalaridan boshlab yuqoriga qarab, keyin esa pastga tushiladi. Natijada, ovozning yuqori va pastki chegaralari, ya'ni diapazoni aniqlanadi. Buning uchun major uch tovushliklaridan foydalanish mumkin. Bu tekshirish jarayonida rahbar xonanda ovozidagi soxtalik, musiqa eshitish qobiliyati yetarli rivojlanmaganligi, xotiraning yomonligi, nafasning noto'g'riligi kabi sabablar natijasida paydo bo'lishini anglab oladi. Ba'zi xonandalar berilgan tonga darhol tusha olmaydilar, lekin kvarta yoki kvinta oralig'ida joylashgan ikkinchi tovushga tusha oladilar. Ular faqat «oberton» tovushlarni eshitish yo'li bilan ikkinchi tovushga tushadilar. Bunday kvarta-kvintaviy eshitish va uni ovoz bilan qaytarish «oberton - eshitish qobiliyati» deb ham nomlanadi. Bunday xonandalarning biron bir musiqa asbobida hosil qilingan tovushni qaytara olmasalar-da, lekin ovoz bilan berilgan tovushni bemalol takrorlay oladilar. Shuni ham aytish kerakki, musiqa asbobi ham eshitish qobiliyatini o'stiradi, yaxshi eshitishga yordam beradi. Shunday qilib, ovoz, avvalo, uning tembriga, keyin esa diapazoniga qarab aniqlanadi. Tekshirish paytida ovoz diapazoni kichik bo'lsa ham, undan xavotirlanmaslik kerak, balki mashqlar natijasida ovoz diapazonini kengaytirib borish zarur. Ba'zida kishilar o'zlariga xos bo'lmagan ovoz bilan qo'shiq aytib yuradilar. Ular, asosan, ko'krak registrda, kichik oktava «sol», «lya» va birinchi oktava «lya», «si»da kuylashga o'rganib qolgan bo'ladilar. Agar shu ovoz bilan balandroq



notalarda kuylatilsa, u bemalol yuqori notalarni oladi. Shu bilan u alt emas, soprano yoki bariton emas, balki tenor ekanligi aniqlanadi. Bu hol, ko'pincha, ayollarda uchraydi. Xonandaning ritmik sezgisini aniqlash uchun quyidagi har xil ritmik usullardan foydalanish mumkin. Xonandaning musiqiy xotirasini aniqlash uchun kichik kuy, alohida jumlalardan iborat mashqlardan foydalanish mumkin. Kichik bir kuy xonandaga chalib eshittiriladi, keyin esa uni takrorlash so'raladi. Agar xonanda kuyni aniq takrorlasa, kuyni o'zgartirib, qayta chalinadi. Xonanda kuyni bir eshitgandayoq ilg'ab ololmasa, uni ikki va hatto uch marta chalib eshittirish kerak. Xonandaning sof va aniq intonatsiya qilishiga qarab, uning musiqa xotirasini baholash mumkin. Xonandalarning ovozini tekshirib bo'lgach, yuqorida aytib o'tilganidek, alohida jurnal yoki daftarga har bir ovoz haqidagi to'liq ma'lumot taxminan quyidagicha yoziladi:

Xor rahbari - xor jamoasi ijodiy faoliyatining tashkilotchisidir. Havaskorlik xori rahbari qobiliyatli, bilimdon mutaxassis bo'lishi bilan birga, mahoratli pedagog-tarbiyachi ham bo'lishi shart. Xor rahbarining tashkilotchilik mahorati g'oyat muhim ahamiyatga ega. Rahbarning jonkuyarlik bilan, rejali ish olib borishi jamoaning oyoqqa turish davrini tezlashtiradi. Rahbarning xorda psixologik va ijodiy muhitni barpo qila olishi ish jarayonida muvaf- faqiyatga erishish garovidir. Jamoani boshqarish ma'lum talablar, nazorat va ijodiy intizom bilan bog'liq. Bu ishlarning hammasi rahbarning jamoa oldidagi obro'siga ham bog'liq bo'ladi. Rahbar jamoaning ijodiy ishini aniq va unumli olib borishi, ijodiy rejalarni oldindan belgilay bilishi va ularning pishiq-puxta bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rishi kerak. Xor jamoasini boshqarish - bu avvalo, havaskor xonandalarga estetik-axloqiy kamolotlarini oshirish maqsadida ta'sir qilish jarayoni hisoblanadi. Ijodiy muhit rahbar va jamoaning o'zaro hamkorligida yaratiladi, albatta. Lekin havaskorlik mashg'ulotlari kamolot sari eltuvchi yo'l bo'libgina qolmay, ayni paytda keng ma'noda tashkiliy-tarbiyaviy saboq hamdir. Ijodiy ishni, intizomni yo'lga qo'yishda, oldinga qo'yilgan maqsadga erishishda

rahbarning mustahkam irodasi va talabchanligi muhim rol o'ynaydi. U xor qatnashchilarining xarakterini bilishi, ular bilan munosabatda bo'lganda individual yo'l tutishi, oldinga qo'yilgan vazifani bajarishda hammaga bir xil talab qo'yishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy havaskorlikning asosiy vazifalari insonlarning badiiy didini oshirish, g'oyaviy-siyosiy ongini o'stirish va ularni ilg'or madaniyatli kishilar darajasiga ko'tarish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Havaskorlik xorida olib boriladigan g'oyaviy tarbiyaviy ishlar xor qatnashchilarini siyosiy, madaniy jihatdan boyitadi. Havaskorlik xorida g'oyaviy-siyosiy, tarbiyaviy ishlar shu jamoaning kundalik madaniy-ijtimoiy hayoti bilan bog'langan holda olib borilsa, yanada yaxshi samaralar beradi. Xonandalarni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash maqsadida har xil mavzudagi ma'ruzalar, leksiyalar va suhbatlar tashkil qilinadi. Ma'lum bir mavzuda ma'ruza o'tkazish uchun tajribali o'qituvchi jalb qilinadi. Ma'ruzani qaysi mavzuda o'tkazish kerakligi oldindan maslahatlashib olinadi. Albatta, bu tadbir xorning umumiy g'oyaviy-badiiy, tarbiyaviy ishlari rejasidan kelib chiqib o'tkaziladi.

Savolar va topshiriqlar.

1. Xor san'ati haqida tushuncha being?
2. Xorning turlarini bilasizmi?
3. O'zbekistonda bolalar xorining rivojlanishi haqida gapirib bering?
4. Xor bilan ishlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Havaskor xor to'garagi qanday tashkil etiladi?



## 10-Mavzu. Milliy bayramlarni tashkil etish va o'tkazish mazmuni

**Reja:**

1. **Milliy bayramlarni tashkil etish mazmuni.**
2. **O'zbek xalq musiqa ijodiyoti va ularning tarbiyaviy ahamiyati.**

***Tayanch iboralar:*** *Milliy bayramlar, umumta'lim maktablarida milliy bayramlarni tashkil etish, bayram-tadbibrlarda o'zbek xalq musiqa ijodlaridan foydalanish, xalq musiqa ijodining tarbiyaviy ahamiyati.*

### 10.1. Milliy bayramlarni tashkil etish mazmuni

Avvalo har bir milliy bayramlarni tashkil etishdan oldin ma'lum bir g'oya tanlanadi. O'sha g'oya asosida milliy bayramlarning ssenariysi tuzish boshlanadi. Ssenariy asosidagi ishlarni amalga oshirishda va ijodiy yo'nalishlarni belgilashda ishtirok etuvchi badiiy jamoalar muhim o'rin tutadi. Ssenariydagi har bir blokning tuzilmasiga qarab jamoalarning dasturlari o'rganiladi va tavsiya qilinadi. Ssenariyda g'oyalar asosida mavzular tuziladi va ular orasidagi bog'liqlik ssenariy oxirigacha davom etadi. Milliy ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining asosini ssenariy tashkil etadi. Ssenariy tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi. Tadbirlar bir kunda o'tib ketsa ham uni "san'at" darajasiga kelgunicha ularning ancha ter to'kib mehnat qilishlariga to'g'ri keladi. Jumladan:

Bitta bayramni tayyorlaguncha oylab vaqt ketadi;

Tadbirning ssenariysini yaratish;

Ijodiy jamoaiarni yig'ish;

Boshlovchilar bilan ishlash;

Sahna ko'rinishlarini tayyorlash;

Ansambllarni jalb qilish;

Sahnani bezash;

Repititsiyalarni o'tkazish va boshqa tashkiliy ishlar.

Milliy bayram va tomoshalar ssenariysi tomoshabinga ko'p tomonlama emotsional ta'sir qilishi bilan birga tomoshabinlarni bayramning faol ishtirokchisiga aylantirib, tomoshabinni qahramonlar o'rtasidagi u yoki bu qarama-qarshiliklarga bo'lgan munosabatlari, kechinmalarida birga bo'lishni talab qilmaydi. Shuning uchun milliy-ommaviy bayram va tomoshalar ssenariysida doimo qaramaqarshilikning bo'lishi talab qilinmaydi. Masalan, «Navro'z», «Mustaqillik» bayramlari, xalq sayillari. Bunday bayram va sayillarda teatrlashtirish janrlaridan foydalanilmasa umuman qarama-qarshilik bo'lmasligi mumkin. Bayramlar xalqning xursandchiligi, shodu xurramligini o'zida aks ettiruvchi tadbirlar turiga kiradi.

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib kelgan o'z milliy bayramlari bo'ladi. Ularni o'tkazish va tashkil qilish usullari yildan-yilga o'zgarib, yangilanib, zamonaviylashib boraveradi. Umumta'lim maktablarini oladigan bo'lsak, milliy bayramlarning o'tkazilishi jihatidan sintetik shaklga ega bo'lib, ular tayyorlashda tarixiy shaxslar, xalq qahramonlarining timsollari ishtirokidagi sahna ko'rinishlar, teatrlashtirilgan lavhalar, fan madaniyat, san'at arboblari bilan uchrashuvlar, konsert dasturlari spektakllar, musiqa to'garaklari ishtirokchilarining chiqishlari, sport o'yin va musobaqalari, turli amaliy, tasviriy san'at asarlari shuningdek, bolalar texnik to'garaklari ishtirokchilari tomonidan yasalgan texnik vositalarining ko'rgazmalari kabi ko'plab shakl va usullarini birlashtiradi. Milliy bayramlar o'quvchi-yoshlar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyat, birdamlik mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg'ularini o'zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir,

Bayramlar o'z-o'zidan bayram shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. O'quvchilar imkoniyatini hisobga olib, zamon



talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an'analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g'oya uyg'unligida tashkil etilgan bayram va tomoshalar yuqori darajada o'tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki o'quvchilar bayram-tadbirlariga madaniy hordiq chiqarish uchun, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko'tarish va boshqa ijobiy xislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlariga qiziqishini yanada orttirishga, o'z mehnatidan zavq olishiga, mehnat unumdodigiga erishishiga, ota-onasini, Vatanni sevishga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o'zgartirishiga olib keladi. Milliy bayramlarni tashkil etishning asosiy maqsadi ham shunga qaratilgan. Umumta'lim maktablarida milliy bayramlarni tashkil etish uchun o'qituvchi-rejissyor va uning atrofidagi sahnalashtiruvchi, ishchi guruhlarning hamfikrligi, ularning dunyoqarashlarining bir-biriga mos kelishi va bir-birlarini toldirib borishlari va eng asosiysi bayramning mohiyatini keng maktab ommasiga yetkazib berish masalasidagi ularning hamjihatligi ayniqsa muhimdir.

Maktabda har qanday bayram-tadbirlarini to'g'ri tashkil etish o'qituvchi-rejissyorning nuqtayi nazari, dunyoqarashi, uning saviyasi va tashkilotchilik qobiliyatining darajasiga bog'liq.

Maktab tadbirlarini yoki bayram-tomoshalarini tashkil etishda bitta tashkilotchining o'zi muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Bayram tashkilotchisming asosiy vazifasi shundan iboratki, u o'z atrofiga fikri teran, dunyoqarashi keng, o'z sohasini yaxshi biladigan, o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydigan, tashkilotchi (rejissyorning) fikri, g'oyasi, oliy maqsadi, nuqtayi nazarini bir qarashda ilg'ab oladigan, tushunadigan ijodkor-o'quvchilarni yig'ib olishi kerak. Faoliyati davomida bayram tashkilotchisi ko'p muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Shu sababdan bayram tashkiliy ishlarini taqsimlab olishi kerak. Yangi yildan tortib, Vatan himoyachilari kuni, Hazrat Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, Zulfiyaxonim, Muhammad Yusuf (va h.k)larning tavallud kunlari, Xotin-qizlar,

Navro'z bayramlari, Kulgu kechalari, Xotira va qadrlash, Bolalar kuni, Mustaqillik, Ustoz va murabbiylar, Konstitusiya, Til bayramlari va boshqalarni tashkil etish va o'tkazishda maktabda faoliyat yuritayotgn madaniyat va san'at sohasi xodimlariga katta bilim, tajriba va mahorat maktabi kerak bo'ladi.

**Mustaqillik bayrami haqida.** O'zbeklarning azal-azaldan to'ylari ko'p bo'lgan. To'ylar - orzu-umidlar ushalishi ayyomi sifatida hozir ham davom etmoqda. XXI asrning so'nggi 10 yilligi boshida o'zbek to'ylari qatoriga yana bir shodiyona - respublikamizning mustaqillik bayrami kuni qo'shildi. 1991-yildan boshlab 1-sentabr kuni eng aziz, eng ulug' milliy bayram kuni sifatida mamlakatimiz miqyosida har yili katta shodiyona bilan nishonlanadi. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z qadr-qimmatini, bo'y-bastini, madaniyati va an'analarini, diniy e'tiqodini, tili va ma'naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga to'la-to'kis asos yaratdi. Mustaqillik bayrami o'zbek xalqining eng muhim an'anasiga aylandi. Dunyoning barcha xalqlari mustaqillik kunini o'zlarining eng asosiy bayrami deb hisoblashadi. AQSH, Finlandiya, Gretsiya, Bangladesh, Senegal, Kipr kabi juda ko'plab mamlakatlarda mustaqillik kuni davlatning eng asosiy bayrami sanaladi. Ba'zi davlatlarda Respublika mustaqilligi bilan bog'liq bir necha sana nishonlanadi.





***11-rasm. Bayram tadbirlaridan lavha.***

1991-yil 1-sentabrda O'zbekistonda ilk bor mustaqillik bayrami nishonlandi. Bu bayramning nishonlanishi haqida «Xalq so'zi» gazetasi quyidagilarni yozgan edi: «Ko'p millionli O'zbekiston xalqi jumhuriyat Oliy Kengashining sessiyasida ta'sis etilgan yangi bayram - Mustaqillik kunini birinchi marta nishonladi. Jumhuriyat parlamenti qabul qilgan Qonunga muvofiq, O'zbekiston mustaqil respublika bo'lib qoldi, bayramning belgilanishi ana shu shonli voqea bilan uyg'unlashib ketdi. Endi 1-sentabr bayram sifatida nishonlanadi va dam olish kuni deb hisoblanadi. Shu kuni O'zbekiston poytaxtining bosh maydonida tantanalar uyushtirildi. Bu yerda odatdagi dam olish kunlaridagidek odamlar sayr qilib yurishdi, ayni vaqtda musiqa sadolari, rang-barang bu kunning tantanavorligini bildirib turdi. Kechqurun esa badiiy havaskorlik jamoatlari shaharliklarga o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Shaharning boshqa maydonlarida, oromgohlari, xiyobonlari va bog'larida ham artistlar, ijodiy guruhlarning chiqishlari bo'ldi. Xalq sayllari o'tkazildi. Shu kuni Toshkent dorulfununining markaziy maydonida miting bo'ldi. So'zga chiqqan kishilar to'planganlarni Mustaqillik kuni bilan tabrikladilar, eng ezgu tilaklarini izhor

qildilar. Mustaqillik kuni O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng nishonlandi (Xalq so'zi. 1991-yil 3-sentabr).

### 10.2. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

Umumta'lim maktablari musiqa to'garaklarida xalq musiqa ijodiyotini o'rganish quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi:

Umumta'lim maktablarida musiqa to'garaklarida xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan foydalanishda ularni ma'lum mezon va talablarga ko'ra tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda:

a) xalq musiqa ijodiga mansub asarlarning har bir musiqa to'garagining musiqiy mavzulariga va dastur talablariga mosligi;

b) asarlarning o'quvchilarning musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to'g'ri kelishi;

d) tanlangan asarlar o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtayi nazaridan tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi;

e) o'quvchilarda o'qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi;

f) xalq musiqa ijodiyoti namunalarining hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan umumxalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

g) asarlarni o'rganishda ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o'zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga egaligiga e'tibor qaratilishi muhimdir.

Xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda musiqa to'garaklarida o'rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtayi nazaridan yondashish lozim. Dars va darsdan tashqari to'garak jarayonlarida xalq musiqasi namunalarini o'rganish, ijro etish ishlari ular haqidagi tarixiy, adabiy, nazariy manbalardan imkon qadar ko'proq foydalanish



orqali amalga oshirilishi lozim. Bu pedagogik talab musiqa to'garaklarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya'ni erkin tanlov asosida o'rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo'lishi lozim.

Musiqa to'garaklari faoliyatida o'rganish uchun tanlab olingan namunalar o'quvchilarning an'anaviy mumtoz va folklor yo'nalishida mustaqil bilim olishga bo'lgan talab va istaklariga mos kelishi va o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etishda e'tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik sharoit o'z mazmunida o'quvchilarning musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun izchil va maqsadli mashg'ulotlar olib borishni nazarda tutadi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqa to'garaklari mashg'ulotlariga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilish maqsadga muvofiqdir

Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda, ularning qaysi mahalliy uslubga xosligi, janri, ijrodagi cholg'ular ishtiroki, raqs jo'rligi kabilarga e'tibor berish eng muhim shartlardan hisoblanmog'i lozim. Chunki bu jihatlar xalq musiqasining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va o'quvchilarning umummusiqiy biluv darajasining takomillashuviga, milliy musiqaning o'ziga xos uslublarini, ijrochilik an'analarini chuqur o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etadi, ta'kidlab o'tilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

Umumta'lim maktablarida musiqa to'garagi rahbari to'garak mashg'ulotlari faoliyatida o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko'rib, o'z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim. Chunki o'qituvchi-murabbiyning bu faoliyatdagi muvaffaqiyati uning xalq tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analari, shuningdek, musiqa san'ati sohasida qanchalik keng bilim va malakaga ega ekanligiga hamda shaxsiy namunasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Xalq musiqa ijodiyoti orqali o'quvchi-

yoshlarda milliy madaniyatni shakllantirishda ushbu pedagogik talab va mezonlarni eng maqbul va mukammal vositadir. Zotan, milliy musiqiy ta’lim va tarbiyani milliy negizda takomillashtirish vazifalari har bir pedagog-murabbiydan fidoyilikni, tashabbuskorlikni, o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalangan holda ish tutishni talab qiladi. Inson shaxsi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakilanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va to‘garaklar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitdan himoya qilishdir. Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, hayotga joriy etishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z - o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

- o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o‘quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish.



Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg’onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik)ni keng qo‘llashi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat - muloqotni o‘rganish, o‘z xalqi, davlatining himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish. O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog’iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqiy va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta’lim- tarbiya;

- milliylikning o‘ziga xos an’analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish. Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ekanligiga va bu jarayon turli yoshdagi bolalarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

Musiqa to‘garaklari o‘quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklari va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Musiqa to‘garaklarining o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

## Savol va topshiriqlar:

1. Umumta'lim maktablarida milliy bayramlar qanday tashkil etiladi?
2. Bayramlarning ssenariysi nimalar asosida tuziladi?
3. Milliy bayramlarimizni nishonlashning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
3. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbek xalq musiq ijodiyoti namunalaridan musiqa to'garaklarida o'rgatishning maqsadi nima?

## MUSTAQIL TA'LIM UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1.Maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida O'zbek xalq cholg'u ansamblini tashkil qilishning pedagogik xususiyatlari.

2.Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyaning uslublari.

3.O'rta maktab to'garak mashg'ulotlarida rubobchi sozandalar dastasini tashkil qilish yo'llari.

4.Maktabdan va sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning shakllari.

5.To'garak mashg'ulotlarida doirachilar dastasin tashkil qilish uslublari

6.Sinfdan tashqari musiqiy to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'zbek xalq cholg'u orkestrini tashqil qilish yo'llari.

7.To'garak mashg'ulotlarida Vokalchi qizlar dastasin tashkil qilish

8.Boshlang'ich sinflarda yosh havaskor cholg'uchilar to'garagini tashkil etish

9.Maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotiarida dutorchilar ansamblini tashkil qilish.

10.Maktabdan tashqari bolalar bog'chasining «Cholg'u ansambli» to'garagini tashkil etishda musiqiy tarbiyaning o'rni.

11.Musiqiy to'garak mashg'ulotlarida o'zbek xalq kuylarini o'rganishning o'ziga xos ahamiyati.



12.O'quvchi yoshlarning milliy tafakkurini shakllantirishda musiqiy to'garaklarning o'rni.

13.To'garak mashg'ulotlarida changchilar dastasini tashkil qilish.

14.O'rta maktab to'garak mashg'ulotlarida maqomchilar dastasini tashkil qilish.

15.Sinfdan tashqari "Drama to'garaklari" ni tashqil qilish uslublari.

16.Musiqiy to'garak mashg'ulotlari jarayonida (Folklor) jamoasini tuzish.

17.To'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda maktab ma'muriyatining roli.

18.Sinfdan tashqari musiqa to'garaklarini tashqil etishning uslubiy asoslari.

19.Kamonli cholg'ular ansamblini tashkil etishda to'garak rahbarining roli va vazifasi.

20.To'garakda rubobchilar dastasini tashkil qilishda ma'naviy – ma'rifiy ishlar.

21.Sinfdan va maktabdan tashqari (xor jamoasi) to'gargini tiashkil etish.

22.To'garakni tashkil qilishda ansamblning boshlang'ich musiqa savodini shakllantirish.

23.O'rta maktablarda musiqiy to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishdagi imkoniyatlar.

24.Musiqiy to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

25.To'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning qobiliyatini oshirishning amaliy ko'rsatmalari.

26.Sinfdan va maktabdan tashqari havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish.

27.Havaskorlik to'garak mashg'ulotlarida musiqa savodini rivojlantirish ishlari ustida ishlash

28.Havaskorlik ashula va raqs ansambllarida ma'naviy - ma'rifiy ishlar.

29.Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy mashg'ulotlarning tarbiyaviy ahamiyati mazmuni.

30. Maktabdan va sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarning turlari.

31.Maktabda to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning axloqiy tarbisini shakllantirish»

32. Musiqiy to'garaklar tashkil etish fanining maqsad va vazifalari.

33.Yoshlarning ma'naviyatini boyitishda maktab musiqiy to'garak mashg'ulotlarining o'rni

34.Musiqiy to'garak mashg'ulotlarida Interfaol texnologiyalarni qo'llash va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

35.Maktabdan tashqari musiqiy to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni musiqa tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish.

36.Milliy musiqa san'atining yoshlar ma'naviy-madaniyatini shakllantirishdagi tutgan o'rni.

37. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy to'garak mashg'uloti jarayonida qo'shiq mavzusini tanlash va ijrochilik masuliyatini shakllantirish.

38.Maktabda musiqiy to'garaklar tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.

39.O'quvchilarning musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishda maktab badiiy- havaskorlik to'garaklarining tutgan o'rni.

40.Maktabdan va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlari jarayonida o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambllarini tashkil qilishning uslubiy asoslari.

41.Sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlari jarayonida Vokal cholg'u ansamblini tashkil etish.

41.Oliy ta'lim tizimida to'garak tashkil etish uslublari.



42.To'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning ijrochilik mahoratini oshirish.

43.Umumta'lim maktab ma'muriyatining to'garak tashkil qilinishidagi roli.

44.Sinfdan tashqari ikki ovozli xor to'garagini tashkil etish.

45.To'garak rahbarining pedagogik mahorati.

46.Havoaskorlik drama to'garagini tashkil qilish imkoniyatlari.

47.To'garak mashg'ulotlarida individual ishlash tartibi.

48.Doirachilar to'garagini tashkil etishda to'garak rahbarining roli.

49.Urma zarbli cholg'ular to'garagini tashkil etish.

50.To'garak qatnashchilarning davomatini nazorat qilish imkoniyati.

51.Raqs to'garagini tashkil etishda to'garak rahbari vazifasini to'g'ri yo'lga qo'yish.

52.Quvnoqlar va zukkolar to'garagini tashkil etishda musiqiy kuy-qo'shiqlarning ahamiyati.

53.To'garak mashg'ulotlari orqali bolalarni axloqiy madaniyatini shakllantirish.

54.Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy to'garaklar tashkil etish.

55.Vokal cholg'u ansamblini tashkil etish etishda to'garak rahbarining vazifasi.

56.Yakka turdagi cholg'uchilar (Rubobchilar) ansamlini tashkil etish

57.To'garak tashkil etishda musiqa o'qituvchisining roli va muammolari.

58.Maktabgacha tarbiya muassasalarida to'garak tashkil etish uslublari.

59.Talabalarning tafakkurini shakllantirishda musiqiy to'garakning roli.

60.Xor jamoalari to'garagini tashkil etish muammolari.

## AMALIY MASHG'ULOT UCHUN ASARLAR

# O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi









hon
Ol - tin bu
vo - diy - lar jon O'z - be - kis
ton Aj - dod -lar mar- do-




na ru - hi sen- ga yor U - lug'
xalq qud - ra - ti jo'sh ur - gan za -mon O - lam-
ni mah-li -yo ay- la - gan di - yor Bag'-ri




Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh , mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin, toki bor jahon!

naqorat:
Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston.
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati, jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Halqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!



# Buvijonim- buvijon

P Mo'min she'ri
S. Abramova musiqasi














Hozir necha Yoshingiz

So'zlaringiz kup qiziq

Yuzingiz nega chiziq

Achomlasam buvijon

Bag'ringiz muncha issiq?

Dadamalarni boqqnsiz

Oyimlarga yoqqansiz

Topishmog'u ertakka

Buvijonim chaqqonsiz

# Oq terakmi, ko'k terak

Allegretto

S Yudakov musiqasi
M Otajonov moslashtirgan













# NEVARALAR QO'SHIG'I

*Nadim Norxo'jayev* musiqasi

*Safar Barnoyev* she'ri



# SOG'LOM AVLOD QO'SHIG'I

S.Barnoev she'ri

Sh.Yormatov musiqasi









Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Menga atlas, ukamga
Gijinglagan toy bo'lsin.

Naqorat:
Dadam yuzga kirsinlar,
Ayam yuzga kirsinlar, hey!
Bizlar yuzga kirganda
Yonimizda yursinlar.

O'saversin bo'yimiz,
Tenglik, orzu-o'yimiz.
Bu dunyoda bor bo'lsin
O'zbekiston uyimiz.

Naqorat.
Yursak gullar, bog' bo'lsin,
Ko'kragimiz tog' bo'lsin.
Istiqlolga boshlagan,
Yurtboshimiz sog' bo'lsin.



# Paxtaoy

T.Ilhomov she'ri
F.Nazarov musiqasi






Bizning kumush paxtaoy,
Dalamizga sen chiroy.
To`lib chiqding chanoqqa,
Kulib boqding xar yoqqa.

Naqorat:

Paxta, paxta, jon paxta,
Yurtim senga kon paxta.

Yulduzlardek sochilib,
Lo`ppi-lo`ppi ochilib,
O`lkamizga fayz bersang,
Dilni xushnud qilsang.

Naqorat.

Xirmoningdan tog` qildik,
Ko`ngillarni chog` qildik,
Sen bizning g`ururimiz,



## YALLAMA YORIM

O'zbek xalq qo'shig'i

Xor uchun *J.Shukurov* moslashtirgan






1. Qaldirg'och qaro ekan
Qanoti a'lo ekan.
Yoshlikda bergan ko'ngil
Ayrilmas balo ekan.

2. Sen turganding yonimda
Yonim emas jonimda.
O'qishga birga ketish,
Bu yilgi planimda

3. Katta kanal shamoli,
Ro'molim olib ketdi.
Uchirib olib borib,
G'o'zaga ilib ketdi.

Naqarot:
Yallama yorim, yallola,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Uchtami to'rtta bir bo'lib,
Roxatlashaylik.

Naqarot:
Yallama yorim, yallola,
Yallolashaylik, bedodlashaylik.
Uchtami to'rtta bir bo'lib,
Roxatlashaylik.



# DO'STLIK

Avaz Mansurov musiqasi
S.Muzafarova vokal ansambli
uchun moslashtirgan

Murtazo she'ri







S.
A.
T.
B.
Ba'-zi-da kel-ti-rar g'am-lik va ko'z yosh,
Do'st-lik-ka mus-tah-kam pos-bon bo' - lay - lik.
Ba' - zi - da kel - ti - rar g'am lik
Do'st - lik ka mus-tah-kam pos - bon
Naqorat:
f
va ko'z yosh.
bo' - lay - lik.
Qu - von - sin, qu -
von - sin, qu - von - sin yosh dil - lar. Qu -




S.
A.
T.
B.
von - sin, qu - von - sin, qu - von - sin yosh dil -
lar.
Kul-fat-ni o-son yen-ga-di, kul-fat-ni o-son yen-ga-di
3
Do'st de-gan in-son, do'st de-gan in-son, do'st - lik...






# O'ZBEKISTON

Muhiddin Omon she'ri

D.Omonullayeva musiqasi
Saodat Muzaffarova xor uchun moslashtirgan




Voice
Ming-ta jan nat bo-g'i dan_ham sen mu-qad-das.
Tang-rim u-lug' qil-sin mu-dom ka-mo-ling-ni,
Ming-ta jan-nat bo-g'i-dan ham
Tang-rim u-lug' qil-sin mu-dom
sen mu-qad-
ka-mo-ling-
cresc.
cresc.
Voice
das.
ni.
S.
f O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton,
Man-gu so'l-mas ba-ho-rim
A.
f
T.
f O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton,
B.
Man-gu so'l-mas ba-ho-rim
f




S.
san, O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton,
Bax-ti kul-gan di-yo-rim
A.
T.
san, O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton,
Bax-ti kul-gan di-yo-rim
B.
S.
san O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton.
Man-gu so'l-mas ba-ho-rim
A.
T.
san O'z-be-kis-ton, O'z-be-kis-ton
Man-gu so'l-mas ba-ho-rim
B.






# Baxti erkatoy

To`lqin Toshmatov musiqasi
Xaydar Muxamad she'ri






Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy.
Ertalab turib,
Ichmas ekan choy.

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy.
To`g`ri yo`l turib,
Kechar ekan loy.

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy.
Darsin qoldirib,
Keyin ishi voy.



# Quyonlar

A. Raxmat she'ri
G'. Qodirov musiqasi








# Koptok

D. Omonullayeva musiqasi











# Bug'doy

D Omonullayeva musiqasi














# Quyon

O'zbek xalq kuyi

M Otajonov qayta ishlagan








Quyonim-quyonim, nima bo'ldi,
Kasalga o'xshab o'tiribsan?
Barra o'tlaring yo'qmidi,
Yo esa qorning to'qmidi?
Bitta o'ynab ber,
Bitta o'ynab ber.
Quyoni-quyonim, nima bo'ldi,
Kasalga o'xshab o'tiribsan?
Yoki birovdan qo'rqdingmi,
Yo hech hadiging yo'qmidi?
Bitta o ynab
Bitta o ynab ber.

## TEST SAVOLLARI

1. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi nimadan iborat?

A) musiqa fani bo'yicha dars mashg'ulotlaridan tashqari musiqa to'garaklarini tashkil etish va o'tkazish

B) bolalarni fanga qiziqtirish

S)Maktabda tadbirlar o'tkazish

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nechinchi qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"?

A) PQ 6000

B) PQ 112

S)PQ 3160

3. Sinfdan tashqari ishlar deganda nimani tushunasiz ?

A) Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri.

B) Darslarni to'g'ri tashkil qilish

S)Bolalar bilan birgalikda mashg'ulot o'tish.

4. To'garak jamoasi o'rtacha necha kishidan iborat bo'ladi?

A) 10-15ta

B) 20 ta

S)10-16 ta

5. Musiqa to'garagi rahbarining vazofalari nimalardan iborat?

A) O'quvchilarga qo'shiq o'rgatadi

B) Musiqa to'garagini tashkil etadi, olib boradi.

S)Dars o'tadi.

6. Zamonaviy musiqa to'garagi rahbari qanday bo'lishi kerak?

A) Kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi bo'lishi kerak.

B) O'quvchilarga bilim berishi kerak.



S) O'quvchilarni tadbirlarga tayyorlashi kerak.

7. "Musiqa savodi" to'garagida nimalar amalga oshiriladi?

A) Musiqa to'garaklarida o'zlashtiriladigan kuy-qo'shiqlarni ongli ijro etishlari, ularning nazariy asoslari haqida yaratilish tarixi, mualliflari, uslublari, xarakteri, janriy xususiyatlari, tuzulishi va shu kabi xususiyatlarini ongli tushunib, shu asosda yondashib o'rganishlari uchun xizmat qiladi.

B) O'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etadi.

S) Maktabda o'lib bpriladigan tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga xizmat qiladi.

8. O'zbek xalq cholg'ulari kim tamondan rekonsruksiya qilingan?

A) A.I.Petrosyan

B) A.Odilov

S) Usta Usmon Zufarov

9. "O'quvchilar guruhlarga bo'linadilar. To'garak rahbari har bir guruhga o'quvchilar o'rgangan turli qo'shiqlardan 4 takt kirish qismini ijro etib boshlab beradi. Guruhlar navbat bilan ijro etilgan asar nomini aytib, davom ettirishlari kerak. Vazifani to'g'ri bajargan guruh rag'batlantiriladi". Ushbu metodning nomini ayting?

A) "Aqliy hujum"

B) "Sinkveyn" metodi

S)"Klaster" metodi

10. Vokaliz kuylash o'quvchilarga nimalarni o'rgatadi?

A) Vokaliz kuylash — bolalarga musiqaviy badiiy tarbiya beribgina qolmay, ularga estetik zavq ham bag'ishlaydi, ularda o'rtoqlik va jamoa ishi uchun mas'uliyat sezish kabi fazilatlarni o'stiradi.

B) O'quvchilaning ovozini shakllantirib, qo'shiq kuylashga tayyorlaydi

S)barcha javob to'g'ri

11. Vokal to'garagini tashkil etish nechta vazifadan iborat?

A) 4ta

B) 7ta

S)6ta

12. Vokalchilar to'garagi a'zolari necha kishidan iborat bo'ladi?

A)10-20 ta

B) 15-20ta

S)20-25ta

13. Vokalchilar to'garagi faoliyati nimaga asoslanadi?

A)Qo'shiq kuylashga

B) Nota o'rganishga

S)Dars o'tishga

14. Xalq og'zaki ijodida - **folklor** atamasi qaysi tildan olingan?

A)inglizcha

B) arabcha

S)fransuzcha

15. Vokal to'garaklarida mashqlar ustida ishlash nechta bosqichda amalga oshiriladi?

A)4ta

B) 3ta

S)2ta

16. Insonga sihat-salomatkli tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan hatti-harakatlar marosim qanday folklor deyiladi?

A) Marosim folklori.

B) Mavsumiy folklor

S) Mehnat qo'shiqlari

17. Askiya nima?

A) Askiya arabcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, so'zamol, zakovatli, o'tkir zehnli degan ma'nolarni anglatadi.

B) Askiya tojikcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, o'tkir zehnli degan ma'nolarni anglatadi.



S)Askiya inglizcha «zakiy» so'zidan olingan bo'lib, kuldirish degan ma'nolarni anglatadi.

18. Ushbu qo'llanmaga kiritilgan folklor qo'shiqlarning muallifi kim?

A) A. Oripov

B) M.Sattarova

S)G. Muhammedova

19. Xoreografiya so'zi qaysi tildan olingan?

A) Grekcha so'zdan olingan bo'lib, «choreia» - o'yin, «grapho» - yozaman, ya'ni so'zma-so'z taijima qilinganda «Raqsni yozaman», degan ma'noni bildiradi.

B) Inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «choreia» - o'yin, «grapho» - tushaman, ya'ni so'zma-so'z taijima qilinganda «Raqsga tushaman», degan ma'noni bildiradi.

S)Arabcha tildan olingan bo'lib, "Raqsni ifodalayman" degan ma'noni anglatadi.

20. Raqs to'garaklarida qo'llaniladigan o'lchovlar qanday bo'ladi?

A) 3/4, 4/4, 3/8, 6/8, 7/8, 12/8 o'lchovlarida yoziladi.

B) Raqs to'garaklarida qo'llaniladigan o'lchovlar har xil bo'lib, ular 2/4, 3/4, 4/4, 3/8, 6/8, 7/8, 12/8 o'lchovlarida ham yoziladi. Bu o'lchovlarning templari ohista, mo'tadil, quvnoq, jozibali, tez va o'ta chaqqon suratlarda ijro etiladi.

S)2/4, 3/4, 4/4, Bu o'lchovlarning templari ohista, mo'tadil, quvnoq, jozibali, tez va o'ta chaqqon suratlarda ijro etiladi.

21. Mashhur raqqosalardan kimlarni bilasiz?

A) Iroda Iskandarova

B) Malika Qurbonova, Rushana Soliyeva

S)Mukarrama Turg'unboyeva

22. O'zbekiston Davlat teleradioqo'mitasi qoshida Sh.Yormatov boshchiligida bolalar xor jamoasi qachon tashkil qilingan edi.

A)1970-yilda

B) 1971-yilda

S)1997-yilda

23. Dutor cholg'usi qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?

A) Urma sozlar

B) Mizrobli sozlar

S) Chertib chalinadigan

24. Dutor qaysi intervalga sozlanadi?

A) primaga

B) kvartaga

S) sekistaga

25. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali qayerda o'tkaziladi?

A) Buxoroda

B) Boysunda

S) Samarqanda

26. Dutorning bo'g'zi qaysi daraxtdan yasaladi?

A) o'rikdan

B) olmadan

S) yong'oqdan

27. Dutorning og'irligi qancha?

A) 500gr

B) 600gr

S) 850gr

28. Dutor cholg'u haqida nechanchi asrda va kim tomonidan ilk bor tilga olingan?

A) Darvishali Changiy XVI asr

B) Al-Husayniy XV asr

S) Farobiy X asr

29. Qaysi vohalarda dutor ijrochilik maktablari mavjud?

A) Xorazm, Toshkent, Andijon

B) Qashqadaryo, Jizzax

S) Navoiy, Buxoro

30. Musiqada harakat tezligi nima deb ataladi?



A) tembr

B) temp (sur'at)

S) Alteratsiya

31. Dutor ijrochiligida "glissando" usuli Farg'ona va Toshkentda nima deb nomlanadi?

A) "toydirma zarb"

B) "bezak"

S) "otlash"

32. Dutor ijrochiligida barmoqlarni qo'yish va almashtirish tartibi nima deb nomlanadi?

A) Forshlag

B) Aplikatura

S) Menzura

33. Bir oktavadan kam bo'lmagan oraliqdagi tovushqatorning bir tekis ko'tarilishi yoki pasaytirilishi nima deb nomlanadi?

A) Gamma

B) Mashq

S) Etyud

34. Dutor qopqog'iga tekkizib chalish qaysi vohaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi?

A) Toshkent

B) Xorazm

S) Buxoro

35.Yakkaxon xonandalar va cholg'u ijrochilariga jo'r bo'luvchi akkompanemenchi kim deb ataladi?

A) Jo'rnovoz

B) Yordamchi

S) Akkordchi

36. Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda dutorning qanday yasalgan turi qo'llanilib kelinmoqda?

A) 10- 12 qovurg'alarning birlashishidan yasalgan dutorlar

B) o'yma dutorlar

S) tanbursimon dutorlar

37. Cholg'u sozini qanday ushlash, uni chalishga hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qo'llar, oyoqlar, ambushyur) tayyor bo'lish nima deyiladi?

A) Ijrochilik holati

B) Ijrochilik texnikasi

S) ijrochilik mahorati

38. Barmoqlar harakatchanligi kabi omillar dutor ijrochiligida qanday nomlanadi?

A) o'zini tutishi

B) ijrochiligi

S) Ijrochilik texnikasi

39. Ikki musiqa tovushi orasidagi balandlik oralig'i nima deb nomlanadi?

A) Interval

B) akkord

S) tonika

40. Musiqa asarida ayrim qismlarini takroriy ijro qilish uchun belgi ishlatiladi. Ularning nomlarini ayting?

A) Ligato

B) Repriza, segno

S)Allegro

41. O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi dutorchilar ansamblini qaysi taniqli sozanda, bastakor tuzgan?

A) Tavakkal Qodirov

B) Zamira Suyunova

S) G'anijon Toshmatov

42. O'zbek musiqasini, xususan ansambl ijrochiligini rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shgan, XX asr ijod qilgan sozanda nomini ko'rsating?

A) Shuxrat Yo'ldoshev

B) Faxriddin Sodiqov

S) Jo'raxon Sultonov



43. Forobiyning musiqaga oid kitobi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) «Davolash kitobi»

B) «Katta musiqa kitobi», «Kitob al-musiqa al-kabir»

S) «Bilimlar kaliti»

44. «Bahor valsi» asarini yozgan bastakor nomini aniqlang?

A) Vasilev

B) S. Komilov

S) Muxammadjon Mirzayev

45. Musiqiy meros deganda nimani tushunasiz?

A) Milliy qadriyat, teatr ijrochisi

B) Milliy musiqiy madaniyatimiz

S) O'zbek xalq adabiyoti

46. Ansambl so'ziga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping?

A) Ansambl Fransuzcha "birgalikda" ma'nosini anglatadi.

B) Ansambl Fransuzcha bo'lib "soz" ma'nosini anglatadi.

S) Ansambl lotincha "umumiylik" ma'nosini anglatadi.

47. O'zbek milliy cholg'ulari qaysi javobda to'g'ri nomlangan?

A) Qashqar rubobi, chang, dutor, nay, g'ijjak, doira.

G'ijjak, nay, dutor, akkardion, tor.

S) Dutor, rubob, fortepiano, skripka, chang, doira.

48. Qanday tovushlar musiqiy tovushlar sanaladi?

A) Aniq balanlikka ega bo'lgan, qo'shiq kuylash, cholg'u sozlarida yangraydigan tovushlar

B) Kuylanadigan, tembrga ega tovushlar.

S) Cholg'u sozlarida yangraydigan tovushlar.

49. Skripka kaliti nimani ifodalaydi?

A) Nota yo'lida tovushni o'rnini

B) Nota yo'lining ikkinchi chizig'ida 1 – oktava sol tovushini.

S) Oktava tovush qatorini.

50. "Cholg'uchilar ansambli" ga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang?

A) Musiqa asarini bir necha cholg'ularida birgalikda ijro etilishi.

B) Kuyning birgalikda ijro etilishi.

S) Kuyning ikki kishi tomonidan ijro etilishi.



## GLOSSARI (Izohli lug'at)

**Akkompanement** – (frans. Accompaniment accompagner – jo'r bo'lish) – musiqa cholg'usi ijro etilganda yoki ashula aytganda unga jo'r bo'lish.

**Akkord** – (ital. Akkordo – muvofiqlashtiraman) balandligi turlicha uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib, yaxlit holda yangrashi. To'rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord -nonakkord, olti tovushli akkord – undetsimakkord deyiladi.

**Aksent** – (lot. O'rg'u, ta'kidlash) biror tovush yoki akkordni boshqalaridan ajratgan holda qattiq chalish.

**Akustika** – (tovush tarqalish nazariyasi) – tovsh paydo bo'lishi, tarqalishi va o'zgaruvchanligini bildiradi.

**Alteratsiya** – (lot. Alteration – o'zgarish) tovush nomini o'zgartirmagan holda uning balandligi yarim yoki bir tonga ko'tarilish yoki pasaytirish . Diez -#; dubl diez – X; bemol – b; bekar – tovushni o'z holida ijro etish.

**Ansambl** – (frans. Ensemble – birga, birgalikda; ansaml musiqada, baletda, arxitekturada qo'llaniladi) jamoaviy kuylash va musiqiy cholg'u asboblari bilan uyg'unlik.

**Applikatura** – (nemis. Qo'ymoq, bosmoq) musiqa cholg'ularini ijro etganda barmoqlarni qo'yish va almashtirish tartibi.

**Avj** - [ arab. – chuqqi ] – musiqa bayoni va rivojida eng y–qori nuqta.

**Bas** – (ital. Basso) erkaklarning pastki ovozi.

**Dirijor** – (frans. Diriger – boshqarish, yo'lga solish) musiqiy asarni ijro etuvchi jamoalar, yakkaxonlar, xor, orkestrga rahbarlik qiluvchi san'atkor.

**Dutor** - (forscha) — O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa cholg'usidir. Nomi fors tilidan „ikki tor" (< دو *du* — „ikki", تار *tār* — „tor") deb tarjima qilinadi, biroq Hirot dutori o'n to'rtta torli bo'ladi. Dutor XV asr atroflarida paydo bo'lgan.

**Forshlag** – kichik notachalar bilan ko'rsatilgan bir yoki bir necha tovush bo'lib, buning uzunlik miqdori takt o'lchoviga kirmaydi. Undan keying notaga bog'lanib keladi.

**Fortepiano** – musiqa ijrochiligida muhim ahamiyatga ega simli – klavishali cholg'u. Uning yaratilishi 18 asrda italyan ustasi B. Kristofori ismi bilan bog'liq.

**Fuga** – (lot. Fuga – yugurish) polifonik asar shakli.

**Gamma** – bir oktavadan kam bo'lmagan oraliqdagi tovushqatorning bir tekis ko'tarilishi yoki pasaytirilishi.

**Janr** – (frans. Genre -hil, tur) o'ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari.

**Jo'rnavoz** – (nemis. Konzertmeister) – yakkaxon xonandalar, cholg'u ijrochilariga jo'r bo'luvchi akkompanemenchi, talabalar bilan mashg'ulot o'tkazuvchi, musiqa asarini o'rganishda yordam beruvchi va imtixonlarda ularga jo'r bo'luvchi pianinochi, sozandalar.

**Kanon** – (yunon. Kanon) me'yor, qoida; kuyning barcha ovozlaridagi takrorda qat'iy taqlidga asoslangan polifonik musiqa shakli.

**Konsert** – (musobaqa, olishuv) – yevropa cholg'u musiqasining keng tarqalgan janrlaridan biri. Konsert odatda biron –bir cholg'u (fortepiano, skripka, alt, violonchel, ...) ning yakka ijrochisi (solist) va orkestr uchun muljallangan bo'ladi.

**Koda** – ital. Ayrim musiqa asarlarining oxiradigan keladigan qo'shimcha qism.

**Lad** – slav. Uyg'unlik, tartibliklik; parda; turli balandlikdagi musiqa tovushlarining tizimli munosabati. Turg'in pog'onalarning noturg'unlari bilan o'zaro bog'liqligiga asoslangan.

**Major**— (lot. Katta) turg'un tovushlari (I,III va V bosqichlari) ning yig'indisi katta (ya'ni major) uchtovushligini hosil etuvchi tuzuk.

**Minor**— (lot. Kichik) turg'un tovushlari (I,III va V bosqichlari) ning yig'indisi kichik (ya'ni minor) uchtovushligini hosil etuvchi



tuzuk. Minor majordan farqli o'laroq, ko'proq g'amgin holatlarni ifoda etishga moyildir.

**Orkestr** – ko'p sonli musiqachilar jamoasidan tashkil topgan va dirijor tomonidan boshqariladigan turdi musiqa cholg'ulari hamda maxsus yozilgan musiqa asarlarini ijro etadigan murakkab organizmdir. Orkestlar tuzilishi va bajaradigan funksiyalari, hamda janr yo'nalishlaridan kelib chiqib qo'yidagi turlarga bo'linadi: simfonik orkestr, torli orkestr, kamer orkestr, damli cholg'ular orkestri, estrada –simfonik orkestr, xalq cholg'ulari orkestri va boshqalar.

**Pauza** – (yunon. Pausis) tuxtatish, tinish, dam olish, musiqa asarlari ijrosida bir, bir necha yoki barcha ovozlarning ma'lum vaqt davomida sadolanishdan to'xtashi.

**Polifoniya** – (yunon. Poli – ko'p, phone -tovush) ikki va undan ortiq kuychan ovozlarni bir vaqtda qo'shilishi va shu asnoda rivojlanishiga asoslangan ko'povozlilik turi.

**Ritm** – (yunon. Rhytmos) moslik, bir tekis oqim, tovushlarning uzun yoki qisqaligi va urg'ularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha.

**Royal** – fortepianoning asosiy turi. Pianinodan farqi - royaldagi deka, simlar, mexanika gorizontal tarzda joylashgan. Uning nomi fransuz tilidan olingan bo'lib, qirollik degan ma'noni bildiradi.

**Shtrix** – (nem. Strich – yo'nalish chiziq) torli cholg'ularda tovush chiqarish, tovshni boshqarishning asosiy usullari – legato – ravon, staccato – qisqa, non legato – ravon bo'lmagan, marcato – alohida ajratib ta'kidlash.

**To'garaklar-.** Bu darsdan ko'ra ko'proq erkin shaklda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar ko'proq ijodiy faoliyatga kirishadi. Dars tashqari o'quvchilar ko'proq ijodiy mashqlar bajarishi va fikrlarni rivojlantiruvchi jarayonlarda qatnashishi, jamoa va guruh ishida ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

**Tovush kuchi** – Tebranish harakatinig kengligi va kuchiga bog'liq. Ya'ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqyosi – amplitudasi qancha keng va kuchli bo'lsa tovush ham shuncha kuchayadi. Dinamik o'zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlanadi: a) turg'un, ya'ni o'zgarmaydigan; b) asta-sekin o'zgaruvchan, pog'onama-pog'ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): pp-p-mp-mf-f-ff kuchliga va aksincha kuchlidan ff-f-mf-mp-p-pp susayib boruvchi; v) qarama – qarshi – tafovutli (kontrastniy) p-f, pp-ff va unga aloqador urg'ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi.

**Tovush** – fizik hodisa bo'lib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi ta'sir natijasida mexanik harakatga kelishi – tebranishi natijasida hosil bo'ladigan jarayondir. Tabiatda qulog'imiz ilg'aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularnig hammasini ham musiqiy tovush deb bo'lmaydi. Musiqiy tovush o'zining to'rt xossasi, a) bir-biriga nisbatan baland pastligi, b) tusi (tembri), v) davomiyligi, ya'ni cho'zimi, g) kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

**Fermata** – tovush cho'zimining vaqt bilan cheklanmagan uzayishini ko'rsatuvchi belgi.

**Folklor** — inglizcha so'zdan olingan bo'lib, bunda folk (folk) – xalq, lor lore) – donishmandlik, bilimdonlikni anglatadi. Bundan «xalq donishmandligi» ma'nosi kelib chiqadi. Folklor atamasi «xalq ogzaki ijodi» esa «xalq musiqasi» o'rnida ham qo'llaniladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: «O'zbekiston», 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: «O'zbekiston», 2017
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpoetamiz. - T.: «O'zbekiston», 2016
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish tog'rsida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi PQ-3160-sonli qarori.
6. Karimova D.A. Musiqa to'garaklarini tashkil etish. – T.: "Navro'z", 2008. -108-b.
7. Barotov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. - T.: «O'qituvchi», 1995. –86-b.
8. Sh.N.Rahimov. Cholg'u ijrochiligi (dutor misolida). Elektron darslik, T., 2011
9. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta`limi tizimida o'quvchilar To'garak ishlarini tashkil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. –Toshkent: «FAN», 2005. 130 b
10. Abdukarimov M. "Cholg'ushunoslik" (Oliy ta'lim muassalalari uchun o'quv-qo'llanma) Nasaf nashriyoti. 2006 yil.
11. Akbarov I. "Musiqa lug'ati"., Toshkent «O'qituvchi».. 1997 yil.
12. Rasultoyev J. «O'zbek dutor ijrochiligi» T. «O'qituvchi». 1997.
13. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2017.
14. Muhamedova G. Dutor. «Sharq». – T., 2014.

15. Rahimov Sh. Cholg'u ijrochiligi (dutor misolida). Elektron darslik, T., 2011.

16. Nurmatov H. Qashqar rubobi. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 2004.

17. Raximov Sh, Yusupov S. "Cholgu ijrochiligi". T., 2012 yil

18. Turatov S. Xalq cholg'ularini o'rganish. – T., 2015

19. Qudratov I. Odilov A. «Cholg'u asboblarida ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish»., Uslubiy qo'llanma., SamDU., 2015 yil.

20. Madrimov B.X. «O'zbek musiqa tarixi»., Toshkent., «Barkamol fayz media»., 2018 yil.

21. Zufarov To'xtamurod. «Soz va sozgarlik tarixi»., Toshkent.. «Meriyus» nashriyoti., 2014 yil.

22. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – Toshkent: Yangi nashr 2008 yil.

23. Toshmatov O', X.Beknazarov Cholg'ushunoslik (darslik) Toshkent- 2015.

24.Islomov D. "Doira san'ati darg'alari" (monografiya) Toshkent - 2019.

25.Islamov D. " Sharq musiqasi tarixidan" ( monografiya) toshkent - 2017.

## Elektron ta'lim resurslar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.mdo.uz.
2. Ijtimoiy axborot ta'lim portal: www. Ziyonet. Uz.
3. http://www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portal.
4. http://www.istedod.uz – "Iste'dod" jamg'armasi sayti.
5. http://www.edunet.uz – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
6. http://www.mtmmarkaz.uz
7. https://uz.wikipedia.org/



## MUNDARIJA

| | |
|---|---|
| Kirish ........................................ | 3 |
| I-Bob. MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA MA'RUZA MASHG'ULOTLARI MAZMUNI ........................ | 6 |
| 1-Mavzu. Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsad va vazifalari ........................ | 6 |
| 1.1.Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining maqsadi .................. | 6 |
| 1.2.Musiqa to'garaklarini tashkil etish fanining vazifalari .................. | 8 |
| 2-Mavzu. Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodi .................. | 11 |
| 2.1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni .................. | 11 |
| 2.2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish .................. | 14 |
| 3-Mavzu. Musiqa to'garaklari ishlarini rejalashtirish va olib borish metodikasi .................. | 16 |
| 3.1.To'garak rejasini tuzish .................. | 16 |
| 3.2.To'garaklarga o'quvchilarni jalb qilish .................. | 17 |
| 4 – Mavzu. Musiqa to'garagi rahbari oldiga qo'yilgan talablar ......... | 19 |
| 4.1.Musiqa to'garagi rahbarining vazifalari .................. | 19 |
| 4.2.To'garak mashg'ulotlari tahlili .................. | 21 |
| 4.3.To'garak mashg'ulotini kuzatuvchining maqsadi .................. | 23 |
| 5- Mavzu. Musiqa togaragi rahbarining padagogik mahorat ........... | 25 |
| 5.1.Musiqa to'garagi rahbarining padagogik mahorati mazmuni..... | 25 |
| 5.2. Pedagogik mahorat haqida tushuncha .................. | 27 |
| 2-Bob. MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI .................. | 30 |
| 1 – Mavzu. Musiqa savodi to'garagini tashkil etish va olib boorish .................. | 30 |
| 1.1. Musiqa savodi to'garagining ahamiyati .................. | 30 |
| 1.2. Musiqa savodi to'garagining boshqa to'garaklar bilan bog'liqligi va uni olib borish metodikasi .................. | 32 |
| 1.3. To'garak mashg'ulotlarida interfaol metodlarning qo'llanilishi... | 34 |

| | |
|---|---|
| 2-Mavzu. Vokal to'garagi faoliyati | 38 |
| 2.1. O'quvchilarda vokal to'g'risida tushuncha hosil qilish | 38 |
| 2.2. Vokal to'garagini tashkil etish | 40 |
| 2.3. To'garakda qo'shiq kuylash malakasini shakllantirish | 43 |
| 3-Mavzu. Folklor to'garagini tashkil etish va olib borish | 45 |
| 3.1.Folklor san'atining mazmuni va folklor qo'shiqlari haqida tushuncha | 45 |
| 3.2.Folklor qo'shiqlaridan namunalar | 52 |
| 3.3.Folklor to'garagini tashkil etish | 55 |
| 4-Mavzu. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish va olib borish | 57 |
| 4.1.O'zbek xalq cholg'ulari haqida tushuncha | 58 |
| 4.2.O'zbek xalq cholg'ulari ansambli to'garagini tashkil etish va olib borish | 59 |
| 5-Mavzu. Doirachilar to'garagi faoliyati | 62 |
| 5.1. Doira cholg'usi haqida ma'lumot | 62 |
| 5.2. Doirachilar to'garagi faoliyati | 65 |
| 6- Mavzu. Dutorchilar to'garagi faoliyati | 66 |
| 6.1.Dutor cholg'usi haqida ma'lumot | 66 |
| 6.2. Dutor ijrochiligi maktablari | 68 |
| 6.3.Dutorchi qizlar ansambli haqida | 72 |
| 6.4.Dutorchilar to'garagi faoliyati | 73 |
| 7-Mavzu. Rubobchilar to'garagi faoliyati | 76 |
| 7.1.Rubob cholg'usi haqida ma'lumot | 77 |
| 7.2. Rubobchilar ansambli to'garagining tashkil qilinishi | 78 |
| 8- Mavzu. Raqs to'garagini tashkil etish va olib borish | 85 |
| 8.1.O'zbek raqs san'ati haqida | 85 |
| 8.2.Raqs to'garagini tashkil etish va olib borish | 86 |
| 8.3.Raqs to'garagi taxminiy ish rejasi | 89 |





| | |
|---|---|
| 9-Mavzu. Xor ijrochiligi to'garagini tashkil etish va olib borish | 90 |
| 9.1.O'zbekistonda bolalar xori ravnaqi | 90 |
| 9.2.Havaskor xor to'garagini tashkil etish | 93 |
| 9.3.Xor bilan ishlash metodikasi | 95 |
| 10-Mavzu. Milliy bayramlarni tashkil etish va o'tkazish mazmuni | 101 |
| 10.1. Milliy bayramlarni tashkil etish mazmuni | 101 |
| 10.2. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti va ularning tarbiyaviy ahamiyati | 106 |
| Mustaqil ta'lim uchun savollar va topshiriqlar | 110 |
| Amaliy mashg'ulot uchun asarlar | 114 |
| O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi | 114 |
| Buvijonim-buvijonim | 119 |
| Oq terakmi-ko'k terak | 122 |
| Nevaralar qo'shig'i | 125 |
| Sog'lom avlod qo'shig'i | 126 |
| Paxtaoy | 129 |
| Yallama-yorim | 131 |
| Do'stlik | 133 |
| O'zbekiston | 137 |
| Baxti erkatoy | 141 |
| Quyonlar | 143 |
| Koptok | 145 |
| Bug'doy | 147 |
| Quyon | 149 |
| Test savollari | 152 |
| Glossariy | 161 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 165 |

Umida HAMRAYEVA

UO'K 78:37.01(075.8)
KBK 85.998:74.200.58ya73
H 25

# MUSIQA TO'GARAKLARINI TASHKIL ETISH

O'quv qo'llanma

Muharrir: Quldosh MELIYEV

Musahhih: Hafiza ASLANOVA

Sahifalovchi: Zavqiy MELIYEV

© "FAN BULOG'I" nashriyoti, Samarqand – 2023 yil.

**ISBN 978-9910-753-00-8**

Nashriyot litsenziyasi:
№ 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969
Bosishga ruxsat etildi: 25.10.2023 yil.
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84
"Cambria" garniturasi. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.: 10,5. Shartli b.t.: 5,2.
Adadi: 50 nusxa. Buyurtma 112.

"FAN BULOG'I" nashriyotida chop etildi.
Samarqand sh., S.Buxoriy ko'chasi, 1a -11 uy.
Telefon: +998 93 999 52 72

ISBN 978-9910-753-00-8